

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

№ _____

2019-yil _____

«TASDIQLAYMAN»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor:
prof. Soleyev A.

2019-yil _____

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI
fanidan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Samarqand – 2019

MUNDARIJA

1. Fanning annotatsiyasi.....	
2. Muallif(lar) haqida ma'lumot.....	
3. Normativ hujjatlar.....	
3.1. O'quv dasturi.....	
3.2. Ishchi o'quv dasturi.....	
3.3. Kalendar –tematik reja.....	
4. Ta'lim texnologiyasi va o'quv materiallari	
4.1. Ma'ruza mashg'ulotlari.....	
4.2. Amaliy mashg'ulotlar	
4.3. Seminar mashg'ulotlar	
4.4. Mustaqil ishlar	
5. Nazorat materiallari.....	
5.1. Topshiriqlar mazmuni.....	
5.2. O.N. va Ya.N. uchun testlar.....	
5.3. Yozma ish va og'zaki nazorat savollari (variantlar).....	
6. Kurs ishi mavzulari va uni bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.....	
7. BMI mavzulari banki va uni bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.....	
8. Glossariy.....	
9. Ilovalar.....	
10. Ishchi o'quv rejada ko'rsatilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar.....	
11. Uslubiy qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatmalar.....	
12. Elektron darsliklar va boshqa elektron o'quv materiallar.....	

ANNOTATSIYA

Keyingi yillarda o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha muammolar, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, o'zbek mumtoz adabiyotiga kirish, mumtoz poetika, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, davr ijodkorlarining hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq masalalar chuqur o'rganib kelindi va, aytish mumkinki, bugungi kunda ushbu sohada diqqatga sazovor bir qancha ishlar yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi №PF-4797 Farmonida aks etganidek, o'zbek tili va adabiyoti qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, uning shakllanishida miloddan oldingi va miloddan keyingi dastlabki asrlarda mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so'g'diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o'z ta'sirini ko'rsatgani haqida mavjud ilmiy manbalar dalolat beradi. Bu borada Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilmu fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o'rin egallaganini qayd etish joiz. O'zbek adabiy tili ayniqsa XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko'tarildi. Shu ma'noda farmon ushbu soha vakillarining oldiga “zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning yangi va samarali metodlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish” borasida yanada ulkan vazifalarni qo'ydi. Ushbu o'quv-uslubiy majmua “O'zbek adabiyoti tarixi” fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unda mazkur fanning o'quv dasturi, ishchi dasturi, ma'ruza mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi, seminar va amaliy mashg'ulotlarning ta'lim texnologiyasi jamlangan.

Mazkur axborot texnologiyali dars ishlanmalari O'zbek filologiyasi ta'lim yo'nalishi uchun tasdiqlangan “O'zbek adabiyoti tarixi” dasturi asosida tayyorlandi. Unda “O'zbek adabiyoti tarixi” fani bo'yicha ma'ruzalar matni, seminar va amaliy mashg'ulotlar mavzulari va mazmuni, topshiriqlar, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga mo'ljallangan savolnomalar, yozma ish va test variantlari, reyting jadvali, talabaning bilimni baholash mezonlari ham berildi. Mazkur dars ishlanmalari talabaning ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar materiallari ustida mustaqil ish olib borishiga imkoniyat yaratadi, ayni paytda talabaning o'z bilimni o'zi nazorat qila olishiga ham yordam beradi.

Tuzuvchi:

N.Muxitdinova - Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasida dotsenti, PhD

Taqrizchilar:

S.Tohirov - Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasida dotsenti, f.f.n.

E.Musurmonov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O'quv – uslubiy majmua Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasida kafedrasining 2019-yil _____ sonli yig'ilishida muhokama qilingan va o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilingan.

Fakultet Ilmiy kengashi raisi

prof.J.Eltazarov

Fakultet uslubiy Kengashi raisi

f.f.n. Sh.Mahmadiyev

Kelishildi:

**SamDU o'quv-uslubiy
boshqarma boshlig'i**

B.Aliqulov

SAMARQAND-2019

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT

Muxitdinova Nazmiya,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.



Muxitdinova Nazmiya muslixiddinovna 1983-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. 2001-2005 yillarda Samarqand Davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olib, 2004 yilda O'zbekiston Respublikasi bakalavrlari uchun ta'sis etilgan "Navoiy" nomidagi davlat stipendiyasi tanlovi g'olibi bo'ldi. 2005-2007 yillarda Samarqand Davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti magistraturasini imtiyozli bitirdi. 2005-2007 yillar mobaynida SamDU 1-son akademik litseyida o'rindoshlik asosida o'qituvchi lavozimida faoliyat ko'rsatdi.

2007 yildan buyon Samarqand Davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetida ishlab kelmoqda. Filologiya fakultetining "Mumtoz adabiyot tarixi" kafedrası fanlaridan bakalavriatura yo'nalishi talabalariga ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari olib boradi.

2017-yilda prof. H.Qudratullayev rahbarligida «Мирҳасан Садоий ва унинг адабий мероси» mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. U hozirga qadar 2 ta monografiya, 50 ga yaqin ilmiy hamda ilmiy-uslubiy maqolalar muallifidir.

Yashash manzili: Samarqand shahri, Navoiy shoh ko'chasi, 44-uy. Tel: +99897 392-45-25

e-mail: nazmiya.muxitdinova@mail.ru

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

RO‘YXATGA OLINDI:
№ BD-5120100
“ ” 201_ YIL

SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI REKTORI:
 I.XALMURADOV
201__ YIL “ ”

**O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI
fanining**

**O‘QUV DASTURI
(II qism)**

Bilim sohasi: 100000 –Gumanitar soha
Ta’lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi: 5120100– Filologiya va tillarni o‘qitish
(o‘zbek tili)

Fan dasturi samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201_ yil "___" _____dagi "___" -sonli bayonnoma).

Fakultet Ilmiy kengashi raisi

prof.J.Eltazarov

Fan dasturi samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

N.Muxitdinova -

Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasida dotsenti, PhD.

Taqrizchilar:

S.Tohirov -

Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi.

G. Umurova -

SamDChTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Fanning dasturi samarqand davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 201_ yil "___" _____dagi "___"-son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv uslubiy kengash raisi:

prof.A.S.Soleev

Kirish

Mazkur dastur «O'zbek adabiyoti tarixi» fanining dolzarb muammolari, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, tarixiy–adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi kabi masalalar to'g'risida ma'lumot beradi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Talaba yoshlarni xalqning boy ma'naviy merosga suyangan holda ajdodlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Adabiy-badiiy manbalarni, mumtoz adabiyot namunalarini o'rgatish, o'zlashtirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkur ko'lamini yuksaltirish, komil ma'naviyatni shakllantirish nazarda tutilgan.

Mazkur fan oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli suratda tanishtirish;
- noyob adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs rivojidagi ahamiyatini tushuntirish;
- talabalarda badiiy asar mohiyatini chuqur yanglash, ularni tahlil va talqin qilish ko'nikmasini shakllantirish;
- mavjud matnlarni tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish;
- egallangan bilim va malakani xalq ma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tadbiiq etishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Mustaqillik sharafti bilan mumtoz adabiy merosimizga munosabat yangilandi. Shunga ko'ra, zamon talabi uni yanada chuqurroq tadqiq etish, falsafiy asoslarini teran anglash, baholashda poetik mahorat jihatidan yondashish, birlamchi manbalar vositasida asosli ilmiy xulosalar chiqarish, mavjud matnlarning yangicha talqinlarini havola etish, mustaqil qarashlar va fan sohasiga oid zamonaviy saboqlarni hayotga tadbiiq etishdan iborat.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

O'zbek mumtoz adabiyoti fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 1-4 - semestrlarda o'qitiladi. Dasturda belgilangan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot va seminar shaklida olib boriladi. Fanning ayrim muhim muammolari va adabiy-badiiy asarlar talabalarga mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya etiladi.

“O'zbek adabiyoti tarixi fani” falsafa, tarix, matnshunoslik va manbashunoslik, dinshunoslik fanlarida o'rganiladigan muammolarning yaqinligi bilan bir-biriga bog'langan.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Fan masalalarining ijtimoiy hayotdagi o'rni “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va “Davlat ta'lim standartlari”da nazarda tutilgan, yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqligi orqali belgilanadi. Bu mumtoz madaniyatimiz va qadriyatlarimizni anglash, o'zlashtirish, ajdodolarimiz targ'ib etgan, ma'naviy-axloqiy mezonlarni talabalar ruhiyatida ulg'aytirish asosida amalga oshiriladi.

“Tarixsiz kelajak yo'q” shiori Milliy mafkuraning asosini tashkil etadi. Adabiyot tarixi – xalq tarixi. Shunday ekan, O'zbek adabiyoti tarixini o'rganish yurt va millat kelajagini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan talabalarni inson ma'naviyatining umumbashariy muammolari bilan tanishtiradi. Ularda adabiyot, san'at namunalarini chuqur tushunish, tahlil va tadqiq etish, baholash va tushuntirish, hayotga tatbiq qilish malakasini hosil etishga ko'maklashadi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning O'zbek mumtoz adabiyoti fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Mavzularni o'tishda yangi pedagogik texnologiya usullaridan, turli zamonaviy ta'lim metodlaridan unumli foydalanish fanni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Bu borada dars jarayonida “Zakovat” o'yinlaridan, “Munozarali dars”lardan keng foydalanish yaxshi natija beradi. Internetdagi ziyonet va www.literature.uz saytlaridan foydalanish ham nazarda tutiladi.

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, audiovizual vositalardan, hujjatli va badiiy filmlar, multimediya materiallarilardan, Adabiyot muzeyidagi ekspozitsiyalar va Qo'lyozmalar fondlaridagi matn va manbalardan foydalaniladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Adabiyot tarixini o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida. Davrlashtirish tushunchasi, istilohlari va tamoyillari. Adabiy-badiiy hodisalar davrlashtirishning bosh tamoyili sifatida. Mumtoz adabiyot tushunchasi va uning xususiyatlari. O'zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot davrlari.

Islomga qadar yaratilgan adabiy yodgorliklar

(Eng qadimgi davrlardan VIII asrgacha)

Turonzamin qadimgi madaniy markazlardan biri sifatida. Qadimgi davrlardan eramizning VIII gacha Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar madaniyati, yozuvi va san'ati. Qadimgi shumer madaniyati va turkiy qavmlar tarixi. "Bilgamish" dostonining turk xalqlari eposiga munosabati.

Eng qadimgi og'zaki adabiy yodgorliklar. Ularning asosiy manbalari. Mif va afsonalar qadimgi hayot aksi, tabiat haqidagi tasavvurlarining badiiy ifodasi ekanligi. Mif va afsonalarda badiiy xayolotning o'rni. Xitoy manbalarida Markaziy Osiyo xalqlariga doir ma'lumotlar.

Qahramonlik eposi. Markaziy Osiyo eposlar vatani ekanligi. Sharq epik adabiyotining mashhur qahramonlari. Qadimgi qahramonlik eposining yunon manbalari orqali yetib kelgan namunalari: «To'maris», «Shiroq». Xalq qissalari haqida ma'lumot. Iskandar to'g'risidagi qissalar.

Uyg'ur yozuvidagi yodgorliklar. «Devonu lug'atit turk» asari orqali bizgacha yetib kelgan badiiyat namunalari. Alp Erto'nga marsiyasi. Qadimgi afsona va qo'shiqlar poetikasi. «Devonu lug'otit turk»da munozara janrining ilk ildizlari. «Devon»dagi xalq maqollari poetikasi.

Qadimgi turk moniylik adabiyoti. Moniy va uning ta'limoti xususiyatlari. Moniylik - zardushtiylikning mahsuli sifatida. Moniylik she'rlarining mavzui. «Xuastuanift» (Moniylarning tavbanomasi) asarining o'ziga xos xususiyatlari.

Budda mazmunidagi turkiy adabiyot. Markaziy Osiyoda buddaviylikning xos xususiyatlari. «Oltun yoruq», «Shahzoda va bars» afsonalari.

Yozma yodgorliklar

Qadimgi yodgorliklarning yozuv xususiyatlari. Ieroglifik va piktografik yozuvlar. Mixxatlar va runiy yozuvdagi ilk manbalar.

«Avesto» yodgorligi (er.av.VII asr) zardushtiylikning muqaddas kitobi ekanligi. «Avesto» qadimgi mif va afsonalar majmui sifatida. Zardusht shaxsi haqidagi ma'lumotlar. Uning tarkibiy tuzilishi. Asosiy qism va Zandlar. «Avesto»ning ilmiy-tarixiy qimmat. «Avesto»ning o'rganilishi tarixidan. «Avesto» adabiy manba sifatida. Asardagi yetakchi qahramonlar va timsollar. «Avesto»ning badiiy xususiyatlariga doir.

O'rxun-Enasoy obidalar (VI-VIII asrlar) adabiy manba sifatida. Yodgorliklarning yaratilish tarixi va tarqalish o'rni. Ularning kashf etilishiga oid ma'lumotlar. *Bilka Qoon yodgorligida* Vatan dahlsizligi uchun kurashning aks etganligi. *Kul Tegin yodgorligi*. O'rxun-Enasoy toshbitiklari adabiy manba sifatida. Toshbitiklarning til xususiyatlari, adabiy qimmat. O'rxun-Enasoy yodgorliklarining janr xususiyatlari: tarixiy-qahramonlik dostonlari, qo'shiq va yig'i janrlari. Toshbitiklar va turkiy xalqlar xalq og'zaki ijodi o'rtasidagi munosabat. O'rxun-Enasoy yodgorliklarida mifologik tasavvurlar. *To'nyuquq bitigi*. Unda shaxs va millat erki, *Irq bitig* (Ta'birnoma) adabiy manba sifatida.

Islomiy ruhdagi adabiyot (IX-XIV asrning I yarmi)

IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Islom dinining kirib kelishi. Islomiy adabiyot va uning umumturk adabiyotiga ta'siri. Qur'oni karimning nozil bo'lishi va tavhid e'tiqodi. Payg'ambarlik tarixi va Muhammad Payg'ambar hayoti. Ibn Qutayba harakati va Markaziy Osiyoda turk-islom davlatlarining vujudga kelishi.

Hadis to'plash an'anasi va turkistonlik buyuk muhaddislarning roli. Imom Buxoriy va at-Termiziy. «*Al-jome'u-s-sahih*» va «*Shamoyili Muhammadiyya*» asarlari. IX-X asrlarda arab tilining madaniy hayotga faol aralashuvi.

Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renesansi). Somoniylar, saljuqlilar, g'aznaviylar va qoraxonlilar davrida islomiy madaniyat. Arab tilidagi adabiyot. Markaziy Osiyo buyuk islom allomalari vatani: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida adabiyot masalalari. Badiiy asarlar va tazkirachilik. *Abu Mansur as-Solibiy* va uning «*Yatimatu-t-dahr*» asari. Chag'oniyon adabiy muhiti.

Qoraxonlilar davrida turk madaniyatining taraqqiyoti. Bolasog'un va Qashg'ardagi madaniy hayot. Turk tilining yangi adabiy bosqichga ko'tarilishi. Turk dostonchilik maktabining vujudga kelishi. Badiiy asarlarda *Qur'oni karim* va *Hadisi sharif* sharhlari.

Turkistonda tasavvufning vujudga kelishi va tarqalishi. Tasavvuf tarixida irfon bosqichi. Ibrohim Adham, Shaqiq Balxiy va Imom G'azzoliy asarlari. Ilk turk mutasavviflari ijodi. Yassaviylik tariqati va uning adabiy manbalari. Kubraviyya tariqati va bu tariqatning badiiy ijodda aks etishi.

Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari. "Qutadg'u bilig" hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Dostonda axloqiy va estetik qarashlar. Doston janrlari: masnaviy, qasida, to'rtlik va g'azal unsurlari. Asarning ahamiyati.

Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari. Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. "Hibatu-l-haqoyiq" asari. Asar mavzui va tarkibi. Hadislar asosida badiiy asar yaratish an'anasi. Asarning badiiy xususitlari.

Xoja Ahmad Yassaviy ijodi. Turkiy she'riyatda hikmat janrining shakllanishi. "Devoni hikmat" asari va uning tarkibi. Yassaviy izdoshlari. Sulaymon Boqirg'oniy asarlari. "Boqirg'on kitobi" mundarijasi.

“O'zbek adabiyot tarixi” fanidan ma'ruza mashg'ulotlari uchun tavsiya etilgan mavzular

- Eng qadimgi davrlardan X asrgacha bo'lgan adabiyot
- Yozma yodgorliklar
- XI-XIII asrlar adabiyoti.
- XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot.
- Mahmud Koshg'ariy va uning “Devonu lug'oti-t-turk” asari.
- Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.
- Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari.
- Islomiy ruhdagi adabiyot

Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etiladigan mavzulari

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar mavzuga aloqador manbalarni o'rganish asosida ma'ruza darslarida olgin ma'lumotlarini mustahkamlaydilar va chuqurlashtiradilar. Bunda asarlarning hayotiga oid qo'shimcha ma'lumotlar, badiiy asarlarning janr xususiyatlari, mavzusi, mazmun va g'oyaviy mundariyasi, badiiyati tahlil etiladi. O'qituvchi zimmasiga fikr va ma'lumotlarni saralash, to'ldirish, izohlash va baholash kabi vazifalar yuklatiladi. Amaliy mashg'ulotlarda ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan yangicha usullarni qo'llash nazarda tutiladi. Amaliy mashg'ulotlarning mavzusi va rejasi "Fanning ishchi dasturi" va "Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi"da, olib borish jarayoni “Ta'lim texnologiyalari”da o'z ifodasini topadi.

Fan asoslarini o'zlashtirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarida berilgan ma'lumotlarning ko'nikmaga aylanishi uchun xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlar davomida talaba nazariy tushunchani mukammal egallash maqsadini qo'yadi.

- Qadimgi yodgorliklarning yozuv xususiyatlari. Kultegin, Bilga xoqon va To'nyuquq yodgorliklarining badiiy xususiyatlari.
- Eng qadimgi og'zaki adabiy yodgorliklar, ularning asosiy manbalari. Beruniyning "Qadimgi xapqlardan qolgan yodgorliklar" asarida rivoyat va afsona janriga oid ma'lumotlar.
- IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Turkistonda tasavvufning vujudga kelishi va tarqalishi.
- “Devonu lug'ati-t-turk” asaridagi adabiy parchalar. Mazmuni, janr xususiyatlari.
- “Qutadg'u bilig” dostoni. Doston tarkibi, timsollar doirasi va ramziy mazmuni.

- Ahmad Yugnakiy haqidagi ma'lumotlar, "Hibat ul-haqoyiq" dostonining o'rganilishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, aruz she'riy tizimi haqida.

Seminar mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari

Seminar mashg'ulotlarida talabalar ma'ruza, amaliy mashg'uloti hamda mustaqil ta'lim jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini amalda ko'rsatib beradilar va yanada boyitadilar. Matn bilan ishlash, tahlil va talqin etish, lug'atlar asosida olib boriladigan faoliyatga ko'proq ahamiyat qaratiladi. Seminar darslari trening shaklida, talabalar faoliyatini tashkil qilish, nazorat qilish va baholash tarzida o'tkaziladi. Seminar darslarining mavzusi, rejasi va o'tkazilish tartibi kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi hamda "Fanning ishchi dasturi", "Seminar darslari ishlanmasi" va "Ta'lim texnologiyalari"da ifoda etiladi.

- Moniylik oqimidagi adabiyotning paydo bo'lishi, bu adabiyotning ijtimoiy hayot bilan bog'liq tomonlari. "Oltin yorug'" dostoni va buddaviylik.
- Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renesansi). Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida adabiyot masalalari.
- X-XII asrda O'rta Osiyodagi fors tilidagi adabiyot: Ro'dakiy, Firdavsiy, Umar Xayyom, merosi.
- X-XII asrda O'rta Osiyodagi arab tilidagi adabiyot. Abu Mansur as-Solibiy va uning «Yatimatu-t-dahr» asari. Chag'oniyon adabiy muhiti.
- "Devoni hikmat" asarining ma'rifiy-ta'limiy mazmuni. Hikmatlarning janr xususiyatlari.

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

"O'zbek adabiyoti tarixi" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular badiiy adabiyotlarni mutolaa qiladilar, tahlil va talqin etadilar; qo'shimcha adabiyotlar hamda Internet saytlaridan foydalanib, referatlar va ilmiy ma'ruzalar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashg'ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi:

- | amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- | seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- | darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini

o'rganish;

- | tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- | maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- | adabiy va badiiy matnlarni eslab qolish, yod olish, ifodali o'qish;
- | talabani o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari hamda mavzularni chuqur o'rganish;
- | masofaviy ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. O'zbekistonda avestoshunoslikka oid ilmiy asarlar ro'yxatini tuzish va ayrim asarlarga annotatsiya yozish.
2. "Avesto"ning qismlarini tanlab o'rganish, asardagi tangri Xo'rmuzdga oid sifatlarini belgilash.
3. "Avesto"dagi mifologiyani o'rganish (xudolarning ismlari misolida).
4. Qadimgi turkiy yodgorliklar bo'yicha O'zbekistonda yaratilgan ilmiy asarlarning bibliografiyasini tuzish, monografiyalarga annotatsiya yozish.
5. Turkiy qavmlar tarixiga oid afsona va rivoyatlarni tahlil qilish.
6. "Shohnoma"dan "Rustam va Suhrob" dostonini o'rganish
7. Ibn Sinoning adabiy faoliyatiga oid asarlar annotatsiyasini tuzish.
8. Beruniyning adabiyotga oid faoliyatini o'rganish, "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Mineralogiya" kitobidagi hikoyat va rivoyatlarni tahlil qilish.
9. X–XII asrlarda O'rta Osiyoda fors tilida yaratilgan badiiy adabiyotga oid materillar yig'ish va bibliografiya tuzish.
10. "Devoni hikmat" va "Hibat ul-haqoyiq" asarlaridan tanlangan to'rtliklarning shakli va mazmunini qiyoslash.

DASTURNING AXBOROT-USLUBIY TA'MINOTI

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy usullari, pedagogik va axborot –kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutiladi.

Jumladan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron –didaktik texnologiyalaridan;
- amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan.

«O'zbek adabiyot tarixi» fani o'quv dasturining mazmuni quyidagi manbalarda o'z ifodasini topgan:

1. «O'zbek adabiyot tarixi» fani bo'yicha ma'ruza matnlari.

2. Amaliy mashg'ulotlarning mavzu va mazmuni, ularni tashkil qilish uchun uslubiy ko'rsatmalar.

3. Seminar mashg'ulotlarining mavzu va mazmuni, ularni tashkil qilish uchun uslubiy ko'rsatmalar.

4. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish uchun topshiriqlar to'plami va uslubiy tavsiyalar.

5. Kurs ishlari mavzulari va uslubiy ko'rsatmalar.

6. Glossariy – asosiy tushuncha va atamalarning izohli lug'ati.

Mashg'ulotlar davomida «Muammoli ta'lim», «Noan'anaviy dars», «Munozarali dars», «Jurnalist va og'zaki ijodkor» ko'rinishidagi darslar usullari qo'llaniladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Siyosiy adabiyotlar

1. Ш. Мирзиёев. Эрким ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси" тўғрисидаги Фармони (Халксўзи 2017 йил, 8 феврал).
3. Ш. Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга қурамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Ш. Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари" тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель).
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Т.: «SHarq» nashriyot matbaa kontsernining bosh tahririyati, 1997.
7. Karimov I.A. «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. «Xalq so'zi» gazetasi 1999 yil 9-noyabr.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.-Т.: "Ma'naviyat", 2010.

Asosiy adabiyotlar

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1974.
3. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1971.
4. Valixojayev B. Mumtoz siymolar. 2-jild. - Toshkent: A.qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002. - B. 175.
5. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
6. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2-jildlar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – Т.: Fan, 2005, 2007.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. - Самарқанд: 2005.
2. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: 2006.
3. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz (Uslubiy qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2010.
4. Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. - Т.: Маънавият, 2000.
5. Раҳмонов Н. Рухиятдаги нур муроди. - Т.: 2002.
6. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - Т.: 2005.
7. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
8. Қосимов Б., Долимов У. Маърифат дарғалари. - Т.: Ўқитувчи, 1990.
9. Ўзбек миллий уйғониш адабиётига материаллар. - Т.: Университет, 2004.
10. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1984.
11. Жумахўжа Нусратулло. Феруз–маданият ва санъат ҳомийси. –Т.: Фан, 1995.
12. Ғанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). –Т.: Фан, 1970.
13. Тўлабоев О., Каримбек Камий. Ўзбек тили ва адабиёти, 1993, 4-сон.
14. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. –Т., 1975.
15. Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. –Т.: Шарқ, 1997.
16. Жабборов Н. Фурқат мероси ва Хитой манбалари. // Шарқ юлдузи. 2001. Иккинчи фасл, 121-127-бетлар.
17. Жабборов Н. Ватан иштиёқин тортарам. // Тафаккур, 2002, 1-сон, 48-57-бетлар.
18. Жабборов Н. Маърифат надир. Т.: Маънавият, 2010.
19. Долимов У. Исҳоқхон Иброт. Истиқлол фидойилари. –Т.: Шарқ, 1994.
20. Ризаев Ш. Жадид драмаси. –Т.: Шарқ, 1997.
21. Қосимов Б. Излай-излай топганим. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983.

22. Жалолов А. XIX аср охири ва XX аср бошларидаги ўзбек адабиёти. – Т., 1991.
23. Ғаниев И. Фитрат. Ўртиқод, Ижод. –Т., 1994.
24. Болтабоев Ҳ. XIX асрнинг охири XX асрнинг бошларида драматургия. – Т., 1993.
25. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. –Т., 1994.
26. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983.
27. Норматов У. Қодирий боғи. –Т., 1995.
28. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадиличлик. –Т., 2007.
29. Каримов Б. Абдулла Қодирий. –Т., Фан, 2006.
30. Долимов У. Туркистонда жади́д мактаблари. –Т.: Университет, 2006.
31. Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. –Т.: Университет, 1993.

Adabiy manbalar

38. Авесто (А.Маҳкам таржимаси). – Т.: 1993. «Санъат» журна́ли, 1991й. №3-12.
39. Қадимий ҳикматлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1987.
40. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (С.Муталлибов таржимаси). I-III томлар. – Т.: 1960-63.
41. Фирдавсий. Шоҳнома. – Т.: 1984.
42. Ибн Сино. Шеърлар ва тиббий дoston. – Т.: 1981.
43. Умар Хайём. Рубойлар. – Т. 1970.
44. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. (Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Қ.Каримов). – Т.: Фан, 1971, 1972 (иккинчи нашр).
45. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: Юлдузча, 1990.
46. Yusuf Hos Hojib. Qutadg'u bilig. – Т.: Cho'lpon, 2007.
47. Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул-ҳақойиқ (нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Қ.Маҳмудов). – Т.: 1971.
48. Навоийнинг нигоҳи тушган. – Т.: 1986.
49. Хожа Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар (Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи И.Ҳаққулов). – Т.: 1991.
50. Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: 1992.
51. Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби (Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифлари И.Ҳаққулов, С.Рафъиддинов) – Т.: Ёзувчи, 1991.
52. Паҳлавон Маҳмуд. Рубойлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.
53. Муҳаммад Авфи. Гулчини «Жавомеъ ул-ҳикоёт». – Д.: Ирфон, 1966.

Xorijiy adabiyotlar

32. Nihad Sami Banarli. Resimli Turk Edebiyati tarihi. – İstanbul: Milli Eğitim Basimevi, 2001.
33. Fuad Koprulu. Türk edebiyatında ilk mutasavvıflar. – Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı, 1991.
34. Fuad Koprulu. Türk Dili ve edebiyati hakkında araştırmalar. – İstanbul, 1934. – C. 33-34.
35. Cemal Kurnaz. Eski turk edebiyati. – Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı, 2001.
36. Acıq F. Ozbek edabiyati. Ankara: 2008.
37. La Literature de l'époque des Karakhanides // Philologiae Turcicae fundamenta. – Wiesbaden, 1964. – C. 167-175.

Internet saytlari

38. www.alishernavoiiy.uz – [http: // alishernavoiiy.uz/](http://alishernavoiiy.uz/)
39. www.ziyo-net.uz – [http: // ziyonet.uz/](http://ziyonet.uz/)
40. www.literature.uz – [http: // literature.uz/](http://literature.uz/)
41. www.kutubxona.uz – [http: // kutubxona.uz/](http://kutubxona.uz/)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

№ 1234

2019-yil _____

"TASDIQLAYMAN"
o'quv ishlari bo'yicha prorektor

A.Soleyev _____ 2019- y.

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI
fanining

ISHCHI O'QUV DASTURI
(IV qism)

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 5120100– Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili)

2-kurs talabalari uchun, 4-semestr

Jami o'quv yuklamasi: 64 soat

Ma'ruza mashg'uloti: 12 soat

Amaliy mashg'ulot: 10 soat

Seminar mashg'ulot: 12 soat

Mustaqil ish: 30 soat

Samarqand – 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

N.Muxitdinova -

Mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti, PhD,

Taqrizchilar:

S.Tohirov -

Mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi.

E.Musurmonov -

filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Mumtoz adabiyot tarixi" kafedrasining 2019-yil 4-iyul 12 son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.


/ Kafedra mudiri:



prof. D.Salohiy

«O'zbek adabiyoti tarixi» fanining ishchi-o'quv dasturi filologiya fakulteti ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019-yil 4-iyul 11-son bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengashi raisi



prof. L.J. Eltazarov

Fakultet uslubiy Kengashi raisi



prof. M. Abdiyev

Kelishildi:

SamDU o'quv-uslubiy
boshqarma boshlig'i



B. Aliqulov

Fanning dolzarbligi

Ushbu ishchi o'quv dasturi Filologiya fakulteti O'zbek filologiyasi bo'limining 2 - bosqich bakalavr yo'nalishidagi talabalariga mo'ljallangan. Mazkur dastur "O'zbek adabiyoti tarixi" fanining dolzarb muammolari, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, o'zbek mumtoz adabiyotiga kirish, mumtoz poetika, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi kabi masalalar to'g'risida ma'lumot beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi №PF-4797 Farmonida aks etganidek, o'zbek tili va adabiyoti qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, uning shakllanishida mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so'g'diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o'z ta'sirini ko'rsatgani haqida qadim ilmiy manbalar dalolat beradi. Qadim turkiy, mumtoz adabiyotimizning Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi namoyandalarning xizmati va qoldirgan merosi muhim o'rin egallaganini qayd etish joiz. O'zbek adabiy tili, ayniqsa, XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko'tarildi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o'rin olgan o'lmas asarlarini aynan ona tilimizda bitib, uning shuhratini butun olamga yoydi. Shu ma'noda mazkur fanning maqsadi – talaba yoshlarni xalqimizning boy ma'naviy merosi bilan yaqindan tanishtirish, o'sib kelayotgan avlodni sog'lom e'tiqod va yuksak axloq sohibi bo'lgan ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ular qoldirgan ma'naviy xazinani tom ma'noda qadrlashga o'rgatishdan iborat. Shuningdek, mazkur fan dasturida o'zbek adabiyoti tarixi namunalarini, xususan, mumtoz adabiy matnlarni germeneytik tizimda o'rganish, muallif ijodiy konsepsiyasini o'zlashtirish orqali talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkur ko'lamini yuksaltirish, komil ma'naviyatni shakllantirish nazarda tutilgan.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

"O'zbek adabiyoti tarixi" fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 1-5-semestrlarda o'qitiladi. Dasturda belgilangan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot va seminar shaklida olib boriladi. Fanning ayrim muhim muammolari va adabiy-badiiy asarlar talabalarga mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya etiladi.

"O'zbek adabiyoti tarixi" fani o'rganiladigan muammolarning yaqinligi jihatidan falsafa, tarix, matnshunoslik va manbashunoslik, dinshunoslik fanlari bilan o'zaro bog'liqdir.

Fanning ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o'rni.

Filolog mutaxassisning o'zbek adabiyoti tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha aniq va mukammal ma'lumotga ega bo'lishi talaba

malakasini belgilovchi mantiqiy asos vazifasini o'taydi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida filologik ta'limni yo'lga qo'yishda ushbu fan muhim ahamiyat kasb etadi. "O'zbek adabiyoti tarixi" fanini to'liq o'zlashtirish nafaqat ta'lim tizimi, balki bakalavrlarning mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishi uchun zamin hozirlaydi.

Fanni o'qitishdagi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash

Talabalarning "O'zbek adabiyoti tarixi" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalanish bilan birga nazariy va amaliy mashg'ulotlar davomida "Aqliy hujum", "Klaster", "BBB" kabi, shuningdek, mavzularning xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa interfaol usullarni qo'llash tavsiya etiladi. Internetdagi www.ziyo-net.uz, www.literature.uz, www.kutubxona.uz va www.alishernavo.uz saytlaridan foydalanish ham nazarda tutiladi.

Shuningdek, yangicha usullarning o'zigina yutuqni ta'minlaydigan yagona omil emasligidan kelib chiqib, yillar sinovidan o'tib kelayotgan usullarham istifoda etiladi.

FAN MODULINING DASTURI (MOODLE SYLLABUS)

O'quv kursining to'liq nomi:	O'zbek adabiyoti tarixi		
Kursning qisqacha nomi:	O'AT	Kod: O'AT	
Kafedra:	Mumtoz adabiyot tarixi		
O'qituvchi haqida ma'lumot:	Muxitdinova Nazmiya Muslixiddinovna	nazmiyamuhiddinova@mail.ru tel: (93) 334-74-47	
Semestr va o'quv kursining davomiyligi	4-semestr, 19x1=19 hafta.		
O'quv soatlari hajmi:	Jami:	64	
	shuningdek:		
	ma'ruza	12	
	Seminar	10	
	amaliy	12	
	mustaqil ta'lim	30	
O'quv kursining statusi	Umumkasbiy fanlar blogi.		
Dastlabki tayyorgarlik:	- Mumtoz adabiyotga kirish (Mumtoz adabiyotga kirish kursining maqsad va vazifalari); - O'zbek adabiyoti tarixi.		

Fanning predmeti va mazmuni: talabalarga o'zbek mumtoz adabiyoti vakillari va ularning asarlari, mumtoz poetika asoslari haqida ma'lumot berish, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, jadidchilik harakatining adabiyotdagi ifodasi o'laroq dunyoga kelgan milliy uyg'onish adabiyotining xos xususiyatlaridan ta'lim berish.

Fanni o'qitishdan maqsad: talaba yoshlarni xalqimizning boy ma'naviy merosi bilan yaqindan tanishtirish, o'sib kelayotgan avlodni sog'lom e'tiqod va yuksak axloq sohibi bo'lgan ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ular qoldirgan ma'naviy xazinani tom ma'noda qadrlashga o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi:

- talabalarga mumtoz adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish;
- o'zbek adabiyoti tarixi namunalari bilan izchil va tizimli suratda tanishtirish;
- noyob adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs rivojidagi ahamiyatini tushuntirish;
- talabalarda badiiy asar mohiyatini chuqur anglash, ularni tahlil va talqin qilish ko'nikmasini shakllantirish;
- mavjud matnlarni poetik jihatdan tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish;
- egallangan bilim va malakani xalq ma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etish.

O'zbek adabiyoti tarixi o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- o'zbek mumtoz adabiyotining milliy madaniyatimiz tarixi va takomilidagi o'rni, adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs hayotidagi ahamiyati, mumtoz adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari, mumtoz adabiy janrlarning shakllanishi va takomili, adabiyot tarixini o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi davrlarining o'ziga xos jihatlari, janrlar poetikasi, she'r sistemasining umumiy qonuniyatlari, badiiy san'atlarning hosil bo'lish yo'llari va mumtoz she'riyatda qo'llanish usullari, mumtoz she'riyatda qofiya va radifning tutgan o'rni, mumtoz nazmiy asarlar matni ustida ishlash, mumtoz asarlar uchun tuzilgan lug'atlardan foydalanish, tasavvufiy istilohlar ma'nosini tushunish, o'zbek adabiyoti tarixida qo'llangan timsollar va ramzlar mohiyatini anglash, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillari, o'zbek milliy uyg'onish adabiyotiga xos yangi janrlar va ularning taraqqiyot tamoyillari, milliy uyg'onish davri she'riyatida vazn, poetik janrlar va obrazlarning yangilanishi qonuniyatlari, jadid nasri, jadid dramasi va jadid adabiyotshunosligining shakllanishi hamda taraqqiyoti omillari, milliy uyg'onish davrida yangicha adabiy-estetik tafakkurning yuzaga kelishi sharoiti va sabablarini, bu davr adabiyotiga oid she'riy, nasriy, dramatik va ilmiy asarlarni tahlil qila olish bilimi, malakasi va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

“O'zbek adabiyoti tarixi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- “O'zbek adabiyoti tarixi” fani bo'yicha talaba o'zbek mumtoz adabiyotining milliy madaniyatimiz tarixi va takomilidagi o'rni, adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs hayotidagi ahamiyati, mumtoz adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari, mumtoz adabiy janrlarning shakllanishi va takomili, adabiyot tarixini

o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari tog'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;

- o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi davrlarining o'ziga xos jihatlari, janrlar poetikasi, she'r sistemasining umumiy qonuniyatlari, badiiy san'atlarning hosil bo'lish yo'llari va mumtoz she'riyatda qo'llanish usullari, mumtoz she'riyatda qofiya va radifning tutgan o'rni, mumtoz nazmiy asarlar matni ustida ishlash, mumtoz asarlar uchun tuzilgan lug'atlardan foydalanish, tasavvufiy istilohlar ma'nosini tushunish, o'zbek adabiyoti tarixida qo'llangan timsollar va ramzlar mohiyatini anglash, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillari **xususiyatlarini bilishi**;

- o'zbek milliy uyg'onish adabiyotiga xos yangi janrlar va ularning taraqqiyot tamoyillari, milliy uyg'onish davri she'riyatida vazn, poetik janrlar va obrazlarning yangilanishi qonuniyatlari, jadid nasri, jadid dramasi va jadid adabiyotshunosligining shakllanishi hamda taraqqiyoti omillarini tahlil qila olish **ko'nikmalariga ega bo'lishi**;

- milliy uyg'onish davrida yangicha adabiy-estetik tafakkurning yuzaga kelishi sharoiti va sabablarini, bu davr adabiyotiga oid she'riy, nasriy, dramatik va ilmiy asarlarni tahlil qilish **malakasiga ega bo'lishi kerak**.

Kursning tematik tarkibi va mazmuni				
T/p	Mavzu	Ma'ruza	Amaliy (Seminar)	Mustaqil ish
4-semestr				
1.	Eng qadimgi davrlardan X asrgacha bo'lgan adabiyot	2	2	6
2.	Yozma yodgorliklar	2	4	4
3.	XI-XIII asrlar adabiyoti. XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot.	2	2	4
4.	Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'oti-t-turk" asari.	2	2	6
5.	Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.	2	4	6
6.	Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari.	2	4	4
	Joriy nazorat	Og'zaki so'rov (...-hafta)		
	Oraliq nazorat	Yozma+test (17- hafta)		
	Yakuniy nazorat			
	Jami 34+30=64	12	22	30
Ta'lim berish va o'qitish uslubi:		Ma'ruza, amaliy, seminar mashg'ulotlar, mustaqil ishlar		
Mustaqil ishlar:		O'quv loyihalari, guruhli taqdimot, referatlar, esse va h.k.		
Maslahatlar va topshiriqlarni topshirish vaqti:		Kunlar	Vaqt	Aud.
1.				

2.			
3.			
Bilimlarni baholash usullari, mezonlari va tartibi			
JN va ONning ballari ishchi dasturda beriladi			
Baholash usullari	Testlar, yozma ishlar, ogʻzaki soʻrov, prezentatsiyalar va h.k.		
Fan boʻyicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash	Nazorat shakllari Baholash turlari fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda testlar, yozma ishlar, ogʻzaki soʻrov yoki boshqa koʻrinishda oʻtkazilishi mumkin.		
Fan boʻyicha talabalar bilimini baholash mezonlari			
Ball	Talabani bilim darajasi		
90-100 ball	- talaba mashgʻulotlarga doimo tayyorlangan, juda faol, dasturiy materiallarni yaxshi biladi, xulosa va qarorlar qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, bilimlarni amaliyotda qoʻllay oladi; - talaba ijodiy masalalarni hal qilish mobaynida tegishli bilimlarni qoʻllash doirasini maqsadga muvofiq tanlab, yechimni topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yoʻnalishlarni topa oladi, oʻquv materiallarini mohiyatini tushunadi; - talaba taqdim etilgan oʻquv materiallarini yechish yoʻllarni izlaydi, dasturiy materiallarni biladi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega boʻladi.		
80-89 ball	- talaba oʻrganilayotgan hodisalar aloqadorligini bilish hamda obyektni tavsiflay olish koʻnikmasiga ega boʻlishi bilan birgalikda, qoʻyilgan masalalarni sabab-oqibat aloqadorligini oʻchoib bergan holda yecha oladi, oʻrganilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bogʻlay oladi va mustaqil mushohada qila oladi; - bilim va koʻnikmalar mazmunini tatbiq qila olish mahorati, bir turdagi masalani yecha olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarni amaliyotda qoʻllay oladi; - talaba mashgʻulotlarga tayyorlangan, dasturiy materiallarni biladi, mohiyatini tushunadi va tasavvurga ega.		
60-79 ball	- talabani eshitganlari ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan algoritm va koʻrsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi, mohiyatini tushunadi; - talaba qator belgilar asosida maʼlum obyektni farqlash bilan birgalikda unga taʼrif bera oladi va oʻquv materialini tushuntirib bera oladi va tasavvurga ega.		
0-59 ball	- talaba tasavvurga ega emas; - talaba dasturiy materiallarni bilmaydi.		
Fanga doir video maʼruzalar, video roliklar:			
Glossariylar:			
Axborot resurs baza:			

ASOSIY QISM
O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI
(Eng qadimgi davrlardan XII asrgacha)

1-modul:

Eng qadimgi davrlardan X asrgacha bo'lgan adabiyot.

Turonzamin qadimgi madaniy markazlardan biri sifatida. Qadimgi davrlardan eramizning VIII asrigacha Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar madaniyati, yozuvi va san'ati. Qadimgi shumer madaniyati va turkiy qavmlar tarixi. "Bilgamish" dostonining turkiy xalqlar eposiga munosabati.

Mif va afsonalar qadimgi hayot aksi, tabiat haqidagi tasavvurlarining badiiy ifodasi ekanligi. Mif va afsonalarda badiiy xayolotning o'rne. Xitoy manbalarida Markaziy Osiyo xalqlariga doir ma'lumotlar.

Sharq epik adabiyotining mashhur qahramonlari. Qadimgi qahramonlik eposining yunon manbalari orqali yetib kelgan namunalari: «To'maris», «Shiroq». Xalq qissalari haqida ma'lumot. Iskandar to'g'risidagi qissalar.

«Devonu lug'otit turk» asari orqali bizgacha yetib kelgan badiiyat namunalari. Alp Erto'nga marsiyasi. Qadimgi afsona va qo'shiqlar poetikasi. «Devonu lug'otit turk»da munozara janrining ilk ildizlari. «Devon»dagi xalq maqollari poetikasi.

Moniy va uning ta'limoti xususiyatlari. Moniylik – zardushtiylikning mahsuli sifatida. Moniylik she'rlarining mavzui. «Xuastuanift» (Moniylarning tavbanomasi) asarining o'ziga xos xususiyatlari.

Markaziy Osiyoda buddaviylikning xos xususiyatlari. «Oltun yoruq», «Shahzoda va bars» afsonalari.

2-modul:

Eng qadimgi yozma yodgorliklar.

«Avesto» yodgorligi (er.av.VII asr) zardushtiylikning muqaddas kitobi ekanligi. «Avesto» qadimgi mif va afsonalar majmui sifatida. Zardusht shaxsi haqidagi ma'lumotlar. Uning tarkibiy tuzilishi. Asosiy qism va Zandlar. «Avesto»ning ilmiy-tarixiy qimmat. «Avesto»ning o'rganilishi tarixidan. «Avesto» adabiy manba sifatida. Asardagi yetakchi qahramonlar va timsollar. «Avesto»ning badiiy xususiyatlariga doir.

O'rxun-Enasoy obidalari (VI-VIII asrlar) adabiy manba sifatida. Yodgorliklarning yaratilish tarixi va tarqalish o'rne. Ularning kashf etilishiga oid ma'lumotlar. Bilga xoqon yodgorligida Vatan daxlsizligi uchun kurashning aks etganligi. Kul Tegin yodgorligi. O'rxun-Enasoy toshbitiklari adabiy manba sifatida. Toshbitiklarning til xususiyatlari, adabiy qimmat. O'rxun-Enasoy yodgorliklarining janr xususiyatlari: tarixiy-qahramonlik dostonlari, qo'shiq va yig'i janrlari. Toshbitiklar va turkiy xalqlar og'zaki ijodi o'rtasidagi munosabat.

O'rxun-Enasoy yodgorliklarida mifologik tasavvurlar. To'nyuquq bitigi. Unda shaxs va millat erki. Irq bitigi (Ta'birnoma) adabiy manba sifatida.

3-modul:

XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot.

Somoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar va qoraxoniylar davrida islomiy madaniyat. Hadis to'plash an'anasi va unda turkistonlik buyuk muhaddislarning roli. Imom Buxoriy va at-Termiziy. «Al-jome'u-s-sahih» va «Shamoyili Muhammadiyya» asarlari. IX-X asrlarda arab tilining madaniy hayotga faol aralashuvi.

Turkiy xalqlarning arab va fors tillarida ijod etishi. Markaziy Osiyo buyuk allomalar vatani: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida adabiyot masalalari. Badiiy asarlar va tazkirachilik. Abu Mansur as-Solibiy va uning «Yatimatu-t-dahr» asari. Chag'oniylar adabiy muhiti.

XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Turkiy tilning yangi adabiy bosqichga ko'tarilishi. Qoraxoniylar davrida turkiy madaniyatning taraqqiyoti. Bolasog'un va Koshg'ardagi madaniy hayot. Turkiy dostonchilik maktabining vujudga kelishi. Badiiy asarlarda Qur'oni karim va Hadisi sharif sharhlari.

4-modul:

Mahmud Koshg'ariy va uning “Devonu lug'oti-t-turk” asari.

Qoraxoniylar davlati va madaniyatining shakllanishi, manbalari. Mahmud Koshg'ariy shaxsiyati haqidagi ma'lumotlar. “Devonu lug'oti-t-turk” asarining o'rganilishi.

“Devonu lug'oti-t-turk” – adabiy manba sifatida. Asarda turkiy xalqlar madaniyati va adabiyoti haqidagi ma'lumotlar. Qadimgi she'riyat va nasr janrlari. Asarda keltirilgan adabiy matnlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

5-modul:

Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.

Yusuf Xos Hojib shaxsiyati va adabiy merosining o'rganilishi. “Qutadg'u bilig” dostonining yaratilishi, kompozitsiyasi. Asar syujeti va obrazlari.

“Qutadg'u bilig” asarida ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Dostonda axloqiy va estetik qarashlar. Doston janrlari: masnaviy, qasida, to'rtlik va g'azal unsurlari. Asarning axloqiy-didaktik va badiiy ahamiyati.

6-modul:

Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari.

Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Alisher Navoiy Adib Ahmad haqida. “Hibat ul-haqoyiq” asarining yaratilishi, qo'lyozmalari, nashrlari. Asar matni haqidagi tanqidiy qarashlar.

“Hibat ul-haqoyiq” dostoni mavzusi va tarkibi. Asarning asosiy boblari tavsifi. Hadislar asosida badiiy asar yaratish an'anasi. Ahmad Yugnakiy va tasavvuf ta'limoti. Asarning badiiy xususiyatlari. Mutaqorib bahri haqida.

“O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyot tarixi” fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

t/n	Ma'ruza mavzulari (barchasi)	Soat
1	Eng qadimgi davrlardan X asrgacha bo'lgan adabiyot	2
2	Yozma yodgorliklar	2
3. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O'qituvchi, 1974.
4. Abduraxmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - Sam.: SamDU nashri, 2004.

5. Abduraxmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - Sam.: SamDU nashri, 2004.
6. Qayumov A. Qadimiyyat obidalar. - T., 1972.
7. Avesto (A.Mahkam tarjimas). - T., 1993. "San`at" jurnali, 1991y. №3-12.
8. Qadimiy hikmatlar. - T.: Adabiyot va san`at, 1987.
9. Qosimov B. va boshq. Adabiyot 10-sinf uchun. -T.: O'qituvchi, 2004.
10. Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. - T.: O'qituvchi, 2004.

3-amaliyot.

Mavzu: Qoraxoniylar davri adabiy muhitining shakllanishi, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni tahlili, masnaviy, qasida va to'rtlik shakllari haqida.

Reja

1. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodini o'rganish tarixi.
2. "Qutadg'u bilig" dostonining qo'lyozma nusxalari.
3. Doston kompozitsiyasi (vazn, she'riy shakl, boblar mundariyasi).
4. Dostondagi asosiy timsollar, ularning ramziy va g'oyaviy xususiyatlari.
5. Dostonning badiiy xususiyatlari.

ADABIYOTLAR

1. Ma`ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –T.: 2006.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1971.
4. Karimov Q. Ilk badiiy doston. - T.: Fan, 1976.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. - T.: Fan, 1971.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. - T.: Yulduzcha, 1983.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. - T.: Cho'lpon, 2007.
8. Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. - T.: O'qituvchi, 2004.

4-amaliyot.

Mavzu: Ahmad Yugnakiy haqidagi ma'lumotlar, "Hibat ul-haqoyiq" dostonining o'rganilishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, aruz she'riy tizimi haqida.

Reja

1. Didaktik adabiyot, uning manbalari va o'ziga xosligi.
2. Ahmad Yugnakiy va uning "Hibat ul-haqoyiq" dostonini o'rganish tarixi, asar qo'lyozmalari va nashrlari.

3. "Hibat ul-haqoyiq" dostoni kompozitsiyasi (vazn, she'riy shakl, boblar mundarijasi).
4. "Hibat ul-haqoyiq" dostonida bilim va jaholat, til odobi, saxovat va uning ahamiyati ta'rifi.

ADABIYOTLAR

1. Ma'ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Mahmudov Q. "Hibat ul-haqoyiq" asarining filologik tahlili. - T.: Fan, 1972.
4. Tohirov S. Matn va tahlil (Uslubiy qo'llanma). - Samarqand: SamDU nashri, 2008.
5. Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. - T.: Badiiy adabiyot, 1971.
8. Navoiyning nigohi tushgan. -T.: Badiiy adabiyot, 1986. 13-40-betlar.
10. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 17-tom. - T.: Fan, 1997.
12. Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. - T.: O'qituvchi, 2004.

5-amaliyot.

**Mavzu: Ahmad Yassaviy va uning “Devoni hikmat” to'plami,
yassaviya va badiiy ijod.**

Reja

1. Tasavvuf haqida umumiy tushuncha.
2. Ahmad Yassaviy shaxsiyatiga oid ma'lumotlar
4. Ahmad Yassaviy hikmatlarining janr xususiyatlari (she'riy shaki, vazntil masalalari).
5. Ahmad Yassaviy to'rtliklarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari (bilim, saxovat, tavoze', qanoat, nafs tarbiyasi masalalari).

ADABIYOTLAR

1. Ma'ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
5. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 17-tom. - T.: Fan, 1997.
6. Xoja Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. - T.: 1992.
7. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. - T.: 1990.
8. Fitrat A. Yassaviy kim edi. - T.: Xalq merosi, 1994.
10. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. - T.: 1992.

SEMINAR MASHG'ULOTLAR MAVZULARI

1-seminar:

Mavzu: Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma" asarining tarkibi, mazmuni va badiiyati.

Reja:

1. "Noma" atamasining lug'aviy va istilohdagi ma'nolari.
2. Xorazmiy hayoti va ijodini o'rganish tarixi
3. "Muhabbatnoma"ning qo'lyozma nusxalari va nashrlari.
4. Asar kompozitsiyasi, noma janrining o'ziga xosligi.
5. Nomalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
6. Noma janrining XIV-XV asrlardagi taraqqiyoti (Xo'jandiyning "Latofatnoma", Said Ahmadning "Taashshuqnoma", Yusuf Amiriyning "Dahnoma" asarlari).

ADABIYOTLAR

1. Ma'ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O'qituvchi, 1976.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1978.
5. Valixo'jaev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. - T.: Fan, 1974.
6. Navoiyning nigohi tushgan. - T.: 1986.
7. Muborak maktublar. - T.: Adabiyot va san'at, 1987.
8. Qosimov B. va boshq. Adabiyot 10-sinf uchun. -T.: O'qituvchi, 2004.
9. Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. - T.: O'qituvchi, 2004.

2-seminar:

Mavzu: Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy"sidagi hikoyatlar va qit'alarda davrning muhim masalalari.

Reja:

1. Sayfi Saroyi hayotiga oid ma'lumotlar.
2. Sayfi Saroyi she'riyati.
3. "Suhayl va Guldursun" dostoni.
4. "Guliston bit-turkiy" asarining yaratilish tarixi, tuzilishi.
5. "Guliston bit-turkiy" asaridagi hikoyatlar va she'riy parchalar tahlili.

ADABIYOTLAR:

1. Ma'ruza matni.

2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O'qituvchi, 1976.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1978.
5. Sayfi Saroyi. She'rlar. Guliston. – T., 1968.
6. Uch bulbul gulshani. - T.: 1986.
7. Qosimov B. va boshq. Adabiyot 10-sinf uchun. -T.: O'qituvchi, 2004.
8. Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. - T.: O'qituvchi, 2004.

3-seminar:

Mavzu: “Gul va Navro‘z” va “Yusuf va Zulayho” dostonlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Reja:

1. "Gul va Navro‘z" dostonining muallifligiga doir munozaralar.
2. "Gul va Navro‘z" dostonining sujeti, asosiy timsollari, asarning g‘oyaviy mundariyasi.
3. "Yusuf va Zulayho" dostonlarining muallifi masalasi.
4. "Yusuf va Zulayho" dostonining syujeti, asosiy timsollari.
5. Dostonda diniy aqidalar va axloqiy qadriyatlarning badiiy ifodasi.

ADABIYOTLAR

1. Ma`ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O'qituvchi, 1976.
4. Valixo`jaev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. - T.: Fan, 1974.
5. Valixo`jaev B. Malikul kalom - lutfiy she`riyati. - Sam.: 1999.
6. Valixo`jaev B. Mumtoz siymolar. 2-jild. - T.: Xalq merosi, 2002.
7. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1978.
8. Uch bulbul gulshani. - T.: 1986.
9. Durbek. Yusuf va Zulayho. - T: Badiiy adabiyot, 1959.

4-seminar:

Mavzu: Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asari falsafiy–didaktik doston namunasi sifatida. Sayyid Qosimiy masnaviylari. Asarlarining tasavvufiy talqinlari.

Reja:

1. . Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” dostoni va uning o‘rganilishi

2. . Asarning kompozitsiyasi.
3. Gulshan ul-asror" dostonidagi hikoyatlar tahlili.
4. Said Qosimiy shaxsiyatiga oid ma'lumotlar.
5. Said Qosimiyning "Majma'ul-axbor" dostoni.
6. Shoirning "Gulshani roz", "Haqiqatnoma", "Ilohiynoma" asarlari tahlili.

ADABIYOTLAR

1. Ma'ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O'qituvchi, 1976.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1978.
5. Muborak maktublar. - T.: Adabiyot va san'at, 1987.
6. Саййид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. - Т.: Фан, 1992. - 240 б.

5-seminar:

Mavzu: O'zbek adabiyotida munozara janri.

Reja:

1. Munozara janri haqida umumiy ma'lumot.
2. "Devonu lug'otit turk"da munozara janri va namunalari.
3. Yaqiniy va uning "O'q va Yoy" munozarasi.
4. Yusuf Amiriyning "Bang va Chog'ir" munozarasi.
5. Munozara janrining XVIII-XIX asrlardagi taraqqiyoti.

ADABIYOTLAR

1. Ma'ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O'qituvchi, 1976.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1978.
5. Valixo'jaev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. - T.: Fan, 1974.
6. Navoiyning nigohi tushgan. - T.: 1986.
7. Muborak maktublar. - T.: Adabiyot va san'at, 1987.

SEM INAR M ASHG'ULOTLAR M AVZULARI

1-seminar.

**Mavzu: Urxun-Enasoy obidalari.
Qadimgi she`riyat va qo`shiq namunalari.
Reja (topshiriqlar)**

1. Urxun-Enasoy obidalarining topilishi va o`rganilishi.
2. Bitiktoshlarning mavzusi, g`oyaviy-badiiy xususiyatlari.
3. Qadimgi diniy qo`shiqlar.
4. "Devonu lug`otit-turk" dagi tortliklarning janri, g`oyaviy-badiiy xususiyatlari.

ADABIYOTLAR

1. Ma`ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O`qituvchi, 1974.
4. Abduraxmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - Sam.: SamDU nashri, 2004.
- 5 Qadimiy hikmatlar. - T.: Adabiyot va san`at, 1987.
6. Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. - T.: O'qituvchi, 2004.

2-seminar.

**Mavzu: IX-XI asrlarda fors-tojik tilidagi adabiyot:
Ro`dakiy va Firdavsiy adabiy merosi.
Reja (topshiriqlar)**

1. IX-XI asrlarda fors-tojik tilidagi adabiyotning shakllanish omillari (mahalliy davlatlar, fors-dariy adabiy tili).
2. Ro`dakiy hayoti va adabiy merosi (shaxsiyatiga oid ma`lumotlar, she`riyati, "Bo`yi jo`yi mo`liyon" qasidasi).
3. Firdavsiy hayoti, "Shohnoma" epopeyasining tuzilishi, "Shohnoma"da Rustam timsoli.

ADABIYOTLAR

1. Ma`ruza matni.
2. Шомухаммедов Ш. Форс-тожик адабиёти классиклари. – Т.: Бадий адабиёт, 1983. (Рўдакий, Фирдавсий, Umar Xayyom).

3. Низомий Арузий Самарқандий. Нодир ҳикоятлар. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1985. 27-54-бетлар.
4. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. 21-34-бетлар
5. Ўзбек адабиёти. 5 томлик. 4-том, 2-китоб. – Т., 1960. 275-292-бетлар.
6. Фирдавсий. Шоҳнома. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1984. 13-19; 27-41; 41-48-бетлар.

3-seminar.

Mavzu: "Qutadg'u bilig" dostonidan to'rtliklar tahlili, matn bilan ishlash amaliyoti.

Reja (topshiriqlar)

1. "Qutadg'u bilig" dostonida to'rtlik shaklidagi she'rlarni, ularning dostoniga kiritilish omillarini aniqlash.
2. To'rtliklarning mavzusi, mazmuni va g'oyaviy xususiyatlarini tahlil qilish.

ADABIYOTLAR

1. Ma'ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - Т.: O'qituvchi, 1974.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. - Т.: Fan, 1971.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. - Т.: Fan, 1971.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. - Т.: Yulduzcha, 1987.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. - Т.: Cho'lpon, 2007.
8. Qosimov B. va boshq. Adabiyot 10-sinf uchun. -Т.: O'qituvchi, 2004.
9. Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. - Т.: O'qituvchi, 2004.

4-seminar.

Mavzu: "Hibat ul-haqoyiq" dostonlaridan to'rtliklar tahlili, shakl, qofiya, vazn va badiiy tahlil.

Reja (topshiriqlar)

1. "Hibat ul-haqoyiq" dostonining bilim va jaholat, til odobi, saxiylik va baxillik, dunyoning egriligi haqidagi boblaridan to'rtliklar tahlili.
2. "Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlaridagi to'rtliklarning mushtarak va xususiy belgilarini aniqlash.

ADABIYOTLAR

1. Ma`ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O`qituvchi, 1974.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1971.
5. Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq (Nashrga tayyorlovchi Q.Mahmudov). - T.: Badiiy adabiyot, 1971.
6. Navoiyning nigohi tushgan. -T.: Badiiy adabiyot, 1986. 13-40-betlar.
7. Tohirov S. Matn va tahlil (Uslubiy so'llanma). - Samarsand: SamDU nashri, 2008.
8. Qosimov B. va boshq. Adabiyot 10-sinf uchun. -T.: O'qituvchi, 2004.
9. Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. - T.: O'qituvchi, 2004.

5-seminar.

**Mavzu: Badr Chochiy va Muhammad Avfiy Buxoriy haqidagi ma'lumotlar.
Pahlavon Mahmud ruboiylari tahlili.**

Reja (topshiriqlar)

1. Badr Chochiy va Muhammad Avfiy Buxoriy haqidagi ma'lumotlar.
2. "Lubob ul-albob" va "Javome' ul-hikoyot" asarlari haqida.
3. Pahlavon Mahmud Navoiy talqinida.
4. Pahlavon Mahmud ruboiylarining falsafiy va axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati.


ADABIYOTLAR

1. Ma`ruza matni.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
3. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O`qituvchi, 1974.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1971.
5. Пахлавон Махмуд. Рубоийлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.
6. Муҳаммад Авфи. Гулчини «Жавомеъ ул-хикоёт». – Душанбе: Ирфон, 1966.
7. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 17 том. – Т.: Фан, 2001.
8. Тоҳиров С. Алишер Навоий Пахлавон Махмуд ҳақида. «Зиёкор» . 2004 й. 9-сон.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI

“O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI”
fanidan



MA'RUZALAR MATNI

Tuzuvchi

PhD. v.b. dots., Muxitdinova N.M.

Samarqand - 2019 y.

KIRISH

1. "O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti tarixi" fanning maqsad va vazifalari, manbalari, o'zbek adabiyotini davrlashtirish.

"Adabiyot" so'zining etimologiyasi haqida ikki xil fikr mavjud.

1. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra bu so'z arabcha "adab" (odob) va forscha "yod" (o'rganmoq, bilmoq, yod olmoq) so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan so'z bo'lib, odob o'rganish yoki odob o'rgatish degan ma'noni bildiradi.

2. Ikkinchi bir fikrga ko'ra "adabiyot" so'zi arabcha "adab" so'ziga "-iyot" qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'lgan. "Falakiyot, "tibbiyot", "iqtisodiyot" kabi so'zlar tarkibida ham mavjud bo'lgan bu qo'shimcha o'zi qo'shib kelgan so'z ostidagi barcha tushuncha, qonuniyat va hodisalarni birlashtiradi. Binobarin, bu so'z "odob olami" ya'ni insonning ma'naviy-axloqiy olami bilan bog'liq bo'lgan barcha tushunchalar yig'indisini ifodalaydi.

Adabiyot so'zi amalda ikki ma'noda - keng va tor ma'noda qo'llanadi. Keng ma'noda bu so'z yozma nutqning barcha namunalarini ifodalaydi. Ilmiy, Ilmiy-ommabop asarlar, gazeta va jurnallardagi maqolalar shular jumlasidan.

Adabiyot so'zining tor ma'nosi deganda faqat badiiy ijod namunajari tushuniladi. Ushbu fan doirasida adabiyot so'zininng asosan tor ma'nosi nazarda tutiladi.

Adabiyot musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, kino, teatr kabi san'at turlaridan biridir. "San'at" so'zi etimologiya, ya'ni kelib chiqish nuqtai nazaridan arabcha sun' (صنع) o'zagidan olingan. Bu so'z ijod, yaratmoq degan ma'nolarni ifodalaydi. "Sun'" parvardigorning sifatlaridan biri bo'lib, shu o'zakdan yasalgan "sone'" so'zi go'zallik yaratuvchi, ijod etuvchi degan ma'nolarni ifodalaydi.¹

Alisher Navoiy mashhur g'azalidagi ushbu baytda "sun'" so'zi yuqoridagi kabi ma'noda qo'llangan:

Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki bor,

Barchasi ezid taolo **sun'i** naqqoshindadur.

Mazmuni: Men uning go'zal (yoki go'zalligi) naqshlaridan hayratlanmayman. Chunki buning barchasi Alloh (s.t)ning naqqoshlik san'ati, ya'ni go'zal naqshlar ijodkori ekanligidandir.

"San'at" so'zi "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'atida "hunar, kasb, ustalik, mohirlik" kabi ma'nolarda sharhlangan:

¹ Фарҳанги забони тоҷики II ҷилд. – Москва: Советская Энциклопедия, 1969. 274-саҳ.

"San'at" so'zi zamonaviy adabiyotshunoslik atamasi sifatida "...voqelikni obrazlar va yorqin manzaralar orqali badiiy ifodalashdan iborat" hodisani ifodalaydi.²

Adabiyotni (tor ma'noda) boshqa san'at turlari kabi voqelikni, atrofimizdagi olam va unda kechayotgan jarayonlar, kishilar tafakkuridagi evrilishlarni obrazlar, ramzlar, majoziy tasvirlar vositasida aks ettiradi. Bu hodisalar adabiyotda "so'z" vositasida amalga oshadi. Binobarin, **adabiyot – so'z san'atidir**. U inson ruhiyatidagi nihoyatda nozik tovlanish va ohanglarni ilg'ashga, ularni aks ettirishga intiladi. Dunyoda insonlar bir-birlariga o'xshamaganlariday, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir.

Adabiyotni o'rganuvchi ilm adabiyotshunoslik deb nomlanadi. Adabiyotshunoslik umumiy ma'noda kishilik jamiyatida, xususiy ma'noda esa, u yoki bu xalq misolida s'z vositasida san'at, go'zallik yaratish jarayonining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va shu bilan bog'liq qonuniyatlar, hodisalar, muammolar, badiiy ijodning ayni damdagi holati, kishilik jamiyatidagi mavqei kabi masalalardan bahs yuritadi. O'zbek adabiyotshunoslikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan **"O'zbek adabiyoti tarixi"** o'zbek xalqining boy madaniy merosi, eng qadimgi zamonlardan hozirgi kunga qadar yaratilgan badiiy va badiiy xususiyatga ega asarlar, ularning mualliflari, yaratilish jarayonlari, ularda aks etgan mazmun va g'oyalar rang-barangligi, eng muhimi, mazkur asarlarning inson kamoloti, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashdagi o'rni haqida mubohasa etadi. Binobarin o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishdan maqsad bugungi kun qahramonini shakllantirishdir.

O'zbek xalqi boy adabiy yodgorliklarga ega. O'tmishda yaratilgan mo'tabar og'zaki va yozma adabiyotimiz namunalarini chuqur o'rganish va bilish har bir o'quvchining, shu yurtda yashayotgan kishilarning ulug' burchidir. Bugungi kunda, yurtimiz ozodlikka, xalqimiz istiqloлга erishgandan so'ng, o'tmish merosimizga e'tibor yanada kuchaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining qator suhbatlari, nutq va kitoblarida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni o'rganishning ahamiyatini qayta-qayta ta'kidlamodalar. Zero, xalqimiz mustaqillikka erishgandan so'nggina bizga noma'lum ko'pgina ulug' shoirlarimiz, olimlarimiz, muhaddislarimiz haqida ma'lumotga ega bo'ldik. Asarlarini o'rgana boshladik.

O'zbek adabiyoti qadimiy tarixga ega. Adabiyot jamiyat hayotining o'ziga xos ifodasi. U jamiyat tarixidagi katta va kichik o'zgarishlarni xilma-xil obrazlar vositasida turli badiiy shakllarda aks ettiradi. O'zbek adabiyoti tarixi nozik ruhiy

² Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1967. 195-bet.

holatlarni mahorat bilan aks ettiradigan durdonalarga boydir. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg'ota oladi, ularning ma'naviy boyishlariga tegishli hissa qo'sha oladi.

O'zbek xalqi ma'naviy madaniyatining katta va ajralmas bir qismi o'zbek adabiyotidir.

O'zbek adabiyoti tarixi xilma-xil tur va janrdagi badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Lirik va epos o'tmish o'zbek adabiyotining asosiy turlaridir. G'azal, muxammas, musaddas, noma, ruboiy, doston, hikoyat va boshqalar keng tarqalgan adabiy janrlardir. O'zbek adabiyoti tarixi xilma-xil adabiy tur va janrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi hamdir.

O'tmish o'zbek adabiyoti bir qator memuar va tarixiy asarlarni ham o'z ichiga oladi. «Boburnoma», «Shajarai turk», «Shajarai tarokima», «Firdavs ul-iqbol» va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbek adabiyoti tarixi «Tohir va Zuhra», «Bo'z o'g'lon», «Yusuf Ahmad» kabi xalq kitoblarini ham o'z ichiga oladi. Bular folkloristikaning ham, adabiyot tarixining ham predmetidir.

Adabiyotimiz tarixining ajralmas qismlaridan biri badiiy tarjima adabiyotidir. O'zbek xalqi asrlar davomida ko'pgina xalqlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib keldi. Shu aloqalarning mevasi sifatida tarjima adabiyot vujudga keldi. O'zbek tiliga tojik, ozarbayjon, eron, hind, arab, rus va boshqa xalqlarning ko'p badiiy asarlari va tarix kitoblari tarjima qilindi. Nizomiyning «Xisrav va Shirin», «Haft paykar», Sa'diyning «Bo'ston», «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», «Yusuf va Zulayho», Hiloliyning «Shoh va Gado», shuningdek, «Kalila va Dimna», «Ming bir kecha», «Ravzat us-safo», «Badoyi-ul-vaqoe» va boshqalar shular jumlasidandir.

Sobiq Sho'rolar davrida ko'p sohalarda bo'lgani kabi, o'zbek adabiyotiga munosabat masalasida ham bir yoqlamalikka yo'l qo'yildi. Adabiyot vakillari «saroy adabiyoti vakillari», «diniy-mistik adabiyot vakillari», «progressiv adabiyot vakillari» kabi ajratishlar asosida baholandi. Saroy adabiyoti, diniy-mistik adabiyot vakillari deb nom olgan qator shoirlar merosi yetarlicha o'rganilmadi, nashr etilmadi. Yoki ular ijodi kamsitildi. Ko'pgina badiiy ijod namunalarini xalqqa yetkazishga to'sqinlik qilindi. O'zbekiston mustaqilikka erishgandan so'ng, o'tmish adabiyotimizga e'tibor kuchaygani bois Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Imom G'azzoliy, Bahouddin Naqshband, Bobo Xudoydodi Vali, So'fi Olloyor, Haziniy, kabi diniy va tasavvufiy adabiyot vakillari; Husayniy, Shaboniy, Ubaydiy, Komron Mirzo, Bayramxon, Amiriy, Feruz kabi hukmdor tabaqa vakillarining

nomlari xalqqa keng ma'lum qilindi. Asarlari chop etildi, munosib hurmat va ehtirom ko'rsatildi.

Ayniqsa XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida yashab ijod etgan ko'plab shoir va mutafakkirlarning nomi, merosi istiqldan keyingi yillardagina ma'lum bo'ldi. Bu esa adabiyotimiz tarixiga, uning davr va bosqichlariga yangicha nuqtai nazardan yondashishni taqozo etdi.

2. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish muammolari. Har bir fanda bo'lgani kabi adabiyot tarixi ilmida ham butun va qism munosabati mavjud. Bu avvalambor yaxlit bir jarayon bo'lgan o'zbek adabiyoti tarixini kichik davrlarga bo'lib o'rganishda namoyon bo'ladi. Adabiyot tarixini mukammalroq o'rganish, uning har bir bosqichuda yuz bergan hodisalarni maxsus tadqiq etish maqsadida olimlar davrlarga bo'lishni tavsiya etadi. Bu jarayon o'zbek adabiyotshunosligida Abdurauf Fitratdan boshlangan desak xato bo'lmaydi. U o'zining 1927-yilda yaratgan "O'zbek adabiyoti namunalari" qo'llanmasida adabiyotimiz tarixini ilk bora davrlarga bo'lish tajribasini qo'llab ko'rdi. Fitrat o'z davrining ijtimoiy-siyosiy talab vama'fkurasidan kelib chiqib o'zbek adabiyoti tarixini quldorlik, feodalizm va proletariat davri adabiyoti kabi uchta davrga ajratdi.

O.Sharafiddinovning 1948-yilda nashr ettirilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" xrestomatiyasida (majmua) davrlashtirish bo'yicha tajribalar davom ettirildi.

Sobiq sho'rolar davri adabiyotshunosligida o'zbek adabiyoti tarixini ikki katta bosqichga ajratish odat tusiga kirgan edi:

Eng qadimgi zamonlardan boshlab XX asrning boshlariga qadar ya'ni **O'zbek klassik adabiyoti tarixi.**

XX asrning boshlaridan hozirgi kunga qadar ya'ni **Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti tarixi.**

Biroq yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, istiqldan keyin adabiyotshunosligimizda bir qator jiddiy o'zgarishlar, yirik tadqiqotlar yuzaga kelib, ular natijasida XIX asrning II yarmi va XX asr boshlari adabiyotiga oid yangi mafkuraviy, g'oyaviy badiiy xususiyatlar aniqlandi. Natijada adabiyotimiz tarixini uchta bosqich asosida o'rganish tavsiya etildi:

1. Eng qadimgi zamonlardan XIX asrning I yarmi ya'ni **O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi.**

2. XIX asrning I yarmi va XX asrning boshlari (30-yillari) ya'ni **Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.**

3. XX asr boshlaridan hozirgi kunga qadar ya'ni **Yangi o'zbek adabiyoti.**

Diniy manbalar va ularning adabiyotga tasiri masalasida xolis fikrlash imkoniyati tug'ilgandan keyin adabiyat tarixini shu mezon asosida davrlashtirish ham taklif etildi. Ya'ni:

1. **Islomga qadar bo'lgan davrdagi o'zbek adabiyoti** (Qadim zamonlardan milodning IX asrigacha).
2. **Islom ta'siridagi o'zbek adabiyoti** (X asrdan XX asr boshlarigacha).
3. **Yangi o'zbek adabiyoti** (XX asr boshlaridan hozirgi kunga qadar).

Umuman olganda, adabiyot tarixini davrlashtirish muammolidir. Adabiyotni davrlashtirishga nima asos qilib olinadi? Bu savolga aniq javob berish qiyin. Ayrim mutaxassislar adabiyot tarixi bosqichlarini podsholarning, sulolalarning hukmdorlik davri bilan, boshqalari esa yirik tarixiy voqealar bilan bog'lashadi. Ba'zi olimlarimiz, xususan, N.Mallaev o'zbek adabiyoti tarixini, bir tomondan, jamiyatning umumiy taraqqiyot qonunlari, o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi taraqqiyoti, ikkinchi tomondan, adabiyot tarixi taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini: badiiy adabiyotning ijtimoiy mohiyati, vazifasining o'sib borishi, adabiy tur va janrlarning shakllanishi, taraqqiy etishi hamda so'z san'atining boshqa jihatlari takomiliga xos xususiyatlarni ko'zda tutib bosqichlarga ajratish kerakligini ko'rsatib o'tadi.

N.Mallaevning o'zi oliy o'quv yurti talabalari uchun chiqargan "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida o'zbek adabiyoti tarixini quyidagi davrlarga ajratadi:

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.

X-XII asrlar adabiyoti.

XIII asr va XIV asr boshlaridagi adabiyot.

XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan adabiyot.

XVII asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan adabiyot.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot.

Prof. B.To'xliiev adabiyot tarixini quyidagicha davrlashtirishni tavsiya etadi:

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar «Avesto», «Alpomish» va b.

Ilk o'rta asrlar adabiyoti («Kultegin» bitiklari va b.)

O'rta asrlar adabiyoti (IX-XVI asrlar)

A.Temuriylar davri adabiyoti.

B.Navoiy va uning davri adabiyoti.

XVII-XIX asrlar adabiyoti.

XX asr adabiyoti. (B.To'xliiev. O'zbek adabiyoti. 9-sinf. -T., 2000. 13-b.

Bizning o'rganadigan ilmimiz "O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti tarixi" bo'lib, u badiiy merosimizning eng qadimgi zamonlardan XX asrning boshlariga qadar bo'lgan davrini o'z ichiga oladi.

“Mumtoz” so’zi arab tilidan olingan bolib, lugatda “saralangan, tanlangan, imtiyozli” degan ma’noni bildiradi.³ *“Va Yofas o’g’loniki, Abut-turkdur, tarix ahli ittifoqi bila debturlarki, nubuvvat toji bila sarafroz va risolat mansabi bila qarindoshlaridin mumtoz bo’ldi”* (A.N. “Muhokamat ul-lug’atayn”).

Bu atama XX asrda qo’llanilgan “klassik” atamasi o’rnida kiritilgan bo’lib yuqoridagi ma’nolardan tashqari “namunali, namuna bo’la oladigan” degan ma’noni ham ifodalaydi. Demak “mumtoz adabiyot” deganda, aslida qaysi davrda yaratilganligidan qat’i nazar, boshqalardan o’ziga xosligi bilan ajralib turadigan, boshqalar uchun namuna vazifasini bajargan asarlar va ularning ijodkorlari tushuniladi. Biroq “Ozbek mumtoz adabiyoti tarixi” atamasi tarkibida mumtoz so’zi o’zining lug’aviy ma’nosidan tashqari muayyan davr adabiyotining nomini ifodalaydi. Binobarin, unda mazmuni, badiiyati, saviyasidan qat’i nazar ko’rsatilgan davrda (qadim – XIX asrning I yarmi) yaratilgan barcha asarlar nazarda tutiladi. Xuddi shunday, G’afur G’ulom yoki Erkin Vohidovga nisbatan mumtoz (klassik) shoir atamasini qo’llash mumkin bo’lsa-da, ular O’zbek mumtoz adabiyoti vakillari emas.

“O’zbek mumtoz va milliy uyg’onish davri adabiyoti” ilmi oily ta’limning bakalavriat bosqichi “Filologiya va tillarni o’qitish” yo’nalishida **olti bo’lim** (semestr) **sakkiz davrga** bo’lib o’rganiladi:

II semestr:

1. Islomgacha bo’lgan davrdagi o’zbek adabiyoti yoki antik davr (Eng qadimgi zamonlardan IX asrgacha).
2. IX-XII asrlar o’zbek adabiyoti (Ilk islomiy davlatlar davri).
3. XIII-XIV asrlar (mug’ullar hukmronligi davri).
4. XIV-XV asrning I yarmi (Temuriylar hukmronligininng ilk davri).

III semestr:

5. XV asrning II yarmi adabiyoti (Alisher Navoiy hayoti va ijodi).

IV semestr:

6. XVI asr adabiyoti.

V semester:

7. XVII asrdan XIX asrning I yarmiga qadar (Xonliklar davri o’zbek adabiyoti).

VI semester:

8. XIX asrning II yarmi – ma’rifatparvarlik davri adabiyoti.
9. XX asrning boshlari (30-yillariga qadar) – o’zbek jadid adabiyoti.

³ Alisher Navoiy asarlari tilininng izohli lu’ati. 4 tomlik. II tom– T: Fan, 1983. 350-bet.

Fan uchun ajratilgan o'quv soatlarining umumiy hajmi 504 soat bo'lib ularning taqsimoti quyidagicha:

Semestrlar	Ma'ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ish	Jami
II semestr	28	22	22	72	144
III semestr	24	20	18	62	124
IV semestr	16	12	8	36	72
V semestr	12	10	10	32	64
VI semester	20	12	18	28	78
Kurs ishi				22	22
Jami	100	76	76	252	504

3. Islomgacha bo'lgan davr adabiyotini o'rganish manbalari va muammolari. "Antik" so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, "qadimgi" degan ma'noni bildiradi. Har bir xalq madaniyati, xususan, adabiyotining antik davri mavjud. Biroq turli xalqlarda bu bosqich kishilik tarixining turli davrlariga to'g'ri keladi. Dunyo xalqlari adabiyotining antik (qadimiy) davri o'zaro mushtarakliklar bilan birga, xususiy jihatlariga ham ega.

O'zbek xalqi qadimiy va boy adabiy merosga ega. Bu madaniy yodgorliklarni yaratgan ota-bobolarimiz, ularning yashagan joylari, urf-odatlar, tili va boshqalar har birimizni qiziqtiradi. Qadimgi madaniyat rang-barang shaklda bizgacha yetib kelgan. Bu yodgorliklar og'zaki va yozma adabiyot, tasviriy san'at, me'morchilik, ilm-fan va boshqalarda namoyon bo'ladi. Qadimgi Turonning tarixi va madaniyati haqida grek, xitoy, hind, arman va boshqa tarixchilarning kitoblarida Avesto, Behustun, Bundaxishn, O'rxun-Enasoy yodgorliklari kabi turli manbalarda, Beruniy, Narshaxiy va boshqa olimlar hamda tarixchilarning asarlarida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Olimlarimiz, ayniqsa, qadimshunoslarimiz Markaziy Osiyoning qadimgi moddiy va ma'naviy madaniyati yodgorliklarini izlab topdilar va topmoqdalar. S.Tolstov rahbarligidagi Xorazm, Ya.Fulomov va V.Shishkin rahbarligidagi Varaxsha, M.Masson rahbarligidagi Termiz va Janubiy Turkmaniston va boshqa ekspeditsiyalar bu jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo kishilik madaniyati tarixining eng qadimgi beshiklaridan biridir. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalaridagi Markaziy Osiyoning hududi Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon vohalari, Parkana (Farg'ona) va boshqa joylarni o'z ichiga olgan. Bu joylarda massagetlar, Xorazmiylar, sug'dlar, parfiyanlar va boshqalar yashar edilar. Mana shu qabilalar hozirgi Markaziy Osiyo xalqlarining ota-bobolaridir.

Qadimgi Markaziy Osiyoda turli kult va dinlar mavjud edi. Tabiat hodisalariga nisbatan dualistik qarash, ularni yaxshi va yomon, do'st va dushman kuchlariga ajratish zaminida Mitra (quyosh ma'budi), Anaxita (yer-suv ma'budasi) va boshqa kultlar paydo bo'ldi. Bu kultlar eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda vujudga kelgan zardushtiylik diniga qo'shib ketdi. Qadimgi Markaziy Osiyoda qisman bo'lsa-da, Ellin Xudolari-Zevs, Afina, Poseydon, Appolon va boshqalar kulti, budda dini, moniy dini, yahudiy dini, nasroniylik va boshqalar tarqalgan edi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Markaziy Osiyo aholisining ko'pchiligi eron tillari guruhiga kiruvchi shevalarda gaplashgan. Keyinroq turkiy tillar guruhi ham kengroq tarqala boshlaydi. Markaziy Osiyo xalqlari yozuvining tarixi qadim zamonlardan boshlanadi. Eramizdan oldingi birinchi ming yillik o'rtalarida Eron, Markaziy Osiyo va boshqa o'lkalarda oromiy yozuvi keng tarqala boshlaydi. Aleksandr Makedonskiy istilosidan keyin esa Markaziy Osiyoga grek yozuvi kerib keladi. Oromiy yozuvi negizida Avesto, xorazm, so'g'd, kushan, run (O'rxun-Enasoy), uyg'ur va boshqa yozuvlar vujudga kela boshladi. Asosan xorazm va so'g'd yozuvlari qo'llanildi. O'rxun-Enasoy yoki «Turkiy run» deb nomlangan yozuv eramizning dastlabki asrlarida (V asrgacha) vujudga keldi. U bilan oldinma-keyin uyg'ur yozuvi ham paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyoda qadimdan ilm-fan ham taraqqiy etgan. So'g'd kalendari, Beruniy asarlaridagi ma'lumotlar va boshqa manbalar qadimgi Markaziy Osiyoda ilm-fanning ayrim sohalari, ayniqsa, astronomiya taraqqiy etganini ko'rsatadi. Shohlar saroyidagi munajjimlar sayyoralar dunyosini tekshirganlar, fizika, matematika, falsafa, tibbiyot bilan shug'ullanganlar.

Qadimgi davrda Markaziy Osiyoda me'morchilik (Tuproqqal'a, Dalvarzin, Varaxsha, Oqtepa va b. qo'rg'onlar), san'at va boshqa sohalar ham rivojlangan.

Markaziy Osiyo xalqlari boy og'zaki ijod namunalariga ega. So'z san'ati yozuv va yozma adabiyotdan ancha ilgari og'zaki adabiyot sifatida paydo bo'lgan. Og'zaki yodgorliklar bizga qadar tarix kitoblari, ilmiy asarlar, yozma yodgorliklar va boshqa manbalar orqali yetib kelgan. Antik tarixchilardan Gerodot, Kteziy, Polien, Xares Mitilenskiy va boshqalarning kitoblarida xalq og'zaki ijodi ayrim asarlarining mazmuni hikoya qilib qoldirilgan. O'rta asr tarixchilaridan Hamza Isfahoniy, Tabariy, Mas'udiy, Beruniy, Saolibiy asarlarida ham og'zaki ijod namunolari mavjud.

«Devonu lug'otit turk»da qadimiy qo'shiq, lirik she'r va maqollardan namunalar keltirilgan. Qadimgi og'zaki adabiyot yodgorliklari miflar, afsonalar, qahramonlik eposi, qo'shiqlar, lirik she'rlar va boshqa turdagi adabiy asarlardan iborat.

4. Qadimgi mifologiya va og'zaki ijodning boshqa shakllari.

Xalq tafakkuri va ijodining mahsuli bo'lgan afsona va miflar sharoit va voqealardan kelib chiqadi. Markaziy Osiyo va Eron xalqlari orasida qadimiy davrlardan keng yoyilgan afsonalardan biri «Kayumars»dir.

Qayumars haqidagi asosiy manba «Avesto». Uning mufassal bayoni, turli nusxalari haqidagi ma'lumotlar «Tarixi Tabariy»da berilgan. «Shohnoma», Navoiyning «Tarixi muluki Ajam» asarlarida bu afsona uchraydi. Kayumars-Gaya Martan. U Axura Mazda tomonidan yaratilgan va ho'kiz-odam qismlaridan iborat. Beruniy ham Kayumars haqidagi afsonani bayon qilgan.

Jamshid «Avesto»da Yima. U adolatli, yer yuzini kengaytirgan, chorvani, turli qushlarni ko'paytirgan, kishilarni balolardan saqlagan, uy-joylar qurib, ariqlar chiqargan hukmdor sifatida tilga olinadi. Firdavsiy, Beruniy, Navoiylar Jamshid to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar beradilar. Prof. N.Mallaev «Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti» kitobida (T., 1974) Jamshid haqida mulohazalar yuritadi.

Xalqimizning sevimli bayrami Navro'z ham Jamshid nomi bilan bog'lanadi. N.Mallaevning fikricha, yetti yuz yil hukmronlik qilgan Jamshid zamonasida kishilar Ahrimanning zulmidan qutiladilar, muhtojlik, kasallik va o'lim yo'qolib ketadi. Jamshid yer yuzini uch barobar kengaytiradi, chorva mollari va turli qushlarni ko'paytiradi.

Siyovush afsonasi. Eron shahzodasi Siyovush va Turon podshohi Afrosiyob o'rtasidagi munosabatlar ushbu afsonada o'z ifodasini topgan. Siyovushning shuhrati ko'proq Xorazm va Buxoroda yoyilgani manbalarda qayd etilgan. Uning ildizlari «Avesto»da uchraydi. S.Tolstov xabaricha, Siyovush miloddan oldingi XIII asrda Xorazm davlatiga asos solgan. U Beruniy ma'lumotiga suyanagan.

Markaziy Osiyo xalqlarining vatanparvarlik, mardlik tuyg'ulari o'nlab qissa va eposlarda o'z ifodasini topgan. **Amorg va Sparetra, To'maris, Shiroq, Zariadr va Odatida, Striangey va Zarineya, Iskandar, Gershasp, Elikbek, Rustam** haqidagi qissa va afsonalar shular jumlasidandir.

Amorg va Sparetrada Kirga qarshi kurashgan Amorg va uning rafiqasi Sparetraning jasorati, ayolning mardligi tasvirlansa, To'marisda Kirga qarshi jang qilgan mard va vatanparvar To'marisning jasorati, Shiroqda oddiy cho'ponning vatanparvarligi va mardligi, Zariadr va Odatida qissasida Midiya shohi Gistaspnning ukasi Zariadr va Amorg (Omarg)ning qizi Odatida sevgisi tasvirlanadi.

4.2. Qadimgi qo'shiqlar va lirik she'riyat namunalari.

Qadimgi qo'shiq va lirik she'rlar «Avesto», «Devonu lug'otit turk» kabi manbalar orqali yetib kelgan. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida turkiy xalqlarining qadimgi yozma va og'zaki ijodiga oid qimmatli

materiallar nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Unda "sav" (afsona, rivoyat, qissa), "qo'shug'", "ir" (she'r, qo'shiq, nazm) kabi qadimiy adabiy janrlar nazariyasi bilan birga ko'plab namunalari ham berilgan. Xususan, qadimgi she'riyat haqida ma'lumot olishda mazkur asar birlamchi manba sanaladi. Asarda ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik bilan bog'liq mehnat va marosim she'riyati, turli harbiy yurishlar aks etgan qahramonlik, mardlik g'oyalari bilan sug'orilgan voqeaband she'rlar, shuningdek, lirik she'rlarning go'zal namunalari mavjud.

Ushbu to'rtlikda jang tafsilotlari, mardlik ifodalangan:

Tunla bila kuchalim
Yamar suvin kachalim,
Tarnchuk suvin ichalim,
Yuqg'a yag'i o'kulsun.

Mazmuni:

Tuni bilan ko'chaylik,
Yamar suvidan o'taylik,
Tarnchuk suvidan ichaylik
Qochayotgan dushman tor-mor bo'lsin.

«Devonu lug'otit turk»da marosim qo'shiqlari, marsiyadan parchalar ham keltirilgan. Alp Er To'nga – Afrosiyob` haqidagi marsiyadan xabardorsiz. Asarda fasllar, tabiat, sevgi-muhabbat va boshqa mavzulardagi parchalar ham o'rin olgan. Quyodagi to'rtliklar qadimgi lirik she'riyatning go'zal namunalaridandir:

Bulnar meni ulas ko'z,
Qara mengiz, qizil yuz.
Andin tamar tugal tuz,
Bulnab yana ul qachar.

Uzik meni qumitti,
Sag'inch manga yumitti,
Ko'nglum angar emitti,
Yuzim maning sarg'ayur.

2-MAVZU: ENG QADIMGI YOZMA YODGORLIKLAR

Qadimgi diniy e'tiqodlar, "Avesto" haqida tushuncha. Qadimgi afsona va rivoyatlar. «Avesto» Turonu Eron xalqlarining mushtarak yodgorligidir. Zardushtiylik islomga qadar O'rta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. «Avesto», unga oid nazariy ma'lumotlar «Avesto» kitobining so'ngida T.Mahmudov tomonidan yozilgan «Avesto haqida» maqolasida keltirilgan. (T.Mahmudov. «Avesto» haqida. Avesto. T., 2001).

Ovrupada Zardusht ta'limotining «Zoroastr»-«Zoroastrizm» shaklida yoyilib ketishiga sabab bu ism yunon tilidagi «stron» (yulduz) so'ziga o'xshashligidir. Qadimgi rivoyat hamda manbalarda Zardusht donishmand-astrolog sifatida qayd etilib, uning ta'limoti G'arbga tomon tarqalgach, «Zoroastrizm» tarzida zikr etila boshlangan.

«Avesto»ning yurti haqida turlicha fikrlar bildirilgan. Ba'zi olimlar zardushtiylikning vatani Parfiya (Turkmaniston), yana boshqalari Midiya, Sharqiy Eron, Baqtriya desalar, Struve, Trever, Rapoport, Oldenburg, Proxorov, Meri Boys, Dyakonov, Bartold, Lukonin, Avdiev singari olimlar Turonzaminda (Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, Farg'ona) paydo bo'lib, so'ngra Eron va boshqa mamlakatlarga tarqalgan degan fikrni bildiradilar.

Zardushtiylik bo'yicha 4 tomlik asar muallifi Meri Boys (ingliz) ham otashparastlar dinining muqaddas kitobi «Avesto» qadimgi Xorazm vohasida paydo bo'lganini qayd etadi. Bu faraz B. G'ofurov, N.Mallaev, H.Homidov, A. Qayumov, Y. Jumaboev, M. Is'hoqov, A. Saidov, F.Sulaymonova kabilarning tadqiqotlarida ham o'z ifodasini topgan.

«Avesto» ning hozirgi ma'lum bo'lgan nusxalarini olimlar 21 nasx-kitob (qism) dan iborat demoqdalar. Ulardan 7 kitob xudolar, koinotning paydo bo'lishi va insoniyat tarixiga doir; keyingi 7 kitob ibodat masalalari, din dasturlari, xalqning yashash tarzini ifoda etadi; oxirgi 7 kitobda tibbiyot, astronomiyaga doir ma'lumotlar jamlangan.

Zardushtiylar dini va ta'limotidagi «Ezgu fikrat», «Ezgu kalom», «Ezgu amal» birligi ularning falsafiy-axloqiy, umumiy dunyoqarashini ham belgilaydi.

«Avesto»ning hozirgi bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi nusxasi 1324 yil ko'chirilgan bo'lib, Kopengagen shahrida saqlanadi. 1996 yil Eronda chop etilgan ikki jildli «Avesto» ham mukammal nusxa hisoblanadi. «Avesto»ning to'rtidan bir qismi – 83 ming so'zdan iborat alohida-alohida boblari, parchalari saqlanib qolgan.

«Avesto» - mazdaparastlar diniga mansub barcha adabiyotlarning umumiy nomi. «Avesto» so'zi qadimiy mazdaparastlarning o'zagiga mansub bo'lib, «Avesto» "a" artikli va «vista» fe'lidan iborat. «Vista» so'zining o'zagi «vid», «vand» bo'lib, ma'nosi «tanimoq», «bilmoq», «topilmoq», «ko'rinmoq» kabidir. «Avesto»ni «Ogohnoma», «Donishnoma» ma'nosida tushunish mumkin.

Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, «Avesto» Yasna, Yasht, Visparad, Vandidod, Kichik Avesto qismlaridan iborat. E. Bertels, I. Braginskiy, N. Mallaevlar «Avesto» ning bu qismlarini quyidagicha izohlaydilar:

Yasna - hamdu sano, munojot va qurbonlik duolaridan tashkil topgan 72 bobli to'plam. Uning 17 bobi gotlar-gimnlar deb ataladi. Ular «Avesto»ning eng qadimgi boblari hisoblanadi. Gotlarning asosiy g'oyasi «ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal»larning birligini madh etishdan iborat.

Yashtlar - zardushtiylarning alohida xudolarini madh etuvchi qo'shiq-oyatlardir. Ularda qadimiy rivoyatlar ko'plab uchraydi. Bu rivoyatlarning ayrimlari Firdavsiyning «Shohnoma» sida o'z ifodasini topgan. Yashtlarning aksariyati she'riy shaklda bitilgan;

Visparad - yasnalarga qo'shimcha tarzda yozilgan, 24 bobdan iborat ibodatga doir qo'shiqlardir;

«Vandidod» - «Viyaivadota» so'zining o'zgargan shakli bo'lib, devlarga qarshi qonun ma'nosini anglatadi. U yomonlik, jaholat va razolat timsollari devlarga qarshi kurash qonunnomasi hisoblangan. Unda ibodat qilish tartibi, buni buzganlarni jazolash qonun- qoidalari ham aks etgan. «Vandidod» 22 bobdan tashkil topgan. «Vandidod»da, shuningdek, o'likni yerga ko'mib, uni harom qilgan yoki yolg'on va'da bergan odamni jazolash, tabiblar xususida, o'liklarni qo'yadigan dahmalar qurish, ko'mish marosimi va o'likdan yomon jinlarni quvish uchun yoniga it olib borish, it boqish va ularni ehtiyot qilish, ayollar bilan munosabatda bo'lish, soch va tirnoqlarni qachon olish va ularni toza saqlash, o'z qichqirig'i bilan yomon narsalarni qochiruvchi xo'roz haqida, suvning shifobaxshligi, chaqaloqni parvarishlash, Axura Mazdaning odamlarni turli balo-qazolardan asrashi va hokazolar bayon etiladi.

«Kichik Avesto» - u Quyosh, Oy, Ardivusura, Bahrom singari ma'budlar sharafiga aytilgan duo matnlarini o'z ichiga oladi.

«Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lishi bilan bir qatorda Turonu Eron va boshqa Yaqin Sharq mamlakatlarining tarixi, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tili, urf-odatlarini, xalq og'zaki ijodi, umuman, turli sohalar haqida ma'lumot beruvchi noyob qomusiy manbadir. Undan o'rin olgan afsonalar,

qo'shiqlar ma'lum ma'noda xalq og'zaki ijodining qadimiy janr namunalarini o'zida aks ettirgani bilan ham ahamiyatlidir.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng, merosimizga, buyuk vatandoshlarimiz ijodiga munosabatda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Adabiyotga davlat miqyosida e'tibor berilmoqda. Jumladan, 2001 yilda Xorazmda «Avesto» ga bag'ishlangan yirik tadbirlar, ilmiy anjumanlarning o'tkazilishi buning yorqin dalilidir.

O'rxun-Enasoy obidalari. «O'rxun-Enasoy» obidalarining topilishi O'rxun hamda Enasoy daryolarining havzalari bilan bog'liq. Keyinchalik bu obidalar Sibir va Mo'g'ulistonning boshqa joylaridan, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Volga bo'yi va boshqa joylardan topilgan bo'lsa ham, shu nom bilan ataladigan bo'lib qoldi. Bu yodgorliklarning topilishi va o'rganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqdagi dastlabki xabarni beradi. Shved zobiti Iogann Strallenberg, olim Messerschmidt yodgorliklarni Evropa ilm ahliga ilk marta taqdim qiladilar. 1893 yilda daniyalik olim Vilgelm Tomson va rus olimi V. Radlovlar yodgorliklardagi harflarni o'qidilar. Bu yodgorliklar «tosh bitiklari» deb ham yuritiladi. Ular Mo'g'uliston, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'izistonda saqlanadi. Yodgorliklar asosan VI-VIII asr voqealarini aks ettiradi. 545 yilda Turk xoqonligi yuzaga keladi hamda VIII asrgacha hukmronlik qiladi. Tosh bitiklarining katta qismi ana shu xoqonlikning tarixini tasvirlaydi.

«**To'nyuquq**» bitigtoshi ikkita ustunga yozilgan. Ularning biri 170, ikkinchisi 160 sm. dan iborat. Bu yodgorlikni 1897 yili Yelezaveta Klemens Shimoliy Mo'g'ulistonda eri Dmitriy Klemens bilan birgalikda izlab topgan.

«**Kultegin**» bitiktoshi marmardan ishlangan. Balandligi 3 m 15 sm, qalinligi 41 sm, tub qismi 1 m 24 sm bo'lib, yuqoriga tomon torayib borgan. Yodgorlikni rus ziyolisi N.Yadrinsev 1889 yili Mo'g'ulistonning Ko'kshin O'rxun daryosi qirg'og'idan topgan.

«**Bilga xoqon**» bitigini ham Yadrinsev topgan. U Kultegin bitigtoshidan 1 km janubiy-g'arbga o'rnatilgan. Uning bo'yi 3 m 45 sm, eni 1 m 72 sm, qalinligi 72 sm. U 80 satrdan iborat.

To'nyuquq - Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi. Unga qo'yilgan toshda To'nyuquqning xalq oldidagi xizmatlari, turkiylarning bir qancha dushman qabilalariga qarshi kurashi, To'nyuquqning donoligi, tadbirkorligi, vatanparvarligi, turk xalqiga sadoqati ko'rsatilgan. Mana bu tasvir shundan dalolat beradi: «**Nega chekinamiz, dushmanni ko'p deb, nega qo'rqamiz, o'zimizni oz deb, qani bosaylik, hujum qilaylik, dedim. Hujum qildik, dushmanni tor-mor qildik.**

Ikkinchi kun keldi. Urushdik. Ularning qo'shini biznikidan ikki qanoti yarmicha ortiq edi. Tangri yorlaqagani uchun, dushman ko'p deb biz qo'rqmadik, jang qildik. Ularni ham tor-mor qildik...» (Qadimiy obidalar. 21-bet).

Kultegin - Eltarish xoqonning kichik o'g'li. Bitigtosh 702 yilda o'rnatilgan. Akasi Bilga xoqon tilidan Yo'llug' tigin yozgan. Unda Bilga xoqonning turk xalqiga aytgan yurak so'zlari bayon qilingan. Kultegin dono, bahodir inson sifatida tasvirlanadi.

Bilga xoqon-Eltarishning katta o'g'li. Uning qabridagi yozuv ham Yo'llug' tigin tomonidan yozilgan. Tosh 735 yilda o'rnatilgan.

Bulardan tashqari, «Ungin bitigi», «Moyun Chur bitigi» borki, bular O'rxun bitiglariga kiradi. Enasoy bitiglar hozirgi Tuva, Xakasiya hududidan topilgan. Bu bitiglar turli shakldagi-yumaloq, to'g'ri burchakli granit toshlariga bitilgan. Ayrimlari qoyalarga, metallarga, oltin va kumush idishlariga yozilgan. Hozirgacha hammasi bo'lib 250 ga yaqin bitigtoshlar topilgan. Enasoy bitiglar «Eletmish bilga xoqon yodnomasi», «Uyuq Tarlak yodnomasi», «Uyuq Turan yodnomasi», «Begra yodnomasi», «Chakul yodnomasi» kabi yodgorliklardan iborat. Ularda ham mardlik, qahramonlik, dushmanga qarshi kurash tasvirlangan.

Bu yodgorliklarni nasr namunasi deb qarovchi olimlarimiz bo'lganidek, Stebleva ularni turkiy xalqlar she'riy ijodining namunalari sifatida beradi (I.Stebleva. Poeziya tyurkov VI-VIII vv. M.1965).

Bitiglarda «Edguti eshid, qatug'du tingla» («Yaxshi eshit, qattiq tingla»), «Ichra oshso'z, tashra jonso'z» («Ichda oshsiz, toshida to'nsiz») kabi maqolga o'xshash jumlar mavjud.

Yodgorliklarning tili quyidagicha:

Qog'on ulurup yo'q jig'ay budunug (Qoon bo'lgach kambag'al xalqni) ko'p ko'portdum (Yuksakka ko'tardim).

Jig'oy budunug bay qiltim (Kambag'al xalqni boy qildim).

Umuman, O'rxun-Enasoy yodgorliklari V-VIII asrlarda yashagan turkiy xalqlarning madaniy merosi sifatida ajdodlarimizning ma'naviy-badiiy, ilmiy-tarixiy salohiyatining balandligi, qadimiy va boyligidan yorqin nishonadir.

3-MAVZU

X-XI ASRLAR ADABIYOTI

3.1. X-XII asrlar ijtimoiy-madaniy muhiti, mahalliy davlatlarning tashkil topishi. Arab-Islom xalifaligi Markaziy Osiyo hududida o'z hukmronligini o'rnatgach, mazkur hududni boshqarishda mahalliy yer egalari yordamiga tayanadi. Uzoq vaqt Xuroson noibi bo'lib turgan Ma'mun otasi xalifa Xorun ar-Rashid vafotidan keyin 813 yilda Xurosondagi yirik mulk egasi Tohir ibn Husayn yordamida xalifalikni egallaydi. Shundan keyin Tohir ibn Husaynning xalifalikdagi mavqeyi kuchayib, Xuroson va Movarounnahrni mustaqil boshqarish huquqiga ega bo'ladi. Shu tariqa mazkur hududda xalifalikdagi dastlabki mustaqil davlat Tohiriylar sulolasi (821-873) maydonga keladi.

Shu davrda Movarounnahrda Somon avlodlari hukmronligi ham kuchayib Xalifa Ma'mun As'ad ibn Somonning o'g'illari Nuh ibn As'adni – Samarqand, Ahmad ibn As'adni – Farg'ona, Yahyo ibn As'adni – Shosh va Usrushona, Ilyos ibn As'adni esa Hirot hokimi qilib tayinlaydi. Movarounnahrda Somoniylar hokimiyati rasman tan olinadi. Bu esa yangi mahalliy davlat – Somoniylar sulolasining tug'lishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

841-yilda Nuh, ko'p o'tmasdan Yahyo ham vafot etib Samarqand va Shosh Ahmad ibn As'ad qo'l ostiga o'tadi. U poytaxtini Farg'onadan Samarqandga ko'chiradi. Uning vafotidan keyin taxtni o'g'li Nasr ibn Ahmad (864-892) egallaydi.

Xurosonda kuchayib ketgan qo'zg'olonlar (Yoqub ibn Lays boshchiligida) ta'sirida Tohiriylar davlati barham topib (873) o'rniga Safforiylar (misgarlar) sulolasi (873-903) vujudga keladi. Bu davrda Buxoro Tohiriylar davlatiga qarashli edi. Mazkur voqealardan keyin shahar zodagonlari yangi sulolaga bo'y sunishni istamaydi hamda Nasr ibn Ahmaddan yordam so'raydi. Nasr o'z ukasi Ismoil ibn Ahmadni (873-907) Buxoroga hokim qilib yuboradi. Nasrning vafotidan keyin butun Movarounnahr Ismoil Somoniy qo'l ostiga o'tadi. Xalifalik tomonidan Movarounnahr hokimi sifatida tayinlangan Amr ibn Lays bilan 900-yilda Balxda bo'lib o'tgan jangda g'olib bo'lgach, Ismoil Somoniy Xuroson, Tabariston, Gurgon va Seyistonni ham qo'lga kiritadi. Shundan keyin Somoniylar davlati rasman tan olinadi.

Somoniylar sulolasi mahalliy madaniyat ravnaqiga katta hissa qo'shdi. Agar tohiriylar davrida arab tili rasmiy davlat va ijod tili sifatida mavqeini saqlab qolgan bo'lsa, somoniylar sulolasi davrida fors-dariy tilining mavqei oshdi, bu tilda ijod

etish rag'batlantirildi. Bu holat deyarli shu davrda yuzaga kelgan saljuqiylar, g'aznaviylar va xorazmshohlar davrida ham davom etdi.

X asr o'rtalariga kelib Somoniylar davlatida o'zaro nizolar kuchaydi. Natijada, davlat inqirozga uchrab Qoraxoniylar va G'aznaviylar X asrning 90-yillarida Somoniylarning yerlarini bosib oldi.

X asr oxiri va XI asr boshlarida Xorazmda ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Urganch hokimi Ma'mun I butun Xorazmni egalladi. Uning o'g'li Ma'mun ibn Ma'mun poytaxtni Kotdan Urganchga ko'chirdi. Natijada, bu shahar yurik iqtisodiy, madaniy va ilmiy markazga aylandi. Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038) kabi mashhur siymolar ilmiy faoliyat va ijod bilan mashg'ul bo'ldi. Ma'mun akademiyasiga asos solindi.

X-XII asrlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixida alohida bir davrni tashkil etadi. Bu davr barcha sohalarning rivojlanishi, ilm-fanning yuksak taraqqiyoti bilan xarakterlanadi. Markaziy Osiyo xalqlari me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, o'ymakorlik, musiqa kabi sohalarda katta yutuqlarga erishdilar. «Shuning uchun biz IX-XII asrlardagi O'rta Osiyo madaniy yuksalishini Uyg'onish davri, aniqrog'i ilk Uyg'onish davri deb atashga ham to'la asosimiz bor». (Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. T.,1995. 8-bet).

Turli sulolalarning markazlari bo'lgan Buxoro, Samarqand, Qashg'ar, Bolasog'un, Nishopur, Isfahon, G'azna, Xorazm shaharlarida ilm-fan, madaniyat, san'at, xususan, badiiy ijod gullab yashnadi.

Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik rivojlandi. Buxoro, Samarqand, Marv, Ko'hna Urganch, Xiva kabi shaharlar o'z davrining madaniyat markazlari sifatida tanildi. Mashhur «Ipak yo'li» boshqa xalqlar bilan turli sohalarda hamkorlik qilishda asosiy aloqa yo'li vazifasini bajardi.

Bu davrda me'morchilik taraqqiy etdi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan, Marv shaharlarida ko'plab saroy, masjid, xonaqoh, madrasa, minora, sardoba va boshqa binolar qurildi. Bu binolar qurilishi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Navoiy viloyatida XI asrda qurilgan Hazora qishlog'idagi Dehgaron masjidi, Raboti Malik, Buxorodagi Masjidi jome'ning 1127 yilda qurilgan minorasi, XII asr oxirida bunyod etilgan Vobkent minorasi, Urganchdagi Faxriddin Roziy maqbarasi, Doya xotin ravoti, Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi va boshqalar shular jumlasidandir.

Bu davrda naqqoshlik ham rivojlandi. Turli binolarga ishlangan naqshlar buning dalili. Musiqa ham taraqqiy etdi. Bu davrda rud, tanbur, barbat, daf, qo'biz, rubob, nay, surnay, karnay, qonun kabi cholg'u asboblari keng tarqaldi. «Rost»,

«Xusravoniy», «Boda», «Ushshoq», «Sipahon», «Navo», «Taron» kabi kuylar ijod qilinadi. X-XII asrlar Markaziy Osiyoda ilm-fanning rivojlanganligi bilan alohida ajralib turadi. Falsafa, mantiq, riyoziyot, tibbiyot, tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi sohalar rivoj topdi. Arab tili Sharq mamlakatlari orasida ilm-fan tili sifatida shuhrat qozondi. Buxoro, Samarqand, Termiz, Urganch, Marv, Balx, Bog'dod, Shom kabi shaharlar Sharq olimlari hamkorligining markazi bo'lib qoldi.

Markaziy Osiyo olimlaridan al-Xorazmiy, Abunasi Forobiy, Ahmad Farg'oni, Ibn Sino, Aburayhon Beruniy va boshqalar jahon ilm-fani xazinasiga bebaho ulush qo'shdilar. Shuningdek, Abdulloh ibn Muslim Marvaziy Dinovariyning «Kitob-ul-maorif», «Kitob-ush-she'r va-sh-shuaro»si, tarixchi Abusaid Gardiziyning «Zayn-ul-axbor», Bayhaqiy, Narshaxiy, matematik va astronom Abdulmajid Xo'jandiy, astronom Muhammad Balxiy, huquqshunos Burhoniddin Al-Marg'inoniy, tilshunoslar Abulqosim Zamaxshariy, M.Qoshg'ariylar asarlari ham mashhur bo'ldi.

3.2. Markaziy Osiyoda arab tilidagi badiiy ijod, As-Saolibiy va uning tazkirasi haqida. X-XII asrlarda badiiy adabiyot ham rivojlandi. Arab, fors-tojik va turkiy tilda badiiy asarlar yaratildi. Bu davr adabiyoti haqida nishopurlik olim, yozuvchi, adabiyotshunos va tilshunos, tarixchi Abu Mansur as-Saolibiyning «Yatimat ad-dahr fi mahosini ahli al-asr» («Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi»)nomli tazkirasi boy ma'lumot beruvchi muhim manba sanaladi.

Asli Nishopurlik bo'lgan Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy (tulki terisidan po'stin tikib sotish bilan shug'ullanganligi uchun shu laqabni olgan) 992-993 yullarda Buxoroga kelib bir necha oy yashagan. Keyinchalik Xorazm, Jurjon, G'znada yashab, 1038-yilda Nishopurda vafot etgan. As-Saolibiy o'z davrining anchayin iste'dodli shoiri hamda til, adabiyot va tarix ilmlariga oid ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. Jumladan uning «Latoyif al-maorif», «Shamsul adab fi iste'mol al-arab», «Til qonunlari», «Ijnos al-tajnis» (Tajnisning turlari) kabi jami 50 nomdagi kitobi turli fondlarda saqlanadi.⁴ As-Saolibiyning eng mashhur asari «Yatimat ad-dahr» tazkirasidir.

Tazkira 995-1000 yillar mobaynida yozib tugatiladi. Asar to'rt qismdan tarkib topgan bo'lib, uning har bir qismi o'n bobga ajratiladi. Asarda jami X-XI asr boshlarida yashab ijod etgan 415 ta arabiynavis shoirlar haqida ma'lumot berilgan

⁴ Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr fi mahosini ahli al-asr. –Toshkent: Fan, 1976. Qarang: I.Abdullaevning kirish maqolasi, 11-21-betlar).

Tazkiraning to'rtinchi qismi "Xuroson va Movarounnahr ahlining fozillari haqida" bo'lib, unda 124 ta shoir tilga olinadi. Mazkur qismning dastlabki uch bobi Buxoroning o'zida yashab ijod etgan 47 shoirning hayoti va ijodiga doir qaydlardan iborat. 4-bobi Xorazmda yashab ijod etgan yeti shoir haqida ma'lumot beradi. Asarda keltirilgan Movarounnahr va xurosonlik shoirlarning she'rlari qasida, vasf, hajv, marsiya, masnaviy, g'azal, urjuza janrlariga mansubdir.

3.3. X-XII asrlarda fors-tojik tilidagi adabiyot, uning shakllanish omillari:

X-XII asrlarda fors-tojik tilidagi adabiyot ham taraqqiy etdi. Ro'dakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Robia, As'adi Tusi, Faxriddin Gurgoniy, Nosir Xisrav, Umar Xayyom, Am'aq Buxoriy, Rashidaddin Vatvot, Xoqoniy Shervoniy, Nizomiy Ganjaviy kabi insoniyat madaniy merosiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlar yetishib chiqdi.

Bu davrda turli adabiy janrlar shakllanib bordi. Lirikada qasida, g'azal, ruboiy, qit'a, marsiya, munozara va boshqa janrlar, turli mavzudagi dostonlar vujudga keldi. Nasr sohasida Abulmu'ayyad Balxiy («Shohnoma», «Gershaspnoma»), Homididdin Balxiy («Maqomoti Homidiy») kabilarning asarlari, adabiyotshunoslik sohasida Ar-Roduyoniy («Tarjimon-ul-balog'a»), Rashiddin Vatvot («Hadoyiq-us-sehr»-«Sehrlar bog'i»), Nizomiy Aruziy Samarqandiy («Chahor maqola») asarlari yuzaga keldi.

3.3.1. Abu Abdullo Ro'dakiy as-Samarqandiy.

"Odam ush-shuaro" (Shoirlarning Odam atosi) yuksak unvoniga sazovor bo'lgan Abu Abdullo Ja'far Muhammad Ro'dakiy nafaqat fors-dariy adabiyotining balku umuman musulmon sharqi adabiyotining rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk so'z san'atkorlaridan biridir. Uning shaxsiyatiga oid ma'lumot, fikr va munosabatlar Sharqda yaratilgan ko'plab tarixiy manba va tazkiralarda adabiyotshunoslikka oid asarlarda keltirilgan bo'lsa-da, ular asosan rivoyaviy xususiyatga ega bo'lib, tarjimai holiga doir aniq ma'lumotlar juda oz.

Ro'dakiy melodning 858 yilida Samarqand shimolidagi qadimiy qishloqlardan bo'lgan Panjrudda tavallud topgan.⁵ U favqulodda iste'dod egasi bo'lib, sakkiz yoshida Qur'onni yod olgan va juda chiroyli qiroat bilan o'qigan. Ro'dakiy Samarqand madrasalarida tahsil olgan. Diniy va dunyoviy ilmlardan tashqari musiqa va she'riyat ilmini ham puxta egallagan. Uning chang asbobini mukammal egallaganligi o'z she'rlarida ham e'tirof etiladi:

⁵ Ro'dakiy tarjimai holiga oid ma'lumotlar X.Mirzozodaning kitobidan olindi. Qarang: X.Mirzozoda. Tarixi adabiyoti tojik (Az davrai qadim to asri XIII). – Dushanbe: Maorif, 1987.

Ro'dakiy chang bigriftu navoxt,
Boda andoz, k-o' surud andox.

(Rodakiy (qo'liga) chang olib chala boshladi. (Soqiy) boda quyginki u qo'siq (quya) boshladi).

Madrasa tahsili davomida u somoniy hukmdorlar nazariga tushib, dastlab Samarqand hokimi Nasr ibn Ahmad dargohida, so'ngra esa Buxdoroda Ismoil somoniy saroyida "malik ush-suaro" vazifasini bajargan. U somoniy hukmdorlar Ahmad ibn Ismoil, Nasr II ibn Ahmad hukmronligi davrida ham Buxoroda bolib ham moddiy ham ma'naviy ma'noda yuksak martabaga ega bolgan. Bir baytida yozadi:

Az xaru polik on joe rasidam, ki hame,
Mo'zayi chini hamexohamu aspi tozi.

(Yalang oyoq eshak mingan holatdan shu darajaga yetdimki, Xitoy etigi va tozi otni istayapman).

Shoir Unsuriy Ro'dakiyninng "Kalila va Dimna" tarjimasi uchun qirq ming dirham olganligini eslab o'tadi. Uning somoniylar saroyidagi mavqei ortib borishi zamondosh shoirlar orasida salbiy munosabatlarga ham sabab bo'lgan:

Agar ba davlat bo Ro'dakiy na hamsonam?
Ajab makun, suxan az Ro'dakiy na kam donam...

Hamexaridu hamerext beshumor diram,
Ba shahr har ki yake turki norpiston bud.

Avfiyninng tazkirasida aytilishicha, shoirninng ikki yuzta xizmatkori bo'lib, uning yukini to'rt yuz tuyaga yuklashgan. Jomiy ham bu ma'lumotni tasdiqlaydi:

Ro'dakiy on ki dur hamesufti,
Madhi samoniyon hamegufti.
Silai she'rhoi hamchu durash,
Bud dar borai chorsad shuturash.

Nizomiy Aruziy Samarqandiyninng "Chahor maqola" kitobida Ro'dakiy hayotidan olingan bir hikoyat mavjud bo'lib, unda **"Bo'yi jo'yi mo'liyon oyad hame"** misrasi bilan boshlanuvchi mashhir qasidaninng yaratilish tarixi bayon qilinadi.⁶

Manbalarda qayd etilishicha, Somoniylar saroyidagi bir qator mutafakkirlar qatori Ro'dakiy ham karmatiylik va ismoiliylik (shia mazhabidagi oqimlar) oqimi ta'sirida bo'lgan. Nasr II ning vafotidan keyin o'g'li Nuh ibn nasr Buxoroda diniy islohotlar o'tkazilib bu oqim vakillarini ta'qibga oladi. Ro'dakiynining mol-mulki

⁶ Nizomiy Aruziy Samarqandiy. Nodir hikoyatlar. – T.: G'.G'. nomidagi Adabiyot va san'at, 1985.32-35-betlar.

musodara qilinib, barcha mansab va imtiyozlardan mahrum qilinadi. U 938-yilda vataniga qaytadi. Shoir bir baytida vataniga kekxa, piyoda, darvesh holatida qaytganligini eslaydi:

Pisand boshad mar xojaro pas az dah sol,
Ki boz gardat piru piyodavu darvesh.

Ro'dakiy 941-yilda 83 yoshida o'z qishlig'ida vafot etgan.

Shoir Idrisiy "Al-ansob" asarida Ro'dakiy Ro'dak qabristoni tashqarisida dafn etilgani, qabri ziyoratgohga aylanganligini qayd etadi va quyidagi baytni keltiradi:

Kunun zamona digar gashtu man digar gashtam,
Aso biyor, ki vaqti asovu anbon bud.

Ro'dakiyning ko'zi ojizligi masalasida ikki xil fikr mavjud. Avfiy Buxoriy uni tug'ma ojiz ("ko'ri modarzod") deb aytadi.

Undan keyim malik ush-shuaro unvonini olgan Abuziroa "ko'r", Daqiqiy "shoiri tiyrachashmu ravshanbin" (ko'zi xiyra qalb ko'zi yorug') deya ta'riflaydi. Biroq Najotiy Nishopuriyning 1309-yilda yozilgan asarida Ro'dakiyning umri oxirida ko'ziga nil tortilganligi qayd etiladi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda shu fikr ma'qullanadi. Zero u yaratgan ajoyib tasvirlarni faqat o'z ko'zi bilan ko'rgan kishigina yarata olishi e'tirof etiladi.

XII asr shoiri Rashidiy Samarqandiy Ro'dakiy adabiy merosi haqida shunday yozadi:

Gar sariy yobad ba olam kas ba neko'shoiriy,
Ro'dakiro bar sari on shoiron zebad sariy.
She'ri o'ro man shumurdam sezdah rah sad hazor,
Ham fuzun oyad, agar chunon ki boyad bishmari.

(Birov dynyodagi yaxshi shoirlar ro'yxatini tuzsa, ularga bosh bo'lish Ro'dakiyga yarashadi. She'rlarini sanab chiqdim o'n uch marta yuz ming. Sanab ko'rsang balkim undan ham ortiqdir).

Uchinchi misradan ikki xil ma'no hosil bo'ladi, ya'ni "o'n uch marta yuz ming (1300000)" yoki "o'n uch marta sanadim yuz ming (100000)" misra. Avfiy uning "yuz kitobi" ("sad daftar"), Hamdulloh Mustavfiy "Tarixi guzida" asarida uning merosini yetti yuz ming bayt deb baholaydi. Biroq bizga qadar Ro'dakiyning 4000 misraga yaqin she'ri yetib kelgan.

Abdulg'ani Mirzoyev tomonidan nashr ettirilgan "Osori Ro'dakiy"⁷ kitobida shoirning turli manbalardan to'plangan 1840 bayt (3680 misra) she'ri jamlangan. Bular orasida "Qarilikdan shikoyat", "Modari may", "Bo'yi jo'yi Mo'liyon oyad hame" ded nomlanuvchi qasidalari, marsiya, g'azal, ruboiy, qit'a janridagi

⁷ Abu Abdullo Ro'dakiy. Osori Ro'dakiy. – Stalinobod, 1958.

she'rlari, "Kalila va Dimna" (asar o'n ikki ming bayt ekanligi ma'lum, bizgacha ming misraga yaqini yetib kelgan) va "Sindbodnoma" tarjimalaridan parchalar yetib kelgan.

In jahon poku xubkirdor ast,
On shinosad ki dilash bedor ast...
Nekbaxt on kase, ki dodu bixo'rd,
Sho'rbaxt on ki o' nadodu naxo'rd.

3.3.2. Abulqosim Firdavsiy.

Abulqosim Firdavsiy milodiy 941-yili Xurosonning hozirgi Eron Islom Respublikasi hududidagi qadimiy Tus shahri yaqinida joylashgan Boj qishiog'ida bog'bon oilasida tug'ildi. Bo'lg'usi shoir Tus va Nishopur shaharlaridagi madrasalarda ta'lim olgan. Katta ilm egasi bo'lib yetishgani uchun ham uni zamondoshlari «hakim», ya'ni donishmand, faylasuf deb ulug'lashgan. Ma'lumotlarga qaraganda, u ko'plab she'rlar yozgan, «Yusuf va Zulayho» dostoni ham bo'lgan. Biroq ulardan birortasi bizgacha yetib kelmagan.

Firdavsiy hayoti somoniylar hukmronligining so'nggi yillari hamda g'aznaviylar hukmronligi davriga to'g'ri keladi.

Somoniylar hukmronligi davrida Turon va Eron xalqlari kuchli ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotni boshdan kechirdi. O'z-o'zidan, milliy o'zlikni anglashga ishtiyoq kuchaydi. Somoniy hukmdorlar topshirig'i va qo'llab-quvvatlashi bilan Turon-u Eronning ming-ming yillik shonli tarixini tiklash, afsona va rivoyatlarni, tarixiy voqea-hodisalar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tartibga keltirish ishlari avj oldirildi. Maqsad shu asosda yirik bir she'riy kitob - «Shohnoma» bunyod etish edi. Bu vazifa taniqli shoir Abu Mansur Daqiqiyga topshirildi. Biroq uning fojiali o'limi tufayli ming bayti bitilgan asar oxiriga yetmay qoldi. Mazkur voqeadan ellik yil o'tib Firdavsiy chala qolgan ishni davom ettirishga kirishdi.

S.Ayniyning ma'lumot berishicha Firdavsiy moddiy ahvolini yaxshilash maqsqdida markaziy shaharlaridan bo'lgan G'aznaga keladi. Shunda o'z davrining mashhur shoirlari Unsuriy, Asjadiy va Farruxiy uni badihago'ylikda imtihon qiladi.

Unsuriy:

Chun orazi tu moh naboshaq ravshan
(Oy sening orazingdek ravshan emas)

Asjadiy:

Monandi ruxat gul nabuvad dar gulshan

(Sening yuzingdek (go'zal) gul chamanda topilmaydi).

Farruxiy:

Mijgon-t hame guzar kunad az javshan
(Kipriging (o'qlari) sovutni ham teshib o'tadi).

Firdavsiy:

Monandi sinoni Giv dar jangi Pashan
(Pashan jangidagi Givning nayzasi kabi).

Firdavsiyninng she'riy iqtidori va eng muhimi qadimiy afsonalardan yaxshi xabardor ekanligini ko'rib shoir Unsuriy o'ziga topshirilgan vazifa – “Shohnoma”ni yakunlashni undan iltimos qiladi.

Firdavsiy 100 ming misradan ziyod hajmga ega bo'lgan epopeyani yaratish uchun qariyb 25 yil umrini sarflaydi. Biroq bu orada somoniylarning siyosiy mavqei pasayib, ularning o'rnini g'aznaviylar egallaydi. Shoir asarini bu sulola talablariga javob beradigan holatga keltirish uchun yana 10 yil ishlaydi. Bu haqda “Shohnoma”da shunday satrlar bor:

Chu soli man omad ba haftodu yak,
Hama zeri sher andar omad falak.
Sivu panj sol az saroyi sipanj,
Base ranj burdam ba ummedi ganj.
Chu barbod dodand ranji maro,
Nabud hosile sivvu panji maro.
Kunun umr nazdiki hashtod shud,
Umedam ba yakbora barbod shud..

Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “Chahor maqola” asarida keltirilgan hikoyat⁸ da aytilishicha, “Shohnoma” yozilayotgan vaqtda Firdavsiy Tus hokimi Qutayba tomonidan soliqlardan ozod etilgan. Asar yozib bo'lingach kotib Ali Daylam yetti jild qilib ko'chirgan. Asarni olib poytaxt G'aznaga kelgan. Biroq dostonni shohga taqdim etgan xoja Ahmad Hasanning saroyda dushmanlari mavjud bo'lib, ular Firdavsiyni mu'taziliy mazhab va rofiziylar (shialik)da ayblashadi. Mahmud G'aznaviy bundan ta'sirlanib shoirga 20 ming dirham yuboradi. Bundan qattiq ranjigan Firdavsiy yuz baytlik masnaviy yozib, Sulton Mahmudni hajv qiladi. Biroq Tabariston hokimi Sahriyor bu masnaviyni shoirdan sotib olib yo'qotgan ekan. Undan olti baytgina saqlanib qolgan. Jumladan:

Otasi bo'lsa ham hatto Shahriyor,
Asli quldan chiqmas yaxshilik zinhor.
Yaxshilik bo'lganda podsho ishi,

⁸ Nizomiy Aruziy Samarqandiy. Nodir hikoyatlar.- T.: Adabiyot va san'at, 1985. 47-52-betlar.

Lozim edi menga taxtin berishi.
 Zotida ulug'lik bo'lmagach uni,
 Qanday bilsin ulug' kishi qadrini.

Mahmud G'aznaviy hind safaridan qaytayotganda yo'lda mustahkam qal'aga bekinib olgan bir isyonchi borligi ma'lum bo'ladi. U shohga bo'y sunish haqidagi taklifni rad etgach, Mahmud yonida turgan xoja Ahmad Hasandan maslahat so'raydi. U esa ushbu baytni aytadi:

Murodimga loyiq bo'lmasa javob,
 Menu gurzi, maydon va Afrosiyob.

Mahmud kishida mardlik uyg'otuvchi bu satrlar muallifi Firdavsiy ekanligini bilgach, qilgan ishidan afsus chekadi hamda G'aznaga qaytgach shoirga 20 ming dinor yuboradi. Biroq xoja oltinlarni olib borganda Firdavsiyning jasadi dafn etilayotgan edi. Hadyani qizi ham qabul qilmagach, uning hisobiga masjid quriladi.

Manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda Firdavsiyning bir qizidan tashqari bir o'g'li ham bolgan Biroq u shoir tirikligidayoq yosh vafot etgan. Bu haqda "Shohnoma"da quyidagi satrlar mavjud:

Magar bahra giram man az pandi xesh,
 Barandesham az margi farzandi xesh.
 Maro bud navbat, biraft on javon,
 Zi dardash manam chun tani beravon.
 Hamexoham az dovari kirdgor,
 Zi ro'zi dehi pok parvardigor.
 Ki yaksar bubaxshad gunohi turo,
 Duraxshon kunad tiragohi turo.

Firdavsiyning mazhabiy qarashlari haqidagi fikrlar yetarli asosga ega emas. Zero "Shohnoma"ning muqaddimasida u shunday yozadi:

Ba nomi xudovandi jonu xirad,
 K-az in bartar andesha bar nagzarad.
 Xudovandi nomu xudovandi joy,
 Xudovandi ro'zidehu rahnamoy...
 Ba guftori payg'ambare roh jo'y,
 Dil az tiyragiho bad-in ob sho'y.
 Nabi oftobu sahobon chu moh,
 Ba ham bastani yakdigar rast roh.

"Shohnoma"da Eron va Turonning qariyb 4 ming yillik (Iskandargacha 3148 yil) tarixi qalamga olingan. Eng qadimgi davrlar haqida forsiy qabilalar to'qigan,

xalq xotirasida saqlanib, tildan tilga o'tib kelayotgan turli avfsonalar va qahramonlik dostonlari berilgan. shuningdek, Eronning Iskandar Zulqarnayndan (eramizdan oldingi VI asrdan) to sasoniy hukmdor Yazdigard III arablar tomonidan qatl etilgan milodiy 651-yilgacha bo'lgan tarixi yoritilgan. Shu tariqa dostonda Eronda hukm surgan to'rt sulola — peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sasoniylar davriga oid 50 hukmdor hayoti voqealari bayon qilinadi.

Dostonning tanqidiy matni 1964-68 yillarda Dushanbeda "Irfon" nashriyotida chop etilgan (nashrga tayyorlovchilar K.Ayniy, Z.Ahroriy, B.Sirus, A.Devonaqulov). Kitob 9 jildidan iborat (52142 bayt, 104284 misra).

Eron qahramonlik eposini bir kitobga yig'ish masalasini arab-islom xalifaligigacha bo'lgan III - VII asrlarda hukmronlik qilgan so'nggi Eroniy sulola — sasoniylar ko'targan, ular amri bilan pahlaviy (eski fors) tilida «Xudoynoma» («Hukmdorlar haqida kitob») degan maxsus kitob yozilgan edi. Hatto, u arab tiliga tarjima ham qilingan. Ammo asarning asliyati ham, tarjimalari ham bizgacha yetib kelmagan. X asrda bu masala yana qo'zg'aldi. Abul Muayyad Balxiy nasriy yo'l bilan shohlar tarixini bitgani, to'rt olim birgalikda «Shohnomayi Mansuriy» nomi bilan mashhur bo'lgan nasriy kitob yozgani, Abu Ali Muhammad ibn Ahmad Balxiy, shuningdek Mas'ud Marvaziylarning (966-yildan oldin yaratilgan) she'riy «Shohnoma»lari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Ana shu ko'p asrlik intilishlarni Firdavsiy oxiriga yetkazdi. Juda katta epik asar bunyod etdi. Mantiqan bilinib turibdiki, Firdavsiy bu masalada o'zigacha yaratilgan, qo'lga kiritish imkoni bo'lgan barcha manba va materiallardan unumli foydalangan, ularni puxta o'rganib tartibga solgan, tahlil qilgan, ustalik bilan o'z asari tarkibiga kiritgan.

«Shohnoma» aruzning mutaqoribi musammani mahzuf (yoki maqsur), ya'ni «fauvlun fauwlun fauwlun faul (yoki fauwl)» vaznida yozilgan. Hukmdorlar timsollari asosida yaratilgan asarlar aksaran shu vaznda bitilgan. Ba an'ana forsiy va turkiy dostonchilikda «Shohnoma»dan keyin yanada keng quloqch yoydi. «Shohnoma»ni shoir 35 yil mobaynida yaratdi.

Yillar, asrlar davomida bu asarning turli nusxalari paydo bo'ldi, ba'zi qissalari asosida xalq kitoblari ham yuzaga keldi. XV asr birinchi yarmida temuriy hukmdor, Mirzo Ulug'bekning akasi Boysunqur Mirzo Hirotda mutaxassis olimlarni to'plab, «Shohnoma»ning 40 dan ortiq nusxasini qiyosiy o'rganib, mukammal holga keltirilgan yagona ilmiy-tanqidiy matn tuzishga buyurdi.

Bu yirik asarning bosh g'oyasi, asosiy g'oyalari va boshqa g'oyalari mayjud. Har bir qissa yo hikoyada, rivoyat yo voqea tasvirida, kattadir-kichikdir, bir muayyan g'oya ilgari surilgan. Biroq shu bo'laklardan yig'ilib keladigan bir bosh

g'oya ham bor. Ya'ni barcha qism va boiaklar birgalikda amalda ana shu yetakchi g'oyani yuzaga chiqarishga xizmat qilgan.

Bosh g'oya - vatanni ulug'lash, xalq qudrati va salohiyatini ko'z-ko'z qilish elning yetuk farzandlari qadrini ko'tarish, shu tariqa o'quvchiga kuchli vatanparvarlik hissini singdirish. Ana shu bosh g'oya atrofida markazlashgan davlat qurish, insonparvarlik, mehnatsevarlik, tinchlikparvarlik, adolat, ezgulik, halollik, mardlikni sharaflab, qonli urushlarni qo'zg'ash, yovuzlik, kishilarga jabr-zulm o'tkazish, adolatsizlik, munofiqlikni qoralash g'oyalari ham ilgari suriladi.

«Shohnoma»ning bir xususiyati shuki, u forsiyzabon xalqning islomdan oldingi davri hayotini qalamga oladi. Shuning uchun unda islomiy ruh yaqqol sezilmaydi. «Shohnoma», garchi forsiy tilda bitilgan bo'lsa ham, Eron va Turon xalqlari uchun mushtarak badiiy meros hisoblanadi. Birinchidan, unda ana shu ikki ko'hna zamin xalqi tarixiga oid voqea-hodisalar qalamga olingan. Ikkinchidan, mana, o'n bir asrdiki, u shu yurtlarda asliyatda o'qiladi. Uchinchidan, bu yirik milliy badiiy yodnoma yaratilgan davridan buyon o'zbek adabiyotini boyitib keladi.

Bu asardan qismlar XVIII asrda Shoh Hijron, Xomushiy, XIX asrda Nurmuhammad Buxoriy, Ochildimurod Miriy, XX asrda Shoislom Shomuhamedov, Hamid G'ulom, Nazarmat, Jumaniyoz Jabborovlar tomonidan o'zbekchaga tarjima qilindi. Keyingi tarjima uch jildda 1975, 1976, 1977-yillari chop etildi. Biroq asar hanuzgacha to'liq tarjima qilinganicha yo'q.

Forsiy-turkiy dostonchilik, xususan, xamsanavislikni Firdavsiy ta'siridan xoli holda tasavvur qilish mumkin emas. Zero xamsa tarkibidagi uchta sujet (Xusrav-Shirin-Farhod, Shoh Bahrom, Iskandar) bevosita shu asar ta'sirida maydonga kelgan. Bu jihatdan, ayniqsa, «Xamsa»ning Iskandar Maqduniy hayoti asosida bitiladigan beshinchi dostoni tamoman «Shohnoma» vazni va yo'nalishida ekani bilan ajralib turadi.

Baland saroy qurib qilgandan obod,
Yaxshidir bir g'arib dilin qilsang shod.

4-MAVZU:

YUSUF XOS HOJIB VA UNING “QUTADG’U BILIG” DOSTONI

4.1. Qoraxoniylar davlati va turkiy tildagi badiiy ijodning shakllanishi.

X-XII asrlar turkiy xalqlar adabiyoti tarixida alohida o'rin egallaydi. Mazkur davrda arab xalifaligi o'rnida birin-ketin yuzaga kelgan mahalliy davlatlar: somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohlar davlati Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning markazlari bo'lgan Samarqand, Buxoro, Qashg'ar, Bolasog'un, G'azna, Nishopur, Isfahon, Xorazm kabi shaharlar madaniy markaz maqomiga ega bo'lib, ularda ilm-fan, san'at va madaniyat rivojlandi. Aynan turkiy til va bu tildagi adabiyotning ravnaq topishi qoraxoniylar davlati bilan bog'liq.

Qoraxoniylar davlati X asr boshlarida Yettisuv atrofidagi turkiy qabila va elatlarning birlashishidan yuzaga kelgan sulola bo'lib, markazi Bolasog'un (Qo'z o'rdu) va Qashg'ar (O'rdukent) shaharlari edi. Asr oxiriga borib ular janubiy g'arbiy hududlarni ham somoniylardan tortib oldi, ma'lum muddat Samarqand qoraxoniylarning g'arbiy poytaxtiga aylandi. Qoraxoniylar davlatida turkiy tilga alohida e'tibor qaratildi, bu tilda ijod qilish rag'batlantirildi. Natijada Qashg'ar turkiy adabiy tilning markaziga aylandi, hatto turkiy tilga nisbatan “qoshg'ariy til” atamasi qo'llana boshladi (“Hibat ul-haqoyiq”). Qoraxoniylar qo'l ostidagi hududlarda yagona adabiy til shakllana boshladi. XI asrga kelib Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Ahmad Yygnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Ahmad Yassaviy hikmatlari kabi turkiy adabiyotning nodir namunalari maydonga keldi.

4.2. Yusuf Xos Hojib hayoti, "Qutadg'u bilig" dostonining qo'lyozmalari, o'rganilishi, nashrlari. Qoraxoniylar davri adabiy muhitining dastlabki yirik vakillaridan biri Yusuf Xos Hojibdir. Muallifning ismi Yusuf. U haqdagi ma'lumotlar juda oz. «Qutadg'u bilig»da ayrim ma'lumotlarga uchraydi. Doston ijriy **462 yilda (1069-1070)** on sakkiz oy davomida yozib tugatilgan:

Yil altmish iki erdi to'rt yuz bila,
Bu so'z so'zladim man tutub jan sura.
Tugal o'n sakiz ayda aydim bu so'z,
O'durdum, adirdim so'z evdib tera.

Uni yozayotgan vaqtda shoir 50 va 60 yosh oroligida bo'lgan:

Tegurdi manga elgi ellik yashim,
O'qir altmish emdi manga kel teyu.

Asar muqaddimasida muallif haqida shunday ma'lumot beriladi: «Bu kitobni tasnif qilg'li Balasag'un mavludlig' parhiz idisi er turur. Ammo bu kitobni Qashg'arda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg'achxon uskinga kekurmish, malik ani ag'irlab, ulug'lab o'z Xas Hojibliqi anga bermish turur, aning uchun Yusuf ulug' Xas Hajib teb ati javi yozilmish turur». Kitobda tilga olingan xoqon **Tavg'ach ulig' Bug'ra Qoraxon 1075-1103** yillar davomida qoraxoniylar davlatini boshqargan. Asar unga bag'ishlangan. Qoraxoniylar davrida mamlakat mulklarga taqsim qilinib idora qilingan. Mana shu ulushlarning boshida turgan hukmdorlar Eligxon nomi bilan atalgan. Eligxonlar ustidan nazorat qiluvchi oliy hukmdor esa Tavg'achxon nomi bilan yuritilgan. Markazlashgan, yagona davlatni barpo etish, uni mustahkamlash, idora qilish, uluslar va ulus ichidagi begliklar o'rtasidagi nizolarga barham berish Tavg'achxonlarning ezgu orzusi edi. Xuddi ana shunday davlatni idora qilish usulini, siyosatini, qonun-qoidalarini, rasmu odatlarini, axloq me'yorlarini o'zida mujassamlashtirgan nizomnoma, qomus sifatida «Qutadg'u bilig» yuzaga keldi. Yusuf Xos Hojib mana shu masalalarga javob berib, o'z asarini yaratar ekan, u bir tomondan, o'z davrining yirik olimi, fozili, donishmandi, faylasufi, shoiri, tarix, tib, riyoziyot, nujum va shu kabi boshqa fanlardan xabardor bo'lgan barkamol kishi sifatida, ikkinchi tomondan, yuqori tabaqa vakili, himoyachisi sifatida namoyon bo'ladi. Asar mazmuni muallifning arab va fors tillarini mukammal bilgan, bu tillardagi diniy, ilmiy, badiiy adabiyot bilan chuqur tanishgan, ayni paytda turkiy yozma adabiyot, xalq og'zaki ijodi bilan ham yaxshi tanish bo'lganini ko'rsatadi.

«Qutadg'u bilig» haqidagi dastlabki xabar XIX asrning birinchi choragida paydo bo'ldi. Bu asarning **1439 (843) yilda Hirotda uyg'ur yozuvi bilan Hasan Qara Sayil Shams tomonidan ko'chirilgan nusxasi Turkiyaning Tug'ot shahriga, bu erdan esa, 1474 (879) yilda Abdurazzoq Shayxzoda baxshi uchun Fanari o'g'li Qozi Ali tomonidan Istambulga keltirilgan.** Uni sharqshunos olim Hammer Purgshtall Istambulda sotib olib Vena saroy kutubxonasiga keltiradi. 1823-yilda fransuz sharqshunosi Jaubert Amedee «Osiyo» jurnalida asar haqida qisqa axborot va parcha e'lon qiladi. Shundan keyin g'rb ilmiy jamoatchiligida asar va uning muallifiga nisbatan qiziqish kuchayadi. 1870-yilda venger olimi Herman Vamberi «Qutadg'u bilig»ning eng muhim qismlarini «Uyg'ur tili obidalari» va «Qutadg'u bilig» nomi bilan nashr ettiradi. 1890-yildan boshlab bu asarni o'rganishga V.Radlov kirishadi. **1896-yilda «Qutadg'u bilig»ning arab yozuvi bilan ko'chirilgan ikkinchi bir nusxasi Qohirada topiladi.** Radlovning iltimosiga ko'ra sharqshunos Moris rahbarligida arab filologi tomonidan mazkur qo'lyozmadan nusxa ko'chirilib **1897-yilda** Rossiyaga yuboriladi. Ushbu

ko'chirmadan olingan fotonusxa O'zFAShI qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Radlov 1910-yilda asarni rus alfavitiga asoslangan to'liq transkripsiyasini nemis tiliga tarjimai bilan nashr qildiradi. Bu asarning arab yozuvi bilan ko'chirilgan uchinchi nusxasi 1913-yilda sharqshunos Valizoda tomonidan Namangandan Muhammadhoji Eshon Lolaresh ismli kishi uyidan topiladi. **1924 yilda Fitrat** bu nusxani oladi va Toshkent asosiy kutubxonasiga keltiradi. Bir yildan keyin "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalida Fitratning mazkur nusxa haqidagi ilmiy axboroti e'lon qilinadi. **1927-yilda** esa uning ayrim parchalari Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" qo'llanmasiga kiritiladi. Asar ustida, shuningdek, S.Malov, A.Valitova, V.Tomsen kabi sharqshunoslar jiddiy ilmiy izlanishlar olib brogan.

O'zbekistonda "Qutadg'u bilig"ning tanqidiy matni ilk marotaba 1971-yilda Q.Karimov tomonidan tabdili bilan birga nashr ettirildi.⁹ 1972-yilda ushbu kitob qayta nashr ettirildi. 1976-yilda Q.Karimovning "Ilk badiiy doston" nomli monografiyasi e'lon qilindi. 80-90-yillarda "Qutadg'u bilig" asari ustida yana bir olim B.To'xliyev barakali ilmiy izlanishlar olib bordi. Olim dastlab 1990-yilda so'ngra 2007-yilda (lotin yozuvida) dostonning soddalashtirilgan variantini nashr ettirdi, asarning turkiy she'riyat janrlari taraqqiyotidagi o'rni xususida monografiya va risolalar e'lon qildi.

2015-yilda Fazliddin Ravshanov dostonning hozirgi o'zbek tilidagi to'liq she'riy tarjimai (tabdili)ni nashr ettirdi (-Toshkent: Akadmashr, 2015).

4.3. Doston kompozitsiyasi, ramziy timsollar, asarning g'oyaviy mundarijasi. Hajman katta, badiiy jihatdan puxta bo'lgan «Qutadg'u bilig» **6407 bayt yoki 12814 misra** she'rdan iborat. Muallif o'z asariga «Qutadg'u bilig» deb nom beradi. Bu baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lim demakdir. Shoir shunday yozadi:

Kitab ati urdum «Qutadg'u bilig»,

Qutadsu o'qug'lika tutsu elig

(Kitob otini «Qutadg'u bilig» qo'ydim. O'quvchiga baxt keltirsin, qo'lidan tutsin).

Shu sababdandir kim, kitobni chinliklar «Adab ul-muluk» («Hukmdorlar odobi»), mochinliklar «Oyin-ul-mamlakat» («Mamlakatning tartib usuli»), sharqliklar «Zain-ul-umaro», («Amirlar ziynati»), eronliklar «Shohnomayi turkiy», turonliklar «Qutadg'u bilig», ba'zilar «Pandnomai muluk» («Hukmdorlar pandnomasi») deganlar.

⁹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Nashrga tayyorlovchi Q.Karimov). – T.: Fan, 1971. She'riy matnlar shu manbadan olingan.

«Qutadg'u bilig» asarining tanqidiy matni nasriy muqaddima (38 satr) va she'riy muqaddima (77 bayt) bilan boshlanadi. Mazkur qismlar mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, ularda asar muallifi haqida dostonning shuhrat qozonganligi, undagi asosiy timsollar mohiyati haqida ma'lumot beriladi. Mantiqan olganda bu qismlar asar yozilib, shuhrat qozongandan keyin kotib yoki noma'lum shaxs tomonidan kiritilgan. Shundan keyin sar fehrisi (mundariyasi) keltirilib dostonning asl matni boshlanadi.

Dostonning dastlabki 11 bobi muqaddima bo'lib hamd (Allohni ulug'lash), na't (Muhammad (a.s.) madhi), alqob (to'rt xalifa madhi), Yetti sayyora va o'n ikki burj, bilim, til, Tavg'ach Bug'roxon madhi, asarining yozilish sababi kabo boblarni o'z ichiga oladi (390 bayt).

Asosiy qism 58 bobni o'z ichiga oladi. Umumiy hajmi 5896 bayt. Xotima qismi uch bob - 2 qasida va bir masnaviydan iborat (121 bayt).

Doston asosan masnaviy she'riy shaklida yozilgan. Bo'lib aruzning mutaqoribi musammani mahzuf (fauvlun fauylun fauylun faul) va mutaqoribi musammani maqsur (fauvlun fauylun fauylun faul) vaznida yozilgan:

O'kush o'gdi birla tuman ming sano,
O'g'an bir bayatqa, angar yo'q fano.
v - - / v - - / v - - / v -

Asarining xotimasida hasbu hol mazmunidagi ikkita qasida berilgan. Bu boblar faqat qofiyalanishiga ko'ra emas (a a, b a, s a...) vazniga ko'ra ham asosiy qismdan farq qiladi. Ular mutaqoribi musammani solim (fauvlun fauylun fauylun fauylun) vaznida yozilgan:

Yurig'li bulutteg yigitlikni izdim,
Tubi yel kecharteg tiriglik tugattim,
Esizim yigitlik, esizim yigitlik,
Tuta bilmadim men seni terk qachittim.

Bundan tashqari asar tarkibida ko'plab alohida to'rtliklar mavjud bo'lib, ular ba'zan "she'r" sarlavhasi bilan beriladi, ba'zan esa ularning manbaiga ishora etiladi:

Mungar mengzatu aydi she'r ayg'uchi,
O'qig'il muni sen aya bilguchi:

Neku bar ajunda angar hiylasiz,
Neku hiyla bar kim angar charasiz.
Qamug' nengga hiyla etig chara bar,
Magar bu o'lumka o'lum hiylasiz. (226-bet)

Izoh: Birinchi baytda (masnaviy) to'rtlik muallifi (she'r ayg'uchi)ga ishora qilingan. Keyingi to'rt misra esa alohida to'rtlikdir.

«Qutadg'u bilig» o'sha davrda Qoshg'ardan Kaspiygacha bo'lgan keng maydonga yoyilgan barcha turkiy qabilalar uchun tushunarli bo'lgan «Bug'raxon tili»da yozilgan.

«Qutadg'u bilig»-adabiy asar, badiiy adabiyot numunasi. Asarning asosiy qahramonlari 4 timsoldan tashkil topgan:

Birisi ma adl-ul ko'nilik uza,
 Ikkinchi bu davlat qut iqbol tuza.
 Uchunchi xirad-ul ulug'lug' bila,
 To'rtinchi qanoat va afiyat bila.
 (Biri to'g'rilikka tayanch-Adolat
 Biri Davlat erur, u qutli g'oyat.
 Uchunchi-ulug'lik Aql ham Zako
 To'rtinchi-Qanoat erur bebaho).

Adolat hukmdor, Elig. Uning nomi Kuntug'di. U quyoshdek barchaga barobar nur taratadi. Ikkinchisi, Davlat-turkiyda Qut, u bosh vazir, uning nomi Oyto'ldi. Asarning bosh qahramoni O'gdulmish – Aql va Bilimdir. To'rtinchi timsol-Qanoat. Uning ismi O'zg'urmish. Olimlarimiz fikricha, bular islom ma'naviyatining bosh timsollari edi: O'zg'urmish obrazi tarkidunyo qilgan, zohidlik va taqvonni yashash tarziga aylantirgan so'fiylarni anglatadi. Asarda tasavvufiy g'oyalar ham ko'zga tashlanadi.

Muallif din va shariat yo'lini unutmashlikka chaqiradi. Uning dunyoqarashida Farobiy, Ibn Sinolar dunyoqarashining ta'siri seziladi. U yetti sayyora, o'n ikki burj haqida gapiradi. Yusuf Xos Hojibning davlat, uning qurilishi, hokimiyatni boshqarish, moddiy, siyosiy, ijtimoiy qarashlari asardagi to'rt obrazning o'zaro munozara, bahs, savol-javoblari orqali namoyon bo'ladi.

Muallif barcha ijtimoiy tabaqa, toifa va guruhlar, ularning jamiyatdagi mavqelari, o'rni, yashash sharoitlari, ongi, ruhiyati, kasbu korlari kabilar haqida batafsil fikr yuritadi. U odamlarni ikki yo'nalish asosida guruhlariga ajratadi:

1.Moddiy boylikning taqsimlanishi, mulkka egalik jihatidan. Bunga ko'ra uchga ajratiladi: a) boylar, b) o'rta hollar, s) chig'aylar (kambag'allar).

2. Asosiy mashg'ulotlari, kasblari, ijtimoiy mehnatning jamiyat a'zolari o'rtasida taqsimlanishi jihatidan. Bu jihatdan kishilar hukmdorlar, amaldorlar, mansabdorlar, saroy kishilari, avom alaviylar (Ali xonadoniga mansublar), olim va donishmandlar, tabiblar, afsunchilar, azayimxonlar, tush ta'birlovchilar,

yulduzchilar, shoirlar, savdogarlar, chorvadorlar, hunarmandlar, qashshoqlar va boshqalarga bo'linadi.

Muallif olimlar haqida alohida gapiradi. Ularni ulug'laydi. Ularga ozor bermaslikni, moddiy jihatdan quvvatlashni aytadi:

Yo'q ersa ajunda bu alim bo'gu,
Tikib unmagay erdi yerda yegu.
Ularni qatiq sev, ag'irla so'zin,
Biliglarini o'gran o'kush azin.
Ular ilmi bo'ldi budunga yo'la,
Yarusa yo'la tunla azmas yo'l-a.

Mazmuni:

Yo'q ersa jahonda gar olim, dono,
Ekib unmagay erdi yerda dona.
Ularni juda sev, qadrla so'zin
Bilimlarin o'rgan ko'pin yo ozin.
Ular ilmi xalqqa bo'ladi chiroq,
Chiroq yonsa, tunda adashmas oyoq.

Shoirlar juda ulug' kishilar, ular kishilarni ham madh, ham fosh qiladilar. Ularning tillari qilichdan o'tkir, xotiralari nozik va chuqur:

Yana keldi shoir-bu so'z terguvchi,
Kishin madh etuvchi yo fosh qilguvchi.
Qilichdan ham o'tkir bularning tili,
Va qildan nozikroq xotirlash yo'li.
Nozik so'z, kalom kim eshitay desa,
Bulardan eshitsin, qilar zavq rosa...

Yusuf Xos Hojib dehqonlarga, chorvadorlarga ham yuqori baho berdi. Ularning mehnati halol, sharaflil, barchaga manfaatli ekanligini ta'kidlaydi

Yusuf Xos Hojib o'z zamonasining donishmandi, turli ilmlardan bahs yuritishga qodir olim va fozil kishisi,, faylasufi edi. Shuning uchun ham u o'z asarida ilm-fan, bilim-zakovat, ma'rifat targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. U kishilarni tinmay ilm olishga, bu ilmni amalda tadbiiq qilishga undaydi. U ilm ahlini qadrlashga chaqiradi:

O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik olar.
Bilimsiz kishilar bo'lar ko'r misol,
Bilimsiz, bilimdan kelib hissa ol.
Hamma xayrli ishlar bilim nafidur

Bilim hatto osmon sari yo'l ochur.

«Qutadg'u bilig»da muallif odob-axloq masalalariga alohida to'xtaladi. U turli tabaqalar o'rtasidagi munosabat, axloq, muomala, odamgarchilik, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, adolat, insof, saxovat, aql, zakovat kabi xususiyatlarni yolg'onchilik, insofsizlik, egrilik, bemehrlik, zulm, nomardlik, johillik kabi illatlar bilan qiyoslaydi:

Yomonlikni qilma, e xulqi suzuk,
Bu kun ezgu ish qil, fe'ling qil tuzuk.
Yomon ishni qilma, u koni zarar,
Yomonlik ilon bir, seni u chaqar.

Barcha odob-axloqning boshi tildir. Tilning foyda va zarari behisobdir. Oz so'zlash, ko'p tinglash kerak. Qizil til qora boshning yovi:

Kishin til ulug'lar, topar qut kishi,
Kishin til tubanlar, yorilar boshi.
So'zing ehtiyot qil, boshing ketmasin,
Tiling ehtiyot qil, tishing sinmasin.
Talay so'zlama so'z, biroz so'zla oz,
Talay sir-sinoatni oz so'zda yoz.
Qora bosh yovi bu qizil til erur,
Talay bosh yegan u, yana ham yeyur.

Muallif farzand tarbiyasi, o'g'il-qiz o'stirish, ziyofatga borish, u yerda o'tirish, ovqatlanish odobi haqida o'git beradi.

«Qutadg'u bilig»da yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodining chuqur ta'siri seziladi. Muallif bu asarni yozishda epik asarlardan, tarixiy va diniy adabiyotlardan o'rinli foydalangan. Asarda «Shohnoma»ning ta'siri seziladi. Unda Iskandar, Kisra, Qaysar, Qorun, Shaddod, Od, Faridun, Zakhok kabi qirqqa yaqin obrazlar uchraydi. Alp Er To'nga – Afrosiyob timsoli ham tilga olinadi. Asarda ko'pgina maqollar, hikmatli so'zlar ko'zga tashlanadi.

4.4. Asarning badiiy xususiyatlari. «Qutadg'u bilig asarining muhim jihatlaridan biri shundaki, unda o'z davri adabiy muhiti haqida tasavvur uyg'otuvchi detallar ham mavjud. Muallif ko'p hollarda fikrini tasdiqlash uchun zamondosh yoxud oldinroq yashagan shoirlar ijodidan namunalar keltiradi. Biroq ularni muallif nomi bilan emas, “shoir so'zi”, “hakim aymishi” tarzida keltiradi. Mazkur to'rtliklarning aksariyati falsafiy-axloqiy va ijtimoiy mavzularda. Bu esa shoir yashagan davrda shu turdagi ijod, hikmatgo'ylik taraqqiy etganligini yana bir bor ko'rsatadi. Tortliklarning mazmuni va uslubi Ahmad Yugnakiyning shu shakldagi she'rlarini eslatadi:

Bu so'zga tanuqi bu sha'ir so'zi,
Bu sha'ir so'zi so'zke qatti tuzi:

(Bu aytilganlarga shoirning bu so'zlari misol bo'la oladi. Shoirning bu so'zlari so'zga shahdu shakar aralashtiradi)

Keyik sani davlat kishika tezlik,
Qali kelsa bekla tusha ham tizig.
Tuta bilsa davlat to'zumas turur,
Qali to'zsa tegmas yana tark kezig (160-bet).

(Davlat kiyik kabi, u kishidan qochadi. Agar u kelib qolsa, mahkam tut, tizginlab ol. Tuta bilsang, davlat to'zimaydi, turib qoladi. Agar to'zib ketsa, yana qaytib kelmaydi, bot qochadi).

Mungar mehgzar emdi bu baytig' o'qi,
O'qib kez ko'ngulka aling'il taqi.

(Endi bunga o'xshaydigan bu baytni o'qi. O'qib, tag'in yaxshilab ko'nglingga joyla).

Seningda azaqi o'lugli minga,
Barur pand ayur o'sh manga ko'r manga.
O'sanib yurudim o'qidim o'kush,
O'lum tutti bardim kelir o'sh senga. (914-bet).

Asarda ko'plab badiiy tasvir vositalari uchraydi. Turli tashbehlar, omonimlar, o'xshatishlar ishlatilgan:

Bek ati bilig birla bag'liqturur,
Bilik lomi ketsa, bek ati qalur.

Mazkur baytda birinchidan harf san'ati g'oyaning go'zal tarzda ifodalanishiga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchidan u asarning asliyatda arab yozuvida yozilganligini ko'rsatadi.

Umuman, «Qutadg'u bilig» dostoni bugungi va ertangi kun uchun ham axloqiy-estetik tarbiyaning muhim vositasi sifatida kishilik jamiyatiga xizmat qilaveradi.

5-MAVZU

AHMAD YUGNAKIY VA UNING "HIBAT UL-HAQOYIQ" DOSTONI

5.1. Didaktika va didaktik adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari.

"Didaktika" yunoncha so'z bo'lib, "o'qitadigan", "o'rgatadigan" degan ma'nolarni bildiradi. "Didaktik adabiyot" deganda esa pandu hikmat, nasihat, o'git, ibrat ruhida asarlar tushuniladi.

Didaktik mazmud adabiyotda, xususan o'zbek mumtoz adabiyotida turli-tuman shakllar va janrlarda o'z ifodasini topadi. Xususan, hikoyat, doston, she'riy janrlar vahokazo. Bular orasida doston janri alohida o'ringa ega. Bu holat asosan yozma adabiyotga xos. Didaktik dostonchilik adabiyotimizda qadim an'alariga ega. Bu haqda Muhammad Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk"da ma'lumot berib o'tadi va she'riy yo'l bilan pand-nasihat aytuvchi bilimdon donishmand kishilar ko'p bo'lganini xabar qiladi. Bizning adabiyotimizda didaktik dostonning ilk namunalari "Qutadg'u bilig" va "Hibat ul -haqoyiq"dir. Didaktik adabiyot degan tushuncha esa pand-nasihat ruhida xilma-xil janr va turlarda yozilgan asarlarni qamrab oladi.

5.2. Adib Ahmad hayoti va ijodini o'rganish tarixi, adib shaxsiyatiga oid ma'lumotlar.

Adib Ahmad Yugnakiy haqidagi dastlabki ma'lumotlar Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida keltirilgan. Unda aytilishicha, Adib Ahmad tug'ma ko'zi "butov", "basir bo'lib o'zga basirlardek andoq ermas erishki ko'z bo'lg'ay va ko'rmas bo'lg'ay". Shunga qaramay o'zi "bag'oyat ziyrak va zakiy, zohid va muttaqiy" kishi bo'lganligi shu manbada qayd etiladi. Navoiyning ma'lumotiga ko'ra Adib Ahmad Bog'dodda Imom A'zamdin dars olgan hamda ustozining yuksak e'tirofiga sazovor bo'lgan. Ushbu ma'lumot Adib Ahmadning yashagan davriga oid turli bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Bu haqda Fitrat, N.Mallaev, Q.Mahmudov, I.Haqqulov, B.To'xliiev, H.Boltaboev M.Imomnazarov kabi olimlarning fikrlari mavjud.

Ahmad Yugnakiy haqida o'z asarida ayrim ma'lumotlar uchraydi. Dostonning nusxalaridan birida XV asr hukmdorlaridan Arslonxo'ja Tarxon adib haqida Adibning yeri Yugnak ekanligi (manbalarda Yugnak Farg'ona vodiysida ham, Turkiston atrofida ham, Samarqand yoki Sirdaryo atroflarida ekanligi ko'rsatiladi), otasining oti Mahmud, o'zi Adib Ahmad, kitobining oti "Hibatul haqoyiq", asarni Qoshg'ariy tili bilan yozgani kabi ma'lumotlar qayd etiladi. Yana bir noma'lum shaxs tomonidan yozilgan qaydda esa, shoirning ko'zi ojiz bo'lgani, kitob 14 bobdan iborat ekanligi yoziladi:

Tug'a ko'rmas erdi adibning ko'zi,
Tuzattim bu o'n to'rt bob ichra so'zi.

"Hibat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni")ning bugungacha uchta nisbatan to'liq qo'lyozmasi va uchta ayrim parchalari saqlanib qolgan. Ularning eng qadimgisi **1444-yilda Samarqandda** Ulug'bekning nufuzli beklaridan bo'lgan Arslonxo'ja Tarxon topshirig'iga ko'ra, kotib Zaynul Obiddin ibn Sultonbaxt al Jurjoniy al Husayniy tomonidan uyg'ur yozuvida ko'chirilgan. Keyingi nusxa uyg'ur va arab yozuvlarida bo'lib, **1479-yilda Turkistondan Istambulga borib qolgan kotib Shayxzoda Abdurrazoq baxshi** tomonidan ko'chirilgan. Uchinchi qo'lyozma arab xatida bo'lib, unga turkiya sultoni Boyazid II muhri bosilgan. Bu nusxa ham XV asr oxiri XVI asr boshlarida ko'chirilgan.

Doston nusxalarining beshtasi Istambulda bittasi Germaniyada saqlanadi.

5.3. Doston nashrlari va bu boradagi muammolar. 1906 yilda Istanbul dorilfununining mudarrisi Najib Osim tomonidan "Ayo Sofiya" ibodatxonasi kutubxonasidan dostonning ilk qo'lyozma nusxasi, bir oz vaqt o'tib esa, yana bir turk olimi Kirisli Rifat Bey tomonidan ikkinchi nusxasi topilgan.

Dostonning tanqidiy matni turk olimlari Najib Osim (1915-1916 va 1925 yillarda) hamda Arat Raqmatiy (1951 yilda) tomonidan Istambulda nashr etildi. O'zbekistonda esa "Hibat ul-haqoyiq" dostonini nashr etish Abdurauf Fitratning 1927-yilda yaratgan "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasidan boshlandi. Asarning ayrim boblari "O'zbek adabiyoti" xrestomatiyasining 1-tomiga kiritildi. Dostonning to'liq nashri faqat 1971-yilga kelib tilshunos olim Q.Mahmudov tomonidan amalga oshirildi. Shu bilan birga, Q.Mahmudovning "Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari haqida" monografiyasida dostonning filologik tahlili bilan birga arab yozuvidagi tanqidiy matni, uning kirill yozuvidagi transkripsiyasi hamda hozirgi o'zbek tilidagi sharhi e'lon qilindi. Mazkur tadqiqotning qimmatli tomoni dostonning arab yozuvida berilgan tanqidiy matnida hijriy 884 (m. 1479) yilda Abdurazzoq Baxshi tomonidan Istambulda ko'chirilgan nusxa asos qilib olingan bo'lsa-da, dostonning boshqa nusxalari, shuningdek, Najib Osim va Arat Rahmatiy nashrlari bilan farqli o'rinlari ham satr osti (snoska) yozuvlarida ko'rsatilgan. 1986-yilda nashr etilgan "Navoiyning nigohi tushgan" kitobida dostonning asosiy qismidan 187 bayt, aniqrog'i, 92 ta to'rtlik to'liq va uchta to'rtlikning yarmi kiritilgan. Bu kitobning Q.Mahmudov nashridan birgina afzalligi shundaki, unda doston baytlar shaklida emas, to'rtlik shaklida nashr etilgan va sharhlangan. Biroq unda bir qator mafkuraviy cheklanishlar bor. Xususan, uchta to'rtlikning yarmi kiritilib, payg'ambar (a.s.) zikr etilgan misralar

tushirib qoldirilgan. Jumladan, quyidagi to'rtlikning dastlabki ikki misrasigina kiritilgan:

Qudazgil tilingni, kel, oz qil so'zung,
Qudazilsa bu til, qudazlur o'zung.
Rasul erni o'tqa yuzun otquchi,
Til ul tedi, yig' til, yul o'ttun o'zung .

1987-yilda nashr qilingan "Qadimiy hikmatlar" kitobida dostonning hozirgi o'zbek tilidagi tabdili ayrim qisqartirishlar bilan Q.Mahmudov tadqiqoti asosida qayta e'lon qilindi.

Va nihoyat, 2003 yilda nashr etilgan "O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari" majmuasida (Tuzuvchilar N.Rahmonov, H.Boltaboev) Q.Mahmudov tuzgan tanqidiy matn va tabdil yana qayta nashr ettirildi .

Yuqoridagi obzordan ma'lum bo'ladiki, dostonning O'zbekistondagi barcha nashrlarida Q.Mahmudov tayyorlagan tanqidiy matn va sharh asos vazifasini bajardi. Biroq mazkur nashrda (Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq (nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi Q.Mahmudov). - T.: Badiiy adabiyot, 1971.) bir qator kamchiliklar mavjud bo'lib, ulardan ayrimlari adabiyotshunos va matnshunos Q.Tohirov tomonidan yozilgan taqrizda 1972 yildayoq qayd etilgan edi.

Keyingi yillarda nashr qilinayotgan o'quv adabiyotlarida doston matni va sharhlarini isloh qilishga harakat qisman ko'zga tashlanadi. Ammo bu harakat ayrim hollarda yangi e'tiroz va munozaralarga sabab bo'ladi. Bunga quyidagi misol bilan ham ishonch qosil qilish mumkin:

O'chukturma erni tilin, bil, bu til,
Bashaq tursa butmas, butar o'q bashi.

1-sharh: Kishini o'chakishtirma (uning) tilini bil, bu til yaralasa, tuzalmaydi, o'q jarohati esa bitib ketadi .

2-sharh: Kishini o'chakishtirma (uning) tilini bil, bu til yaralansa, tuzalmaydi, yarasi esa bitib ketadi.

E'tibor berilgan bo'lsa, ikala misolda ham birinchi misraning sharhi bir xil. "O'chukturma erni tilin bil" jumlasida "Kishini o'chakishtirma, tilini bil" tarzida tushunilgan. Natijada, ikkinchi misra sharhida tushunmovchilik yuzaga kelmoqda:

- 1-sharhda: "til yaralasa, tuzalmaydi";
- 2-sharhda: "til yaralansa, tuzalmaydi".
- 1-sharhda: "o'q jaroqati bitib ketadi";
- 2-sharhda: "(til) yarasi bitib ketadi".

Bu harxillikning asl sababi esa aynan birinchi misrada. Aniqroqi, "tilin" so'zida bo'lib, uni "tilini" tarzida emas, "til bilan" tarzida tushunish lozim. Binobarin, misraning tabdili "Kishilarni til bilan o'chakishtirma" bo'lishi kerak.

Dostonning matni bilan bog'liq mavjud nuqsonlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Asardagi arabcha matnlarni transliteratsiya va tarjima qilishdagi nuqsonlar.
2. Bob nomini bildiruvchi sarlavhalar hamda bayt yoki to'rtlikning sharhi sifatida kelgan izoh jummalarni farqlamaslik.
3. Asar matnining o'zidagi mazmunga bevosita ta'sir etuvchi imloviy nuqsonlar.
4. Ayrim bayt va to'rtliklarni sharhlashdagi munozarali fikrlar.

Ushbu to'rt xato ba'zi o'rinlarda bir-birini taqozo etib, bir-biriga sabab bo'lib kelgan. Buni quyidagi birgina misolda ham yaqqol ko'rishimiz mumkin:

"Qolan nabiyu (s.a.v) min tavazi`in rafa`hullahu va man takabbura haza lahu Allohu".

Bu matn barcha manbalarda quyidagicha tarjima qilingan:

Tavozelikni oshirish va kibrlilikni tashlash to'g'risida payg'ambarning aytganlari.

Natijada, mazkur matn sarlavha sifatida nashr etilgan va shu tarzda talqin qilingan. Biroq arabcha matnga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda ma'no ancha keng va murakkab: "Tavazi`in rafa`hullahu" - tavozeli kishi (martabasi)ni Alloh yuksaltirishi va "takabbura haza lahu Allohu" - takabburlik, ya'ni kibrlanish, ulug'lanish Allohgagina xos (Ungagina yarashadi) ekanligi haqida nabiy (a.s.)ning aytganlari.

Arabcha matn shu tarzda tarjima qilinib, dostonning matni bilan qiyoslanganda aniq bo'ladiki, bu aslida sarlavha yoki bob nomi emas, shundan oldin kelgan quyidagi to'rtlikning sharhidir. Biroq bunga ishonch hosil qilish uchun to'rtlikning mavjud tabdillarini isloh qilish lozim:

Tavazi` qiliqni ko'turur idi,
Takabbur tutar erni kemshur qo'di.
Ulug'sinma zinhor, ulug' bir bayot,
Ulug'luq meningsiz alinmang tedi.

Sharhi: Muloyim qiliqni xudo ham yoqtiradi, takabbur(lik) kishini tubanlashtiradi. Ulug' bir tangri turib, o'zingni zinhor ulug' tutma, u ulug'likni mensiz olishga urinmang deb aytgan.

Avvalambor ta'kidlash lozimki, baytdagi ikkinchi misraning imlosida jiddiy xato bor. "Meningsiz" so'zidagi "siz" unsuri sifat yasovchi qo'shimcha emas, ikkinchi shaxs ko'plikni bildiruvchi kishilik olmoshi bo'lib, aslida misra "Ulug'luq Mening, siz alinmang, dedi" tarzida yozilishi kerak. Uning tabdili esa: (Tangri) "Ulug'lik Mengagina xos, siz (ya'ni insonlar) urinmang" degan. Misoldan yaqqol ko'rinadiki, arab tilidagi matnni noto'g'ri tarjima qilish baytdagi imlo xatoni, u esa o'z navbatida sharhdagi qo'pol xatoni yuzaga keltirgan. Muhimi, kimdir (eqtimol kotib Zaynulobiddin) olti asr oldin to'g'ri sharhlab qo'ygan baytni biz hozirga qadar noto'g'ri tushunib kelayapmiz.¹⁰

Asar, shuningdek, Pekinda 1980 yilda, Olmaotada 1984 yilda nashr etilgan. 2001 yilda yosh olim G.Xo'janova "Hibat ul-haqoyiq" poetikasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

5.4. "Hibat ul-haqoyiq" dostoni kompozitsiyasi. Dostonning umumiy hajmi ba'zi manbalarda 235 bayt, 254 bayt, 502 misra deb ko'rsatiladi.

Aslida esa dostonining tanqidiy matni 512 misradan (256 bayt) iborat bo'lsa-da, shundan 484 misrasi (242 bayt) Ahmad Yugnakiy qalamiga mansub. Qolgan 28 misra (14 bayt) boshqa shaxslar (Amir Sayfiddin, Arslonxo'ja Tarxon, Zaynulobiddin yoki boshqa kotiblar)ning Adib Ahmad va uning dostoni haqidagi ma'lumotlaridir. Mazkur 484 misraning dastlabki 80 misrasi (40 bayt) muqaddima bo'lib, qofiyalanish tartibiga ko'ra 20, 14 va 6 baytlik uchta qasidadan tashkil topgan.

Mazmuniga ko'ra mazkur qasidalar beshta bobni tashkil etadi:

1. Bismillohir rahmonir rahim (parvardigor hamdi, 1-10-baytlar).
2. Fi na'til nabiyyi alayhissalom (payg'ambar na'ti, 11-15-baytlar).
3. Fi madhis sahabatil arba'ati rizvanullahi alayhim ajmain (to'rt xalifa madhi, 16-20-baytlar).
4. Fi madhin amiril ajalini Dad Sipahsalar Bek alayhirrahmati valg'afiranu (hukmdor madhi, 21-34-baytlar).
5. Mujibi ta'lifi hazal kitabi va muqtazi (kitobning yozilish sababi, 35-40-baytlar).

Dostonning asosiy qismi 96 ta to'rtlikdan iborat (192 bayt yoki 384 misra) bo'lib, quyidagi yetti bobni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bob. Ilmning manfaati va jaholat zarari haqida. Bu bob 41-64-baytlarni o'z ichiga olgan bo'lib, 12 ta to'rtlikdan iborat.

¹⁰ Mazkur masalalar haqida kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Tohirov S. Matn va tahlil. – Sam.: SamDU nashri, 2008.

2. Ikkinchi bob. Tilni asrash, odob va yaxshi odatlarga intilish haqida. Bu bob 65-88-baytlarni o'z ichiga olgan, 12 ta to'rtlik.

3. Uchinchi bob. Dunyoning qalb-egri ekanligi va holatlarning o'zgarib turishi haqida. 89-112-baytlar, 12 ta to'rtlik.

4. To'rtinchi bob. Saxovatning foydalari (barakasi) va baxillikning yomon oqibatlar haqida. 113-132-baytlar, 10 ta to'rtlik.

5. Beshinchi bob. Tavoze bo'lishga da'vat (amr), takabburlik va hirsning zarari, ofat keltirishi haqida. 133-160-baytlar, 14 ta to'rtlik.

6. Oltinchi bob. Axloqni mukarram qilishga da'vat va harislikning halokat keltirishi haqida. 161-178-baytlar, 9 ta to'rtlik.

7. Oxirgi bob. Turli ma'no (mazmun)dagi baytlar.
179-232-baytlar, 27 ta to'rtlik.

Asar xotimasi 5 ta to'rtlik (20 misra)dan iborat.

Navoiy Yugnakiyga yuqori baho beradi. Yuqorida qayd etilgan asarda uning quyidagi baytlarini keltiradi: "Balki aksar turk ulusida hikmat va nuktalari shoe'dur...

Bayt:

Ulug'lar ne bersa, yemasmen dema
Ilik sun, og'iz ur, yemasang yema.

Bayt:

So'ngakka iliktur, eranga bilik,
Biliksiz eran ul so'ngaksiz ilik..." (MAT. 17-tom, 427 - bet)

Shuni qayd etish lozimki, keltirilgan baytlarning ikkalasi ham dostonning hozirgi nashrlarida aynan uchramaydi.

Ikkinchi baytda o'xshatish san'ati qo'llanilgan bo'lib, so'ngakning eranga, ilik – bilikka o'xshatilgan. Baytning ikkinchi misrasida esa, mantiqiy xatolik bo'lib, bilik – so'ngakka, eran – ilikka o'xshatiladi. "So'ngaksiz ilik" birikmasida ma'noviy g'alizlik mavjud. Chunki asos so'ngak, ilik esa uning ichida bo'ladi. Balki Navoiy baytdagi so'zlarni to'g'ri qofiyalash uchun ham "bilik" so'ziga "ilik" so'zini qofiyadosh qilgan bo'lishi mumkin. "Hibat ul – haqoyiq" dostonida shu g'oya ilgari surilgan ushbu to'rtlik bor:

So'ngakka yiliktek, eranga bilik,
Eran ko'rki aql ul, so'ngakning yilik.
Biliksiz iliksiz so'ngaktek xoli,
Yiliksiz so'ngakka sunulmas alik.¹¹

¹¹ Ахмад Югнакий. Ҳибат ул – ҳақойиқ. (Нашрга тайёрловчи Қ.Маҳмудов) – Т: Бадиий адабиёт, 1971.

So'ngakka ilik qanchalar kerak bo'lsa, insonga bilim shunchalik zarur. Er kishining ko'rki, qadri aql, so'ngakniki esa ilikdir. Ilmsiz "iliksiz so'ngak" kabi bo'shdir, iliksiz so'ngakka esa hech kim qo'l uzatmaydi.

Mazkur baytlar Adib Ahmadning bizga yetib kelmagan asarining boshqa nusxalaridan olingan bo'lishi mumkin. Yoki Navoiy xalq orasida mashhur bo'lan baytlarini keltirgan. Navoiy keltirgan baytlardagi o'zgarishlar ham to'rtliklarning og'izdan-og'izga o'tib borganligi sabablidir.

5.5. "Hibat ul-haqoyiq" tarkibidagi to'rtliklarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Ahmad Yugnakiy inson hayotida ilmning ahamiyati yuksakligini qayd etadi. Turli o'xshatishlar orqali ilm va ilimli kishilarni ulug'laydi. Bilimli kishini qimmatli dinor, bilimli xotin-er o'rnida, ilmning oti abadiy, u o'lsa ham nomi o'chmaydi, bilimning biri bilimsizning mingiga teng, ilmsiz esa, yemishsiz daraxt, bilimsiz erkak-xotin kishidir, ilmsiz iliksiz suyak, ilmsiz tirik bo'lsa ham o'lik o'rnida va hokazo.

Adib ta'kidicha, bilimli kerakli so'zni biladi, keraksiz so'zni aytmaydi. Bilimsiz esa nima deganini bilmaydi. Tili boshini eydi:

Biliklik keraklik so'zin so'zlayur,
Keraksiz so'zini ko'mib kizlayur.
Biliksiz na aysa ayur uqmayin,
Aning o'z tili o'z boshini yeyur...

Shoir til xususida ibratli fikrlar aytadi. Tili bo'sh kishi boshini yeydi. O'q yarasi bitadi. Til yarasi tuzalmaydi. Axmoqning qoni tili tufayli to'kiladi. To'g'ri so'z asal, yolg'on so'z sarimsoq piyoz, chin so'z shifo, yolg'on so'z kasal kabi, to'g'ri gapirish, sir bermaslik muhim.

Og'iz-til bezagi ko'ni so'z turur,
Ko'ni so'zla so'zni, dilingni beza.

Ahmad Yugnakiy saxovatni ulug'laydi, baxillikni qoralaydi:

Yemishsiz yig'ochtak karamsiz kishi,
Yemishsiz yig'ochni kesib o'rtatil.

Kamtarlik, sabr-qanoat inson bezagi:

Ulug'likka tegsang, yangilma o'zung,
Qali kiysang atlas, unutma bo'zung.

Umuman, Yugnakiy o'z dostonida o'quvchiga pand-nasihat bildiradi. Asarda turli badiiy vositalar, xalq maqollari, ta'birlari uchraydi. O'xshatish, takrir, tazod kabi san'atlardan keng foydalanilgan.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, asarning hozirga qadar qilingan tabdillari, sharhlari mukammal emas. Ularda jiddiy nuqsonlar bor. Ular ba'zida

tushunmovchilikka sabab bo'lsa, ba'zida tamoman muallif maqsadiga zid ma'noni yuzaga keltiradi. Quyida ayrim misollarni ko'rib o'tamiz:

Menga bo'lsa fazling, qutuldi o'zum,

Agar bo'lsa adling, qatig'liq menga.

(Fazilating, adolating menga nasib bo'lsa, boshimga tushgan qiyinchilikdan qutulish uchun yetarlidir (233)).

Inson balog'atga yetib, aql-hushi kirgandan keyin ham bilib-bilmay xato yoki gunohga qo'l uradi. Binobarin, agar adolat bilan hukm qilinadigan bo'lsa, dunyoda jazodan qutulib qoladigan kishinning topilishi amri mahol. Shuning uchun orif kishi tangrining adolatidan emas, rahmatidan, fazlidan umidvor bo'ladi. Zero, parvardigorning rahmati shunchalik kengki, uning oldida bir umr qilingan ibodat ham, bir umr qilingan xato va gunoh ham dengizga tushgan tomchi singaridir. Yuqoridagi baytda ayni shu ikki tushuncha yoki holat bir-biridan qarshilantirish usulida ajratilgan. Binobarin, "...Adolating menga nasib bo'lsa... qiyinchiliklardan qutulish uchun yetarlidir", deb sharhlash muallif maqsadiga tamoman teskaridir. Baytni quyidagicha sharhlash lozim:

Agar fazling (rahmating) menga nasib bo'lsa, (oxirat azoblaridan) qutulaman. Agar adolat yuzasidan (ya'ni qilingan amallarga muvofiq) hukm qilsang, azobda qolishim tayin.

Tariqlik teb aydi achunni Rasul,

Tariqlikda qatlan tari edguluk.

(Rasul dunyo hayotining asosi ekinzor (ekinzordan pishiq, yaxshilik urug'ini **ter**). Dehqonchilik bilan shug'ullangan kishilarning ozuqasi yaxshilanadi, deb aytdi (237)).

Sharhda baytning ikkala misrasidagi fikr ham payg'ambar (a.s.)ga nisbat berilgan, shuningdek, ikkinchi misraning mazmuni noo'rin kengaytirilgan. Natijada, asosiy e'tibor dehqonchilikka qaratilgandek, dehqonchilik sharaflangandek taassurot hosil bo'ladi. Dehqonchilik chindan ham sharaflı, barakali ish. Biroq baytda tamoman boshqa maqsad ko'zlangan.

Rasul dunyoni ekinzor deb atadi. Ey ekin ekuvchi, ekin ekishda kechikma.

Ushbu baytga asos bo'lgan manba payg'ambar (a.s.)ning "Dunyo oxiratning ekinzoridir" degan hadislaridir. Bu dunyoda ekilgan urug', ya'ni qilingan yaxshi amallar, ezgu ishlar, ibodatning mahsuli oxirtda yig'ib olinadi. Mazkur hadisning mazmuni Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida yanada aniqroq ifodalangan:

Tariqliq turur bu ajun, ey elig,

Neku eksa anda alir bu ilig.

(Bu dunyo, ey elig, misli ekinzor,
Nima eksang, ani o'rmoqliging bor).

Demak, baytning birinchi misrasi hadisga ishora bo'lib, ikkinchi misra muallifning da'vatidir. Uni "yaxshilik urug'ini ter" emas, "yaxshilik urug'ini ek" deb sharhlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu baytlarning tabdillari haqida o'ylab ko'ring:

Ulug'sinma zinhor, ulug' bir bayat,
Ulug'luq mening, siz alinmang tedi (225).

(Ulug'likka intilma, ulug' bir Tangridir. U ulug'likka **mensiz** intilmang, deb aytgan (239).

Sening moling ul mol ashinturdug'ing,
Senga hasrat ul bek (tek) tutub turdug'ung.

(Sening **to'plagan moling o'zingnikidir**, uni berkitib saqlaganing esa senga hasratdir (244)).

6-MAVZU

AHMAD YASSAVIY VA TASAVVUF SHE'RIYATI

6.1. Tasavvuf va so'fiylik adabiyoti haqida dastlabki tushuncha.

“Tasavvuf” so'zi arab tilida “so'fiy” so'zidan yasalgan. Uning etimologiyasi haqqida bir necha xil qarashlar mavjud. Ko'pchilikning e'tirof etishicha, “so'fiy” so'zi arabcha “suf” so'zidan hosil bo'lgan. U esa ‘Jundan to'qilgan mato’ ma'nosini bildiradi. Ilk so'fiylar faqirlik ramzi sifatida shunday dag'al matodan xirqa kiyib yurganlari uchun ularni sufiylar deb atashganlar. Biroq Beruniy bu so'zni boshqacha ta'riflaydi. Uning fikriga ko'ra, “sufiy” so'zi “faylasuf” so'zining ikkinchi qismidan yasalgan. U esa donishmandlik degan ma'noni ifodalaydi. Binobarin, sufiy - donishmand degani.

Tasavvuf Islom negizida shakllangan ta'limot, ijtimoiy hodisa bo'lib, insonni kamolotga olib boorish yo'llarini izlash, targ'ib etish bilan shug'ullanadi. Mazkur ta'limot ettinchi asrda arab davlatlarida maydonga kelib, IX asrdan boshlab forsiy zabon xalqlar, X-XI asrlardan boshlab esa turkiy xalqlar, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarziga kirib keldi. Uning turli tariqatlari shakllandi. Tasavvufning Markaziy Osiyoga kirib kelishi koproq Yusuf Hamadoniylar nomi bilan bog'lanadi. Asli Eronning Hamadon shahridan bo'lgan, Bog'dodda o'z davrining eng yirik ulamolaridan bo'lgan Abu Ali Formadiydan ta'lim olgan Yusuf Hamadoniylar XI asrning II yarmida Buxoroga kelib, tariqatdan ta'lim beradi va ko'plab shogird tarbiyalaydi. Markaziy Osiyoda eng ko'p tarqalgan ikki tariqat – naqshbandiya (xojagon) tariqatining asoschisi Abduxolliq G'ijduvoniylar hamda yassaviya (jahriya) tariqatining asoschisi Ahmad Yassaviylar mazkur shayxning muridlari, shogirdlaridir.

6.2. Ahmad Yassaviylar shaxsiyatiga oid ma'lumotlar, “Devoni hikmatning o'rganilishi, nashrlari. Ahmad Yassaviylar Sharq olamining ulug' siymolaridan biri. Alisher Navoiylar ta'kidlaganidek, «Xoja Ahmad Yassaviylar – Turkiston mulkining shayxul mashoyixidir. Maqomati oliylar va mashhur, karomati matavoliylar (hayratlanarli) va nomaqsur ermish. Muridu ashobi g'oyatsiz va shohu gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish. Imom Yusuf Hamadoniylarning as'hobidindur (suhbatdoshi)». Ahmad Yassaviylarning sharq dunyosidagi, ayniqsa, Turkiston xalqi orasidagi nufuzi, shuhrati nihoyatda baland bo'lgan. Shuning uchun ham «Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad» degan gaplar paydo bo'lgan.

Ahmad Yassaviylar merosini o'rganish borasida chet mamlakatlarda, ayniqsa, Turkiyada ko'p ishlar amalga oshirilgan. Uning merosi bilan bog'liq tadqiqotlar

turk olimi F.Ko'pruluzoda, Likoshin, Bertels kabi chet el olimlari faoliyatida ko'zga tashlanadi. O'zbek adabiyotshunosligida XX asrning 20-yillarida Fitrat, A.Sa'diy tadqiqotlarida Yassaviy merosiga munosabat ko'rinadi. 70-yillarda N.Mallaev, V.Zohidov, E.Rustamovning Yassaviy haqidagi ma'lumot va maqolalari chop etildi. Ularda Ahmad Yassaviy shaxsiyatiga turlicha munosabat bildirildi.

Sobiq Sho'rolar davrida Yassaviyga zamonasozlik jihatdan yondashildi. Uning merosi din nuqtai nazaridan talqin etilib, asosan, bir yoqlama mulohaza yuritildi. U «klerikal adabiyot vakili», «reaksion diniy adabiyot vakili», «diniy-mistik adabiyot namoyondasi», «tarkidunyochi» nomlari bilan tilga olindi. Uning merosidan xalqimiz bebahra qoldirildi. «Hikmat»lari chop etilmadi. Tom ma'nodagi yassaviyshunoslik mamlakatimizda istiqloldan keyin yuzaga keldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ko'pgina shoirlar qatori Yassaviy merosi ham xalqimizga qaytarildi. 1991-yilda Yassaviy adabiy merosi "Hikmatlar" nomi bilan ilk marotaba nisbatan to'liq holda nashr ettirildi (nashrga tayyorlovchi I.Haqqul). 1992 yilda esa "Devoni hikmat" nomi bilan nashr ettirildi (nashrga tayyorlovchi (M.Hasaniy). N.Komilov, I.Haqqul, Orif Usmon, bir qator yosh olimlar Yassaviy merosiga doir u yoki bu darajadagi tadqiqotlar yaratdilar va yaratmoqdalar.

Mamlakatimizda 1993 yil-Yassaviy yili deb e'lon qilinishi bu boradagi eng ulug' harakat bo'ldi. Shoir kitoblari nashr etildi. O'rta maktab darsliklaridan o'rin oldi. Yassaviyga munosib ehtirom ko'rsatilmoqda.

XII asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan ilk tasavvufiy tariqatlardan birining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviyning tug'ilgan yili bahslidir. Ko'pchilik ishlarda uning tug'ilgan yili noma'lum deb ko'rsatiladi. Orif Usmon esa uning 1041- yilda dunyoga kelganligini taxmin qiladi. Tug'ilgan joyi Turkistonning Yassi shahri, ba'zi o'rinlarda esa Sayramda deb ko'rsatiladi. Uning vafot yili tasavvufiy manbalarda abjad usulida "sarvari avliyo" jumlasini bilan beriladi. Bu tarix hijriy 562 (1166-67) sanaga to'g'ri keladi. Ahmad yoshligida onasidan, yetti yoshda otasidan ajraladi. U dastlab otasi Shayx Ibrohimdan, so'ngra o'z davrining yirik mutasavvuf olimi Arslonbob qo'lida tarbiyalanib voyaga yetadi. 23 yoshligida Buxoroga borib Yusuf Hamadoniyni ta'lim oladi. Yassaviy Yusuf Hamadoniyning uchinchi xalifasi (o'rinbosari) bo'lib, murshidlik navbati unga yetgach o'z o'rnida Abduxoliq G'ijduvoniyni qoldiradi hamda yurti Turkistonga qaytadi. Turkistonda yassaviya-jahriya (oshkora, ovoz chiqarib zikr aytish) tariqatiga asos soladi. Rivoyatlarga ko'ra, Yassaviy 63 yoshga – payg'mbar yoshiga yetkach, yer ostida hujra yasatib, «chilla»ga kirgan, qolgan umrini toat-

ibodat bilan, hikmatlar aytib, riyozatlar chekib, yer ostida o'tkazgan. Bir hikmatga ko'ra u 125 yil (Yuz yigirma beshga kirdim bilolmadim), boshqa rivoyatga qaraganda, 133 yil umr ko'rgan.

Ahmad Yassaviyning shuhrati vafotidan keyin ham pasaymaydi. Amir Temur unga alohida hurmat bilan qaragani ma'lum. U 1395-97 yillarda Turkistonda Ahmad Yassaviyning eski qabri o'rnida yangidan muhtasham maqbara qurdirgan. Bu maqbara hozir ham mavjud.

6.3. Yassaviy hikmatlarining janr xususiyatlari. Ahmad Yassaviydan bizgacha «Devoni hikmat»i yetib kelgan. Olimlarning ta'kidicha, bu nom XVI asrdan keyin berilgan. Turk olimi Ko'pruluzoda diniy-tasavvufiy manzumalar X asrdan e'tiboran hikmat deb atalganini yozadi. Mutasavvuf shoirlar, jumladan, Ahmad Yassaviy uchun ham ilmi laduniy, ya'ni ilmi g'ayb haqoyiq va ilohiy sirlarni kashf etmoq va ifodalamoq hikmat mazmuniga teng. «Devoni hikmat»da Yassaviy tariqatining muayyan qoidalari o'z ifodasini topgan. «Hikmat» XII asr turkiy tasavvufiy she'riyatning yuksak namunasidir.

Yassaviy turk-islom tasavvufiy she'riyatining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Mashhur fors-tojik mutasavvuf shoiri Farididdin Attor uni “Piri turkistoniy” deb ataydi. Yassaviy hikmatlari keyingi davr turkiy adabiyotning rivojlanishga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Hikmatlarga «Qul Xoja Ahmad», «Xoja Ahmad Yassaviy», «Ahmad ibn Ibrohim», «Sulton Xoja Ahmad Yassaviy», «Miskin Yassaviy», «Ahmadiy», «Qul Ahmad», «Miskin Ahmad» kabi taxalluslar qo'llangan. Ayrim manbalarda Ahmad Yassaviy «Hikmat»larining soni 240 ga yaqin, boshqa bir manbalarda 4400 ta, ayrimlarida esa 9900 ta deb ko'rsatiladi.

Hikmatlardan birida Yassaviy “Daftari soniy” jumlasini ishlatadi:

Bismilloh deb bayon aylab hikmat aytib,
Toliblarg'a duru guhar sochdim mano.
Riyozatni maxkam tutib, qonlar yutib,
Man daftari soniy so'zin ochtim mano.

Olim I.Haqqulning fikriga ko'ra “ikkinchi daftar” “Devoni hikmat”ning yana bir nomi bo'lib Qur'oni karim va payg'ambar (a.s.) hadislaridan keyingi ikkinchi manba ma'nosini bildiradi.

Hikmatlar yozma adabiyot an'alaridan farqli o'laroq, barmoq vaznida, to'rtlik shaklidir. Uning vaznini istisno etgan holda murabba' deb atash mumkin. Hikmatlarning tili o'z davriga nisbatan soda, aniqrog'i o'zbek tilining keyingi davrlariga xos. Bu holat Yassaviy hikmatlarining XVII asrga qadar asosan og'zaki tarzda kelganligi bilan izohlanadi.

6.4. Hikmatlarning g'oyabiy-badiiy xususiyatlari. Yassaviy ijodining asosiy qismini islom dini, Alloh (s.t.) oyatlari, Muhammad payg'ambar hadislar, turli piru mashoyixlar, tasavvuf bilan bog'liq tafsilotlar tashkil etadi. Ammo ana shular asosida inson ma'naviyati, poklik, jamiyat, hayot haqidagi chuqur mulohazalar yuritiladi. Hikmatlarda yaxshilik, mehr-oqibat, beva-bechoralarga muruvvat ko'rsatish, sabr-qanoat, shaxs kamoloti, vatan tuyg'usi, iymon va e'tiqod xususida, nafs va nodonlik, ilmsizlik va johillikning oqibatlari kabilar borasida bahs yuritiladi. Shoir ishq, haqiqat, adolat, qanoat, diyonat singari masalalarga o'zgacha yondashadi. Qiyinchilik, musibat, mehrsizlik, yo'ldan adashishni qoralaydi:

Na onoda rahm qoldi, na otoda,
Og'o, ini bir-biriga mojaroda.
Musulmonliq da'vo qilur, ichar boda,
Mastlig' bilan qarindoshdin tondi, ko'rung.

Yassaviy «Ko'ngli qattiq xaloyiq»ni shafqatga, g'arib, yetim, mazlumlarga ozor yetkazmaslikka chaqiradi:

G'ariblarni ko'rgan yerda og'ritmangiz,
G'ariblarga ochig'lanib so'z qotmangiz.
Zaif ko'rub g'ariblarg'a tosh otmangiz,
Bu dunyoda g'aribliktek balo bo'lmas.

Yassaviy hikmatlaridagi markaziy obraz – Alloh oshig'i. U xudo ishq, ya'ni ishq ilohiyni tan oladi. Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida ishqni uch qismga ajratgan. Shundan uchinchi «siddiqlar ishq» bo'lib, Haqqa to'g'ridan-to'g'ri, vositasiz oishiq bo'lishdir.

Ishq yo'lida kecha-kunduz yig'lag'onlar,
Jondin kechib belin mahkam bog'lag'onlar.
Xizmat qilib haq sirini anglag'onlar
Tun uyquni harom qilib nolon bo'lur.

Bu misralarda Allohni tanish va uning ishqini idrok qilish ehtiroslarida o'rtangan oshiqlar nazarda tutilgan.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining katta bir qismi nafs masalasiga qaratilgan. Shoir ta'kidicha, «nafs yabon qushdek qo'lga qo'nmas» bir narsa. Bu qush o'z xohishicha parvoz etaversa, odamni kundan kunga to'g'rilikdan ozdiraveradi.

Oqibatda esa:

Nafs yo'liga kirg'on kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldin ozib, to'zib, toyib gumroh bo'lur.
Yotsa-tursa shayton bila hamroh bo'lur...

Shoir nafs bandalariga qarata, «Nafsni tebgil, nafsni tebgil, ey badkirdor», deb murojaat etadi.

Yassaviy «Alloh dardi»ni ishq o'tlarida dilni yoqmoq, poklanish iztiroblari, tama, yolg'on, makr, mansab va boylik hirslariga qul bo'lmaslik deb tushungan. Ba'zan imkonsizlik kayfiyati ifodalanadi:

Ko'zum namlik, dilim g'amlik, men alamlik,
Nechuk iloj aylarimni bilmam, do'stlar.
Bu hasratda, nadomatda yoshim oqib,
Qayu taraf ketarimni bilmam, do'stlar.

Yassaviy «Xalqda saxovat», «podsho, vazirlarda adolat» yo'qligidan afsuslanadi. «Turluk balo xalq ustiga yog'»ganidan achinadi:

Ahli dunyo xalqimizda saxovat yo'q,
Podsholarda, vazirlarda adolat yo'q.
Darveshlarni duosida ijobat yo'q,
Turluk balo xalq ustiga yog'di, do'stlar.

Yassaviy hikmatlarida asosiy o'rinlardan birini nodonlik mazammati egallaydi: shoir nodonlikni qoralaydi. Undan ranjiydi. Shoir «Duo qiling nodonlarni yuzin ko'rmay», deydi. O'nlab hikmatlarida uni qoralaydi:

Duo qiling nodonlarni yuzin ko'rmay,
Haq taolo rafiqlik bo'lsa birdam turmay.
Bemor bo'lsa nodonlarni holin so'rmay,
Nodonlardin yuz ming jafoda ko'rdum mano.

Ayo do'stlar, nodon birla ulfat bo'lib,
Bag'rim kuyub, jondin to'yub, o'ldim mano.
To'g'ri aytsam egri yo'lga bo'yin to'lg'ab,
Qonlar yutub g'am zahriga to'ydim mano.

Yer ostig'a qochib kirdim nodonlardin
Ilkim ochib duo tilab mardonlardin.
G'arib jonim yuz tasadduq donolardin,
Dono topmay yer ostig'a kirdim mano.

Ahmad Yassaviy she'riyatidagi obrazlar tizimi ham tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq. Pir, darvesh, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, iymon kabi obrazlar tasavvufiy she'riyatning an'anaviy timsollaridir. Yo'l, rabot, karvon, o'q kabilar og'zaki ijod an'analari bilan bog'liq.

Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdin o'taro,

Ishonmag'il molingg'a, bir kun qo'ldan ketaro.
 Oto-ono, qarindosh qayon ketdi-fikr qil,
 To'rt oyog'lig' cho'bin ot bir kun sang'a yetaro...

6.5. O'zbek adabiyotida Yassaviy an'analari. Ahmad Yassaviydan keyin turkiy adabiyotda aynan yassaviyona hikmat janri keng tus oldi. Uning dastlabki izdoshlaridan biri Hakim Ota nomi bilan mashhur bo'lgan Sulaymon Boqirg'oniylidir. Uning bizga qadar "Boqirg'on kitobi", "Bibi Maryam kitobi", "Oxir zamon kitobi" kabi asarlari yetib kelgan.¹² Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida Hakim Ota haqida ham to'xtalib, quyidagilarni yozadi: "Oti Sulaymondur va Xoja Ahmad Yassaviy q.s.ning murididir... Hakim Atog'a hikmat tili go'yo bo'lubdur. Andoqki, oning favoidi atrok orosida mashhurdur. Ul jumladin biri budurkim:

Tiki turg'on butadir,
 Borg'onlarni yutadir.
 Borg'onlar kelmas bo'ldi,
 Magar manzil andadur.¹³

Navoiy "Hakim" taxallusining Ahmad Yassaviy tomonidan berilganligi bilan bog'liq rivoyatni ham keltiradi.

Qizig'i shundaki, Ahmad Yassaviyning o'zi haqida gapirganda Navoiy hikmatgo'yiligi yoki hikmatlari haqida ma'lumot bermaydi.

Yassaviyona hikmatlar XIV-XV asrdan boshlab aruz vaznlarida ham yaratila boshladi. Ularda ko'proq aruzning sodda bahrlari ramal va hazaj bahrlariga oid vaznlar qo'llangan. She'rning shakily jozibasiga emas mazmun-mohiyatiga asosiy e'tibor qaratilganligi uchun "turkona" atamasi bilan yuritilgan. Xususan, Yassaviya silsilasiga mansub Ismoil ota avlodidan bo'lgan Atoyi ijodi haqida Alisher Navoiy "aksar turkona aytur erdi" deya ta'riflaydi.

Ahmad Yassaviy ta'limoti va an'analari XVI asr va undan keyingi o'zbek adabiyotida ayniqsa koproq ko'zga tashlanadi. Buni Shayx Xudoydodi Vali, Ubaydullaxon – Ubaydiy merosi misolida ko'rishimiz mumkin.

¹² Sulaymon Boqirg'oniyl. Boqirg'on kitobi (nashrga tayyorlovchilar I.Haqqul, S.Raf'iddin) . – T: Yozuvchi, 1991.

¹³ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 17-tom. – T.:Fan, 2001. 420-bet.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI

“O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI”

(XIV – XV asrning I yarmi)

fanidan

OQUV MATERIALLARI
VA
TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Mustaqil ta'limni tashkil etish

Tuzuvchi PhD. v.b. dots., Muxitdinova N.M.

Mustaqil ta'limni tashkil etish

“O'zbek mumtoz va miliy uyg'onish adabiyoti” fani bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limi til o'rganish jarayonining bevosita tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Fanni o'qitish jarayonida ma'naviyatimiz sarchashmalari, hukmron mafkura tazyiqi ostida qataqonga uchragan qadriyatlarimiz, shoiru yozuvchilarimizning ijodiy faoliyatlari, ma'naviy va adabiy hayotda muhim o'rin tutgan nodir manbalar bilan talabalarni tanishtiriladi. Auditoriyadan tashqarida esa talabalar darslarga tayyorlanishadi, adabiyotlarni konspektlashtiradi, uyda ishlash uchun berilgan topshiriqlarni bajarishadi, tahlil qilishadi. Bundan tashqari, berilgan ayrim mavzularni chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha adabiyotlardan foydalanadi, referatlar, talabalar ilmiy to'garagi va anjumanida chiqish qilish uchun ma'ruzalar tayyorlashadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash, ularni topish, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garaklar yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib, maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabi faoliyat talabalarning darslardan olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning ilmiy fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Talabaga mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- O'quv adabiyotlaridan fan boblari va mavzularini o'rganish.
- Tarqatma materialar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish.
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.
- Yangi ilmiy adabiyotlarni, adabiy jarayon tendensiyalarini va estetik tamoyillarni o'rganish.
- Talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.
- Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

O'tilgan materiallarning o'zlashtirilishi, konspektlar, uy vazifalarini tekshirish va baholash mashg'ulot olib boruvchi o'qiyuvchi tomonidan doimiy tarzda har bir dars davomida olib borilsa, referatlar himoyasi jadval asosida amalga oshiriladi.

“O'zbek adabiyot tarixi” fanidan mustaqil ishlar mavzulari

1. O'zbekistonda avestoshunoslikka oid ilmiy asarlar ro'yxatini tuzish va ayrim asarlarga annotatsiya yozish.
2. “Avesto”ning qismlarini tanlab o'rganish, asardagi tangri Xo'rmuzdga oid sifatlarni belgilash.
3. “Avesto”dagi mifologiyani o'rganish (xudolarning ismlari misolida).
4. Qadimgi turkiy yodgorliklar bo'yicha O'zbekistonda yaratilgan ilmiy asarlarning bibliografiyasini tuzish, monogorafiyalarga annotatsiya yozish.
5. Turkiy qavmlar tarixiga oid afsona va rivoyatlarni tahlil qilish.
6. “Shohnoma”dan “Rustam va Suhrob” dostonini o'rganish
7. Ibn Sinoning adabiy faoliyatiga oid asarlar annotatsiyasini tuzish.
8. Beruniyning adabiyotga oid faoliyatini o'rganish, “O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” va “Mineralogiya” kitobidagi hikoyat va rivoyatlarni tahlil qilish.
9. X–XII asrlarda O'rta Osiyoda fors tilida yaratilgan badiiy adabiyotga oid materillar yig'ish va bibliografiya tuzish.
10. “Devoni hikmat” va “Hibat ul-haqoyiq” asarlaridan tanlangan to'rtliklarning shakli va mazmunini qiyoslash.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI

“O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI”
fanidan

OQUV MATERIALLARI
VA
TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

TARQATMA MATERIALLAR

NAZORAT MATERIALLARI

Tuzuvchi PhD. v.b. dots., Muxitdinova N.M.

**fanidan OB uchun
TEST NOPSHIRIQLARI
1-7 MAVZULAR
I MAVZU**

- 117

6. "Mumtoz" so'zini qanday tushunasiz?
 A) Eski, qadimiy B) Namuna, ajralib turadigan
 S) Tarbiyaviy, didaktik D) Qimmatbaho, bebaho
7. O'zbek adabiyoti tarixining qaysi davrida didaktika-pand nasihat ruhi ustunlik qiladi?
 A) Islomgacha bo'lgan davr adabiyotida
 B) Qoraxoniylar davri adabiyotida
 S) Mug'ullar hukmronligi davri adabiyotida
 D) Temuriylar davri adabiyotida
8. Adabiyot tarixini o'rganishda qimmatli manba hisoblangan shoirlar haqida muxtasar ma'lumot beruvchi asarlar qanday nomlanadi?
 A) Manoqib B) Risola S) Tazkira D) Debocha
9. Turkiy xalqlar madaniyatida tub burilish yasagan tarixiy hodisani belgilang
 A) Markaziy Osiyoning arab xalifaligi tarkibiga qo'shilishi
 B) Mug'ullar istilosi
 S) Temuriylar davlatining shakllanishi
 D) Xonliklarning yuzaga kelishi.

II MAVZU

1. "To'maris", "Shiroq", "Zariadr va Odatida", "Zarina va Striangey" afsonalarining barchasiga xos bo'lgan jihatni toping:
 1. Ishq-muhabbat mavzusi, 2. Og'zaki tarzda yetib kelgan, 3. Vatanparvarlik mavzusi 4. Yunon tarixchilarining asarlari orqali yetib kelgan, 5. Eron va Turon munosabatlari ifodalangan.
 A) 1,4 B) 3,4 C) 2,3 D) 4,5
2. Turkiy adabiyotdagi ilk tarjima asar va uning muallifini belgilang
 A) "Bilga xoqon", Yo'llug' Tegin, B) "Oltin qon", Mahmud Qoshg'ariy
 C) "Oltin yoruq" Mahmud qoshg'ariy, D) "Oltin yoruq" Sengqu Seli Tutung
3. Ushbu she'riy parchaning janri va muallifini belgilang:
 Uzik meni qumitti,
 Sag'inch manga yumitti,
 Ko'nglum angar emitti,

- A) Lirik qo'shiq, Mahmud Qoshg'ariy,
B) Marosim qo'shig'i, xalq ijodi
C) Mehnat qo'shig'i, Mahmud Qoshg'ariy,
D) Lirik qo'shiq, xalq ijodi

4. She'riy parchaning vaznini belgilang:

Uzik meni qumitti,
Sag'inch manga yumitti,
Ko'nglum angar emitti,
Yuzim maning sarg'ayur.

- A) Barmoq, $3+4=7$,
C) Aruz, hazaj bahri
- B) Barmoq, $4+3=7$,
D) Aruz, ramal bahri

5. She`rning qofiyalanish tartibi va qofiyalarini belgilang:

Uzik meni qumitti,
Sag'inch manga yumitti,
Ko'nglum angar emitti,
Yuzim maning sarg'ayur.

- A) a.a.b.a- qumitti, yumitti, emitti, B) a.a.a.b- qumitti, yumitti, sarg'ayur
C) a.b.a.b-qumitti, emitti, D) a.a.a.b-qumitti, yumitti, emitti

6. Uyg'ur yozuvida bitilgan va bizgacha yozma tarzda etib kelgan qadimiy afsonani toping:

- A) "O'g'uznoma". B) "Oltin yoruq",
C) "Zariadr va Odatida". D) "Gershaspnoma"

7. Tarixchi Juvayniy va rumin sayyohi Nikolos Melesko qaysi tarixiy-adabiy yodgorliklar haqida xabar bergan?

- A) Qadimgi afsonalar, B) "Avesto" kitobi,
C) O'rxun -Enasoy yodgorliklari, D) Qadimgi qo'shiqlar

8. "Qish va Yoz munozarasi" tasvirlangan sheʼrlar qaysi asarda keltirilgan.

- A) Mahmud Koshqariyning "Devonu lug'atit turk",
B) Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul - haqoyiq"
C) Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig",
D) Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston"

9. Bo'yi jo'yi Mo'liyon oyad hame,
Yodi yori mehrubon oyad hame... deb boshlanuvchi mashhur qasida muallifi:
A) Firdavsiy. B) Ro'dakiy. C) Nosir Xusrav. D) Umar Xayyom
10. Fors-tojik tilida yozilgan ilk tazkira muallifini belgilang
A) As-Saolibiy, B) Muhammad Avfiy,
C) Davlatshoh Samarqandiy, D) Alisher Navoiy
11. "Al adab al- mufrad":
A) Al-Buxoriyning odob-axloq haqidagi asari,
B) At-Termiziyning hadislar to'plami
C) Shoirlar haqidagi tazkira,
D) Al-Buxoriyning hadislar to'plami
12. Musulmon kishi bir teshikdan ikki marta chaqtirmaydi degan hadisning ma'nosi:
A) Musulmon birovga ozor bermaydi,
B) Musulmon birovning haqiga xiyonat qilmaydi
C) Musulmon bir joyga ikki marta bormaydi,
D) Musulmon bir xatoni ikkinchi marta takrorlamaydi
13. She`rning muallifini toping:
Shu oddiy ko'z bilan boqmagil, balki,
Bilim ko'zi bilan boqqil jahonga.
Jahon daryo erur, yaxshi otingla,
Kema yasab o'tgin nari qirg'oqqa.
A) Firdavsiy. B) Ro'dakiy. C) Nosir Xusrav. D) Sa'diy
14. Unsuriy, Farruxiy va Asjadiy kabi mashhur shoirlar tomonidan imtihon qilingan va bu imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan shoirni toping:
A) Firdavsiy. B) Ro'dakiy. C) Nosir Xusrav. D) Sa'diy
15. Ushbu hikmat muallifini aniqlang:
Ki dono turo dushmani jon buvad,
Beh az do'st marde ki nodon buvad.

A) Firdavsiy. B) Ro'dakiy. C) Nosir Xusrav. D) Sa'diy

16. Mashhur fors-tojik shoiri Ro'dakiy qanday nom bilan sharaflanadi

A) Malik ul-kalom. B) Ustodi avval.
C) Odam ush-shuaro. D) Muallim us-soni.

17. Firdavsiyning "Shohnoma" epopeyasi sujetlari asosida yaratilgan asarlarni toping:

1. "Xusrav va Shirin". 2. "Layli va Majnun". 3. "Iskandarnoma". 4. "Haft paykar".
5. "Yusuf va Zulayho" 6. "Rustam va Suhrob".
A) 1, 3, 4, 6. B) 1, 2, 3, 6. C) 3, 4, 5, 6. D) 1, 3, 5, 6.

18. Isfahon rasadxonasini boshqarib, falakiyot ilmiga oid tadqiqotlar olib borgan shoirni belgilang:

A) Ibn Sino. B) Umar Xayyom. C) Nosir Xusrav. D) As'adi Tusiy.

19. "Fors-tojik adabiyoti klassiklari" nomli risola muallifini toping:

A) Sh.Shomammedov. B) J.Kamol. C) T.Jalolov. D) N.Komilov.

20. "Zod ul-musofirin, "Vajhi din", "Safarnoma" kabi asarlar muallifini toping:

A. As'adi Tusiy. B. Sobir Termiziy. C. Nosir Xusrav. D. Umar Xayyom.

III MAVZU

1. "Qutudg'u bilig" dostonining arab yozuvida ko'chirilgan nusxasi:

A) "Hirot" yoki "Vena", B) "Qohira", C) "Namangan", D) B va C

2. "Qutudg'u bilig" dostonining uyg'ur yozuvida ko'chirilgan nusxasi:

A) "Hirot" yoki "Vena", B) "Qohira", C) "Namangan", D) B va C

3. Qozon universiteti talabasi Valizoda Muhammad Hoji Eshon Lolaresh uyida bir qo'lyozma asar saqlanishi haqida ma'lumot beradi. Bu:

A) "Hibat ul -haqoyiq" dostonning nusxasi.,
B) "Muhabbatnoma" dostonining nusxasi.
C) "Qutadg'u bilig"ning "Hirot" nusxasi,
D) "Qutadg'u bilig" dostonining "Namangan" nusxasi.

4. "Qutadg'u bilig" dostonining o'zbek tilida ilk tanqidiy nashri qachon va kim tomonidan amalga oshirilgan.

- A) 1970 – yilda Ergash Fozilov, B) 1971 - yilda Qozoqboy Mahmudov
C) 1972 - yilda Aziz Qayumov, D) 1971 - yilda Qayum Karimov

5. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan olimni belgilang.

- A) H.Boltaboev B) B.To'xliiev C) N.Jumaxo'jaev D) A.Qayumov

6. "Qutadg'u bilig" dostoniga tegishli bo'lgan nomlarini belgilang.

1. "Adabul muluk" 2. "Pandnomai muluk" 3. "Anisul qalb" 4. "Shohnomai turkiy" 5. "Padnomai turkiy" 6. "Oinul mamlakat" 7. "Ziynatul umaro".
8. "Nizomul muluk"

- A) 1, 2, 4, 6, 7. B) 1, 4, 5, 6, 7. C) 1, 2, 4, 5, 6. D) 2, 3, 4, 7, 8.

7. "Qutadg'u bilig" dostonidagi ushbu bayt bilan boshlanuvchi bob mazmuniga ko'ra qaysi an'anaviy qismga tegishli:

O'kush o'gdi birla tuman ming sano,

Ug'an bir bayatqa angar yo'q fano...

- A) Hamd B) Na't C) Madhiya D) Kitobning yozilishi sababi

8. Ushbu bayt "Qutag'qu bilig" dostonning qaysi bobi xotimasida berilganq
Qiyamatda ko'rgit to'lunteg yuzin.

Ilig tutmachi qil ilaha o'zin.

- A) Hamd B) Na't C) Alqob D) Madhiya

9. "Qutadg'u bilig" dostonidagi ushbu bayt kimga qarata aytilgan:

Ey ezgu qiling' asli ezgu urug',

Ajun qalmasuni sizingsiz qurug'.

- A) Muhammad (a.s.)ga, B) Tavg'ach Bug'roxonga,
C) Kuntug'di Eligga, D) Insonlarga

10. "Qutadg'u bilig" dostonidan olingan ushbu baytning vaznini aniqlang:

Turayi barayi ajunug' kezayi.

Vafolig' kim erkin ajunda tilayi.

- A) Mutaqoribi musammani mahzuf B) Mutaqoribi musaddasi solim

C) Mutaqoribi musammani solim.

D) Mutaqoribi musaddasi mahzuf

11. "Didaktika" so'zining ma'nosi nima?

A) Pand-nasihat, tarbiya,

B) Ilm olish,

C) Qadimgi afsonalar,

D) Tarixiy mavzuda asar yozish

12. Turkiy adabiyotda aruz vaznida yozilgan ilk asarni belgilang:

A) "Devonu lug'otit turk" dagi qo'shiqlar, B) "Qutadg'u bilig"

C) "Hibat ul-haqoyiq",

D) "Devoni hikmat"

13. "Qutadg'u bilig" dostonida qaysi she'riy shakllar mavjud.

A) Masnaviy va to'rtlik,,

B) Masnaviy va qasida,

C) To'rtlik va qasida,

D) Barchasi to'g'ri.

14. "Qutadg'u bilig" dagi qaysi timsollar vafot etadi.

A) Kuntu'g'di va Oyto'ldi, B) Oyto'ldi va O'gdulmish

C) Kuntug'di va O'zg'urmish,

D) Oyto'ldi va O'zg'urmish

15. Abdurazzoq Baxshi kim?

A) "Qutadg'u bilig" dostonini topgan,

B) "Hibat ul-haqoyiq" dostonini ko'chirgan

C) "Qutadg'u bilig" dostonini ko'chirgan,

D) "Hibat ul-haqoyiq" dostonini topgan

16. "Qutadg'u bilig" va "Hibat ul - haqoyiq" dostonlarida madh etilgan hukmdorlarni toping.

A) Tavg'ach Bug'roxon, Dod Spohsolorbek,

B) Kuntug'di Elig, Dod Spohsolorbek

C) Tavg'ach Bug'roxon, Abdurazzoq baxshi,

D) Tavg'ach Bug'roxon, Arslonxo'ja Tarxon

17. Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida qaysi shoirlar tilga olingan:

A) Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy,

B) Ahamd Yugnakiy, Ahmad Yassaviy

C) Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy,

D) Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy

18. Alisher Navoiy o'z tazkirasida Ahmad Yugnakiyning qaysi baytini alohida ajratib ko'rsatgan.

- A) Baholik dinor ul biliklik kishi,
Bu johil biliksiz bahosiz bishi
- B) Eshitgil ulug'lar neku teb ayur,
Adablar bashi til kudazmak turur.
- C) Ulug'lar ne bersa yemasman dema,
Ilik sun og'iz ur yemasang yema.
- D) Bilikdin ayurman so'zumga ula,
Biliklikka, yo do'st, o'zingni ula.

19. "Hibat ul-haqoyiq" dostonini ilk bora fanga ma'lum etgan olim nomini aniqlang

- A) Rashid Rahmati Arat, B) Hammer Purgshtal,
- C) Najib Osim, D) Abdurauf Fitrat

20. "Hibat ul-haqoyiq" dostonining tanqidiy matni necha baytdan iborat?

- A) 235 B) 254 C) 256 D) 258

21. O'zbekistonda "Hibat ul-haqoyiq" dostonining to'liq nashri ilk bora qaysi olim tomonidan amalga oshirilgan?

- A) Q.Karimov, B) Q.Mahmudov,
- C) A.Qayumov, D) B.To'xliev

22. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" dostoni haqida" nomli monografiya muallifini aniqlang.

- A. B.Valixo'jaev, B. B.To'xliev,
- S. Q.Karimov, D. Q.Mahmudov

23. "Ilk badiiy doston" nomli monografiya muallifini aniqlang

- A. B.Valixo'jaev, B. B.To'xliev,
- C. Q.Karimov, D. Q.Mahmudov

24. Quyidagi sifatlar orasidan Alisher Navoiyning Adib Ahmadga nisbatan bergan ta'riflarini aniqlang

- 1. Hakim 2. Zakiy 3. Porso 4. Ziyrak 5. Darveshvasht 7. Zohid

8. Shayx ul- mashoyix 9. Muttaqiy 10. Pokxilqat

A. 1,2,4,7. B. 2,4,5,9. C. 2,4,7,9. D. 2,4,8,10

25. Navoiy bergan ma'lumotga ko'ra Ahmad Yugankiy kimlar bilan birga o'qigan?

A. Imom Yusuf va Imom Muhammad, B. Imom Ahmad va Imom Yusuf
C. Imom A'zam va Imom Muhammad, D. Bunday ma'lumot yo'q

26. "Hibat ul-haqoyiq" dostonining dastlabki boblari qaysi she'riy shaklda yozilgan

A. Masnaviy, B. Qasida,
C. To'rtlik, D. Murabba'.

27. Ahmad Yugankiy VIII asrda yashagan degan yanglish fikrning yuzaga kelishiga nima sabab bo'lgan?

A. Dod Spohsolarbek ismli hukmdorning shu davrda yashab o'tganligi
B. Yugankiyning Imom A'zandan dars olganligi haqidagi Navoiy ma'lumoti
C. Doston tilining o'sha davrga xosligi
D. "Hibat ul-haqoyiq" dostonida Imom A'zanning tilga olinishi

28. Abdurazzoq Baxshi "Hibat ul-haqoyiq" dostonini qaysi yozuvda ko'chirgan?

A. Arab, B. Arab va uyg'ur yozuvlarida alohida
C. Uyg'ur, D. Yarmini arab, yarmini uyg'ur yozuvida

29. "Hibat ul-haqoyiq" dostoni muqaddimasida Siddiq, Foruq, Zinnurayn va Murtazo ismlari tilga olinadi. Bular kimlar?

A. Payg'ambarlar, B. Muhammad (a.s)ga nisbat berilgan ismlar
C. Muhammad (a.s) xalifalari, D. Payg'ambarning oila a'zolari

30. "Ulug'sinma zinhor, ulug' bir bayot" ("Hibat ul-haqoyiq") misrasini qanday tushunasiz?

A. Ulug'lik sinmaydi, u abadiy,
B. Ulug' (yoshi katta) kishilarni e'zozlash lozim
C. Ulug'likka intilsang Tangri madadkor bo'ladi,
D. Ulug'likka intilma, ulug'lik Tangrigagina xos

31. Ahmad Yugankiyning fikriga ko'ra yoru do'stiga oshu nonini edirmagan odamning holi nima bo'ladi

- A. Odamlar orasida hurmatini yo'qotadi,
 B. Xudoning g'azabiga uchraydi,
 C. O'zi o'lib, yiqqan narsasi dushmaniga qoladi,
 D. Tejamkorlik qilib boylik orttiradi.
32. "Hibat ul-haqoyiq" dostonining asosiy qismi qanday she'riy shaklda yozilgan?
 A. Masnaviy, B. Qasida, C. To'rtlik, D. Murabba'
33. Musulmong'a mushfiq bo'lub mehrubon,
 Sanga sondug'ingni musulmong'a son - ikkinchi misrani qanday tushunasiz?
 A. Senga berilgan mol-dunyodan boshqalarga qam xayru ehson qil
 B. O'zingga ravo ko'rgan narsani boshqa musulmonlarga ham ravo ko'r
 C. Shafqatli va mehru oqibatli bo'lish musulmonlarning birlamchi shartidir
 D. Senga nisbatan shafqatli bo'lishlarini istasang, sen qam shafqatli bo'l
34. "Hibat ul-haqoyiq"da aytilishicha doston necha bobdan iborat bo'lgan
 A. 10 B. 11 C. 14 D. 15
35. "Hibat ul-haqoyiq" dostonining asosiy qismi qanday mavzu bilan boshlanadi?
 A. Tilni tiyish, odob-axloq masalasi, B. Baxillik va saxiylik mavzusi
 C. Bilim va jaholat masalasi, D. Dunyoning o'zgaruvchan va foniyligi
36. "Yemishsiz yig'ach", "Iliksiz so'ngak", "Bahosiz bishi" kabi iboralar "Hibat ul-haqoyiq"da qanday kishilarga nisbatan qo'llangan?
 A. Xasis kishilarga, B. Takabbur kishilarga
 C. Bilimsiz kishilarga, D. Haris (dunyoga hirs qo'ygan) kishilarga

IV MAVZU

1. "Turk elining shayxul mashoyixi" kim va bu kimning ta'rifi.
 A) Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, B) Ahmad Yassaviy, Amir Temur
 C) Ahmad Yugnakiy, Amir Temur, D) Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy
2. Nafsga qashi kurash g'oyalari kimning asarlarida ko'p tilga olinadi.
 A) Ahmad Yassaviy, B) Ahmad Yugnakiy,
 C) Yusuf Xos Hojib, D) Mahmud Qoshg'ariy

3. Ahmad Yassaviyning ustozlari kimlar?

- A) Arslonbob, Abduxoliq G'ijduvoni,
- B) Yusuf Hamadoni, Imom A'zam
- C) Yusuf Hamadoni, Abduxoliq G'ijduvoni,
- D) Arslonbob, Yusuf Hamadoni

4. Ahmad Yassaviy hikmatlari qaysi vazn va she'riy shaklda yozilgan.

- A) Aruz vazni, murabba', B) Barmoq vazni, to'rtlik
- C) Erkin vazn, masnaviy, D) Barmoq vazni, masnaviy

5. "Faylasuf" so'zining ikkinchi qismi qanday ma'noni bildiradi:

- A) Jundan to'qilgan mato, B) Donishmandlik, C) So'fiy, D) Ko'ngli toza

6. Ibrohim Adham, Abdulloh ibn Muborak:

- A) Tasavvufning zohidlik davri namoyandalari, B) Muhaddislar
- C) Tasavvufning oriflik davri namoyandalari, D) Qadimgi tarixchilar

7. "Karomoti oliy va nomaqsur" deb ta'riflangan insonni aniqlang.

- A. Ahmad Yugnakiy, B. Sulaymon Boqirg'oni,
- C. Ahmad Yassaviy, D. Alisher Navoiy

8. XX asr o'zbek adabiyotshunosligida Ahmad yassaviy ijodini o'rganishga doir ilk tadqiqot muallifi

- A. Abdurauf Fitrat, B. A.Sa'diy, C. I.Haqqul, D. N.Mallaev

9. O'zbekistonda Yassaviy hikmatlarini ilk bora yaxlit holda nashr ettirgan olimni belgilang

- A. S.Rafiddinov, B. A.Fitrat, C. M.Hasaniy, D. I.Haqqul

10. Alisher Navoiyning bergan ma'lumotiga ko'ra Sulaymon Boqirg'oniya Hakim Ota taxallusini kim bergan?

- A. Xizr payg'ambar, B. Ahmad Yassaviy,
- C. Otasi, D. Xorazm hukmdori

11. Qaysi manbada Hakim Ota va Sulaymon Boqirg'oni ikki shaxs sifatida noto'g'ri ko'rsatilgan.

- A. "Nasoyim ul-muhabbat", B. "Rashahoti aynil hayot"
C. "Hakim ota kitobi", D. Mallaev N. "O'zbek adabiyoti tarixi"

12. Ahmad Yassaviy bilan bir murshid tarbiyasini olgan mashhur shayx va tariqat asoschisini belgilang

- A. Yusuf Hamadoniy, B. Abduxoliq G'ijduvoniy,
C. Bahovaddin Naqshband, D. Hakim Ota.

13. "Oxir zamon muxammasi", "Bibi Maryam kitobi" kabi asarlar muallifi

- A. Ahmad Yassaviy, B. Sulaymon Boqirg'oniy, C. Hakim Ota, D. B Va C

14 "Boqirg'on kitobi" ni kim nashrga tayyorladi

- A. I.Haqqulov, B. S.Raf'iddinov, C. M.Hasaniy, D. A va B

15. Baytning muallifini toping:

Har kim ko'rsang Xizr bil,
Har tun ko'rsang Qadr bil.

- A. Ahmad Yassaviy, B. Sulaymon Boqirg'oniy, C. Alisher Navoiy, D. Atoyi.

16. Bismilloh deb bayon aylab, hikmat aytib,
Toliblarga duru guhar sochtim mano.

Riyozatni mahkam tutib qonlar yutib... - damom ettiring:

- A. Ko'ngli qattiq xaloyiqdin qochtim mano,
B. G'ariblarning izin izlab tushdim mano,
C. Man daftari soniy so'zin ochtim mano,
D. Haqdin eshtib bu so'zlarni aydim mano.

17. "Riyozat" so'zini qanday tushunasiz?

- A. Shariat qoidalari, B. Nafsga qarshi kurash yo'lidagi mashaqqat
C. Luqma halolligini saqlash. D. Riyokorlikka qarshi kurashish.

V MAVZU

1. "Faxruz zamon" unvoniga sazovor bo'lgan shoirni belgilang

- A. Abu Abdullo Ro'dakiy, B. Abulqosim Firdavsiy,
C. Badriddin Chochiy, D. Muhammad Avfiy.

- Uch yuz Ko'hi Qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq,
Yoinki bir asr zindonda yotmoq....

Keyingi misrani to'g'ri belgilang.

- A. Hijron azobidan ko'ra yaxshiroq, B. Yorning jafosidan ko'ra yaxshiroq
C. Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq, D. Nafsning kulfatidan ko'ra yaxshiroq

10. Nosiriddin Rabg'uziyning otasi kim bo'lgan?

- A. Raboti o'g'uzning hokimi, B. Raboti o'g'uzning shayxi
C. Raboti o'g'uzning qozisi, D. Otasi haqida aniq ma'lumot yo'q

11. Nosiriddin To'qbug'aning "Iltimos yanglig' ishorati" bilan yozilgan asarni belgilang

- A. "Guliston bit- turkiy", B. "Muhabbatnoma"
C. "Xusrav va Shirin" (Qutb), D. "Qisas ul-anbiyo" (Rabg'uziy)

12. Rabg'uziyning "Qisas ul-anbiyo" asari nechta qadimiy qo'lyozma nusxaga ega, ular qayerda saqlanadi?

- A. 2 ta, London va Sankt-Peterburgda,
B. 2 ta, Parij kutubxonasi va Istanbulda
C. 3 ta, Britaniya (London), Leyden (Gollandiya), Sankt- Peterburg,
D. 2 ta, London va Istanbulda

13. Rabg'uziyning "Qisas ul-anbiyo" asarini O'zbekistonda ilk bora kim nashr ettirdi?

- A. E.Fozilov, A.Yunusov, H.Dadaboev, B. I.Haqqulov, S.Raf'iddinov
C. Q.Mahmudov, D. Q.Karimov

14. "Yalavoch" so'zi "Qisas ul-anbiyo"da kim yoki kimlarga nisbatan qo'llangan?

- A. Nosiriddin To'qbug'aga, B. Podshohlarga,
C. Payg'ambarlarga, D. Sipohiylarga

15. Yeti yuz o'n erdi yilg'akim bitildi bu kitob,
Tug'mish erdi ul o'g'urda hut saodat yulduzi.

Ushbu baytda qaysi asarning yozilish tarixi ko'rsatilgan?

- A. "Muhabbatnoma", B. "Guliston bit turkiy",
C. "Qisas ul-anbiyo", D. "Xusrav va Shirin"

16. "...to'at yo'linda tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqluq, ko'p yozuqluq" shoir kim?

A. Ahmad Yassaviy,
C. Sayfi Saroyi,

B. Ahmad Yugnakiy,
D. Nosiriddin Rabg'o'ziy

17. 1948 yilda H.Gronbek tomonidan Kopengagenda nashr ettirilgan asarni belgilang

A. "Qutudg'u bilig",
C. "Qisas ul-anbiyo",

B. "Muhabbatnoma",
D. "Hibat ul-haqoyiq"

18. "Qisas ul-anbiyo"dagi Nosiriddin To'qbug'a madhiyasi qaysi she'riy shaklda yozilgan?

A. Masnaviy, B. To'rtlik, C. Musallas, D. Qasida

19. Kun hamalg'a kirdi ersa keldi olam navro'zi,
Kechdi Bahman zamharir qish, qolmadi qori bo'zi...

Turkiy adabiyotdagi ilk lirik g'azal deb baholanuvchi ushbu she'r "Qisas ul-anbiyo"dagi qaysi payg'ambar qissasidan olingan?

A. Nuh (a.s.), B. Sulaymon (a.s.), C. Yusuf (a.s.), D. Muso (a.s.)

20. Qirq kun baliq (nahang) qornida omon qolgan payg'ambarini belgilang

A. Yunus (a.s.), B. Solih (a.s.), C. Yusuf (a.s.), D. Ilyos (a.s.).

21. "Qisas ul-anbiyo"ga ko'ra Parvardigor Odamni qaysi kunda yaratgan?

A. Chorshanba, B. Payshanba, C. Juma, D. Yakshanba

22. Qaysi payg'ambar qissasi "Qissalar go'zali" deb nomlanadi?

A. Dovud (a.s.), B. Muso (a.s.), C. Yusuf (a.s.), D. Iso (a.s.)

23. Jamoling partavidin sham` o'ti gar gulsiton ermas,
Nedin parvona o't ichra o'zin solur Xaliloso? (Navoiy)

Ushbu baytda qaysi payg'ambar qissasiga ishora qilingan?

A. Dovud (a.s.), B. Muso (a.s.),
C. Yusuf (a.s.), D. Ibrohim (a.s.)

24. Xizr (a.s.) bilan hamroh bo'lib, undan ta'lim olmoqchi bo'lgan, ammo uning g'ayritabiiy ishlariga toqat qila olmagan payg'ambarini belgilang

A. Zulqarnayn, B. Muso (a.s.),
C. Sulaymon (a.s.), D. Idris (a.s.).

25. Zolim shoh Daqyanus zulmidan qochib g'orga yashiringan va uch yuz yil uxlagan imonli kishilar sarguzashti "Qisas ul-anbiyo"ning qaysi bobida keltirilgan

- A. "As'hobi kaf" qissasi, B. "As'hobi fil" qissasi,
C. "Zulqarnayn" qissasi, D. "Idris" qissasi

26. "Qisasi Rabqo'ziy" kitobining (Toshkent, 1990) I kitobi qaysi payg'ambar qissasi bilan yakunlanadi?

- A. Muso (a.s.) qissasi, B. Sulaymon (a.s.) qissasi,
C. Yusuf (a.s.) qissasi, D. Dovud (a.s.) qissasi

27. Rabg'o'ziyning "Qisas ul-anbiyo" asaridagi she'riy parchalar qaysi tilda yozilgan?

- A. Turkiy tilda, B. Turkiy va fors-tojik tilida,
C. Turkiy va arab tilida, D. Barchasi to'g'ri.

28. Rabg'o'ziyning "Qisas ul-anbiyo" asarida necha payg'ambar tarixi bayon etilgan?

- A. 20

1. "Turk elining shayx ul-mashoyixi" kim va bu kimning ta'rifi?

- A. Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, B. Ahmad Yassaviy, Amir Temur,
C. Ahmad Yugnakiy, Amir Temur, D. Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy

2. Nafsga qashi kurash g'oyalari kimning asarlarida ko'p tilga olinadi?

- A. Ahmad Yassaviy, B. Ahmad Yugnakiy,
C. Yusuf Xos Hojib, D. Mahmud Qoshg'ariy

3. Ahmad Yassaviyning ustozlari kimlar?

- A. Arslonbob, Abduxoliq G'ijduvoni, y
B. Yusuf Hamadoni, Imom A'zam
C. Yusuf Hamadoni, Abduxoliq G'ijduvoni, y
D. Arslonbob, Yusuf Hamadoni

4. Ahmad Yassaviy hikmatlari asosan qaysi vazn va shaklda yozilgan?

- A. Aruz vazni, murabba', B. Barmoq vazni, to'rtlik

C. Aruz vazni, to'rtlik,

D. Barmoq vazni, masnaviy

5. "Faylasuf" so'zining ikkinchi qismi qanday ma'noni bildiradi?

A. Jundan to'qilgan mato, B. Donishmandlik, C. So'fiy, D. Ko'ngli toza

6. Ibrohim Adham, Abdulloh ibn Muborak:

A. Tasavvufning zohidlik davri namoyandalari,

B. Muhaddislar

C. Tasavvufning oriflik davri namoyandalari,

D. Qadimgi tarixchilar

7. "Karomoti oliy va nomaqsur" deb ta'riflangan insonni aniqlang.

A. Ahmad Yugnakiy,

B. Sulaymon Boqirg'oni,

C. Ahmad Yassaviy,

D. Alisher Navoiy

8. XX asr o'zbek adabiyotshunosligida Ahmad Yassaviy ijodini o'rganishga doir ilk tadqiqot muallifi.

A. Abdurauf Fitrat,

B. A.Sa'diy,

C. I.Haqqul,

D. N.Mallaev

130. O'zbekistonda Yassaviy hikmatlarini ilk bora yaxlit holda nashr ettirgan olimni belgilang

A. S.Rafiddinov,

B. A.Fitrat,

C. M.Hasaniy,

D. I.Haqqul

131. Alisher Navoiyning bergan ma'lumotiga ko'ra Sulaymon Boqirg'oniya Hakim Ota taxallusini kim bergan?

A. Xizr payg'ambar,

B. Ahmad Yassaviy,

C. Otasi,

D. Xorazm hukmdori

132. Qaysi manbada Hakim Ota va Sulaymon Boqirg'oni ikki shaxs sifatida noto'g'ri ko'rsatilgan.

A. "Nasoyim ul-muhabbat",

B. "Rashahoti aynil hayot"

C. "Hakim ota kitobi",

D. Mallaev N. "O'zbek adabiyoti tarixi"

133. Ahmad Yassaviy bilan bir murshid tarbiyasini olgan mashhur shayx va tariqat asoschisini belgilang

A. Yusuf Hamadoniy,

B. Abduxoliq G'ijduvoniy,

C. Bahovaddin Naqshband,

D. Hakim Ota.

134. "Oxir zamon muxammasi", "Bibi Maryam kitobi" kabi asarlar muallifi

- A. Ahmad Yassaviy, B. Sulaymon Boqirg'oniy,
C. Ahmad Yugnakiy, D. Ismoil al-Buxoriy.

135. "Boqirg'on kitobi" ni kim nashrga tayyorladi?

- A. I.Haqqulov, B. S.Raf'iddinov, C. M.Hasaniy, D. I.Haqqulov, S.Raf'iddinov.

136. Baytning muallifini toping:

Har kim ko'rsang Xizr bil,
Har tun ko'rsang Qadr bil.

- A. Ahmad Yassaviy, B. Sulaymon Boqirg'oniy, C. Alisher Navoiy, D. Atoyi.

**137. Bismilloh deb bayon aylab, hikmat aytib,
Toliblarga duru guhar sochtim mano.**

Riyoizatni mahkam tutib qonlar yutib... - damom ettiring:

- A. Ko'ngli qattiq xaloyiqdin qochtim mano,
B. G'ariblarning izin izlab tushdim mano,
C. Man daftari soniy so'zin ochtim mano,
D. Haqdin eshtib bu so'zlarni aydim mano.

138. "Riyoizat" so'zini qanday tushunasiz?

- A. Shariat qoidalari, B. Nafsga qarshi kurash yo'lidagi mashaqqat,
C. Luqma halolligini saqlash. D. Riyokorlikka qarshi kurashish.

139. Rashiddinning "Jome' ut-tavorix" asarida qaysi hukmdor haqida ko'p hikoyatlar bor?

- A. Chingizxon, B. Hulaguxon, C. Jo'ji, D. O'ktoyxon.

140. "Jome' ut-tavorix" asarida qaysi qabilalar to'g'risida so'z yuritiladi?

- A. Eron qabilalari, B. Hind qabilalari,
C. Xitoy qabilalari, D. Turk-mo'g'ul qabilalari.

141. Oltin O'rda adabiyoti qaysi xalqning bosqini natijasida paydo bo'ldi?

- A. Arablar, B. Eroniylar, C. Xitoy, D. Mo'g'ullar.

142. "Qisasi Rabg'uziy"ni yozishda Rabg'uziy qaysi manbalardan foydalandi?

- A. Nishopuriyning "Qisasul-anbiyo"sidan, "Ka'b-ul-axbor"dan, Qur'ondan.

- B. Xalq og'zaki ijodidan, Qur'ondan va "Ka'b-ul-axbor"dan,
 C. "Qutadg'u bilig"dan, "Hibat ul haqoyiq"dan, "Ka'b-ul-axbor"dan, Qur'ondan.
 D. "Jome'ut tavorix"dan, xalq ijodidan, Qur'ondan va "Ka'b-ul-axbor"dan.

143. Oltin O'rda adabiy muhiti qaysi mamlakatga va davlatga ko'chdi?

- A. Eronga, sosoniylar davlatiga, B. Mo'g'ulistonga, idikut davlatiga,
 C. Misrga, mamluklar davlatiga, D. O'rta Osiyoga, Temuriylar davlatiga.

144. Misr mamluklar turkiy adabiyoti qaysi adabiy muhitning davomi sifatida qaraladi?

- A. Arab adabiy muhiti, B. Qoraxoniylar davri adabiy muhiti,
 C. Fors tojik adabiyoti, D. Oltin O'rda adabiy muhiti.

145. "Faxruz zamon" unvoniga sazovor bo'lgan shoirni belgilang

- A. Abu Abdullo Ro'dakiy, B. Abulqosim Firdavsiy,
 C. Badriddin Chochiy, D. Muhammad Avfiy.

146. Shamsiddin Somiyning tazkirasida qayd qilinishicha Movarounnahrda yashagan paytlarida turkiy tilda ham ijod qilgan asli Shosh (Toshkent)lik mashhur fors-tojik shoiri kim?

- A. Xusrav Dehlaviy B. Muhammad Avfiy
 C. Pahlavon Mahmud D. Badriddin Chochiy

147. "Kashf ul-asror" (Sirlarning kashf etilishi) asari kimning she'rlari (qasidaları)ni sharhlash maqsadida yozilgan

- A. Pahlavon Mahmud, B. Muhammad Avfiy,
 C. Sa'di Sheroziy, D. Badr Chochiy

148. "Javome' ul-hikoyot" asarining muallifini belgilang:

- A. Muhammad Avfiy, B. Sa'di Sheroziy,
 C. Badr Chochiy, D. Nizomiy Aruziy Samarqandiy,

149. To'rt qismdan iborat bo'lib, har bir qismi 25 bobga ajratilgan hamda ikki mingdan ortiq hikoyat keltirilgan asarni belgilang:

- A. "Guliston", B. "Latoyif at-tavoyif",
 C. "Javome' ul-hikoyot", D. "Lubob ul-albob".

150. "Kanz ul-haqoyiq" nomli falsafiy tasavvufiy masnaviy yozganligi qayd qilingan shoir kim?

- | | |
|--------------------|---------------------|
| A. Badr Chochiy, | B. Pahlavon Mahmud, |
| C. Muhammad Avfiy, | D. Nosir Xisrav |

151. Alisher Navoiy "Pakkayor" taxallusi bilan qaysi shoirni tilga olgan

- | | |
|-----------------------|---------------------|
| A. Pahlavon Mahmud, | B. Xusrav Dehlaviy, |
| C. Pahlavon Muhammad, | D. Muhammad Avfiy. |

152. Pahlavon Mahmudning "Qitoliy" taxallusi bilan yozgan g'azali qaysi manbada keltirilgan?

- | | |
|--------------------------|---------------------------|
| A. "Majolis ul-ushshoq", | B. "Nasoyim ul-muhabbat", |
| C. "Otashkadai Ozariy", | D. "Qomus ul-a'lam". |

**153. Uch yuz Ko'hi Qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq,
Yoinki bir asr zindonda yotmoq....**

Keyingi misrani to'g'ri belgilang.

- | | |
|--------------------------------------|--|
| A. Hijron azobidan ko'ra yaxshiroq, | B. Yorning jafosidan ko'ra yaxshiroq |
| C. Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq, | D. Nafsning kulfatidan ko'ra yaxshiroq |

154. Nosiriddin Rabg'uziyning otasi kim bo'lgan?

- | | |
|------------------------------|------------------------------------|
| A. Raboti o'g'uzning hokimi, | B. Raboti o'g'uzning shayxi |
| C. Raboti o'g'uzning qozisi, | D. Otasi haqida aniq ma'lumot yo'q |

155. Nosiriddin To'qbug'aning "Iltimos yanglig' ishorati" bilan yozilgan asarni belgilang

- | | |
|-------------------------------|----------------------------------|
| A. "Guliston bit- turkiy", | B. "Muhabbatnoma" |
| C. "Xusrav va Shirin" (Qutb), | D. "Qasas ul-anbiyo" (Rabg'uziy) |

156. Rabg'uziyning "Qasas ul-anbiyo" asari nechta qadimiy qo'lyozma nusxaga ega, ular qayerda saqlanadi?

- | |
|---|
| A. 2 ta, London va Sankt-Peterburgda, |
| B. 2 ta, Parij kutubxonasi va Istanbulda |
| C. 3 ta, Britaniya (London), Leyden (Gollandiya), Sankt- Peterburg, |
| D. 2 ta, London va Istanbulda |

157. Rabg'uziyning "Qasas ul-anbiyo" asarini O'zbekistonda ilk bora kim nashr ettirdi?

A. E.Fozilov, A.Yunusov, H.Dadaboev,
C. Q.Mahmudov,

B. I.Haqqulov, S.Raf'iddinov,
D. Q.Karimov

158. "Yalavoch" so'zi "Qisas ul-anbiyo"da kim yoki kimlarga nisbatan qo'llangan?

A. Nosiriddin To'qbug'aga,
C. Payg'ambarlarga,

B. Podshohlarga,
D. Sipohiylarga

**159. Yeti yuz o'n erdi yilg'akim bitildi bu kitob,
Tug'mish erdi ul o'g'urda hut saodat yulduzi.
Ushbu baytda qaysi asarning yozilish tarixi ko'rsatilgan?**

A. "Muhabbatnoma",
C. "Qisas ul-anbiyo",

B. "Guliston bit turkiy",
D. "Xusrav va Shirin"

160. "...to'at yo'linda tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqluq, ko'p yozuqluq" shoir kim?

A. Ahmad Yassaviy,
C. Sayfi Saroyi,

B. Ahmad Yugnakiy,
D. Nosiriddin Rabg'o'ziy.

161. 1948-yilda H.Gronbek tomonidan Kopengagenda nashr ettirilgan asarni belgilang

A. "Qutudg'u bilig",
C. "Qasas ul-anbiyo",

B. "Muhabbatnoma",
D. "Hibat ul-haqoyiq"

162. "Qasas ul-anbiyo"dagi Nosiriddin To'qbug'a madhiyasi qaysi she'riy shaklda yozilgan?

A. Masnaviy, B. To'rtlik, C. Musallas, D. Qasida.

**163. Kun hamalg'a kirdi ersa keldi olam navro'zi,
Kechdi Bahman zamharir qish, qolmadi qori bo'zi...
Turkiy adabiyotdagi ilk lirik g'azal deb baholanuvchi ushbu she'r
"Qisas ul-anbiyo"dagi qaysi payg'ambar qissasidan olingan?**

A. Nuh (a.s.), B. Sulaymon (a.s.), C. Yusuf (a.s.), D. Muso (a.s.).

164. Qirq kun baliq (nahang) qornida omon qolgan payg'ambarni belgilang:

A. Yunus (a.s.), B. Solih (a.s.), C. Yusuf (a.s.), D. Ilyos (a.s.).

165. "Qisas ul-anbiyo"ga ko'ra Parvardigor Odamni qaysi kunda yaratgan?

A. Chorshanba, B. Payshanba, C. Juma, D. Yakshanba

166. Qaysi payg'ambar qissasi "Qissalar go'zali" deb nomlanadi?

A. Dovud (a.s.), B. Muso (a.s.), C. Yusuf (a.s.), D. Iso (a.s.)

**167. Jamoling partavidin sham` o'ti gar gulsiton ermas,
Nedin parvona o't ichra o'zin solur Xaliloso? (Navoiy)**

Ushbu baytda qaysi payg'ambar qissasiga ishora qilingan?

A. Dovud (a.s.), B. Muso (a.s.),
C. Yusuf (a.s.), D. Ibrohim (a.s.)

168. Xizr (a.s.) bilan hamroh bo'lib, undan ta'lim olmoqchi bo'lgan, ammo uning g'ayritabi'iy ishlariga toqat qila olmagan payg'ambarni belgilang

A. Zulqarnayn, B. Muso (a.s.),
C. Sulaymon (a.s.), D. Idris (a.s.).

169. Zolim shoh Daqyanus zulmidan qochib g'orga yashiringan va uch yuz yil uxlagan imonli kishilar sarguzashti "Qisas ul-anbiyo"ning qaysi bobida keltirilgan?

A. "As'hobi kaf" qissasi, B. "As'hobi fil" qissasi,
C. "Zulqarnayn" qissasi, D. "Idris" qissasi

170. "Qisasi Rabgo'ziy" kitobining (Toshkent, 1990) I kitobi qaysi payg'ambar qissasi bilan yakunlanadi?

A. Muso (a.s.) qissasi, B. Sulaymon (a.s.) qissasi,
C. Yusuf (a.s.) qissasi, D. Dovud (a.s.) qissasi

171. Rabg'o'ziyning "Qisas ul-anbiyo" asaridagi she'riy parchalar qaysi tilda yozilgan?

A. Turkiy tilda, B. Turkiy va fors-tojik tillarida,
C. Turkiy va arab tillarida, D. Turkiy va fors-tojik va arab tillarida.

172. "Qisas ul-anbiyo" (Rabg'o'ziy) asarining 1990-yildagi nashrida qaysi payg'ambar qissasi mavjud emas?

A. "Zulqarnayn" qissasi,
C. "Ayyub" qissas ,

B. "Idris" qissasi
D. To'g'ri javob yo'q.

173. Ka'ba devoridagi qora tosh ("hajarul asvad")ning paydo bo'lish tarixi "Qisas ul-anbiyo" (Rabg'o'ziy) asaridagi qaysi payg'ambar qissasida keltirilgan?

A. "Zulqarnayn" qissasi,
C. "Odam a.s." qissas ,

B. "Ibrohim a.s." qissasi
D. "Muhammad a.s." qissasi.

174. Mumtoz she'riyatdagi qaysi she'riy san'atning mazmun-mohiyatini tushunishda Rabg'o'ziy asarining ahamiyati kata?

A. Talmeh san'ati,
C. Tashxis san'ati,

B. Kitobat san'ati,
D. Irsoli masal san'ati.

175. Asosan hadislarining sharhidan iborat bo'lgan "Nahjul farodis" asarining muallifini toping

A. Sayfi Saroyi,
C. Ismoil al-Buxoriy,

B. Mahmud as-Saroyi,
D. Qul ali.

176. Rabg'o'ziydan oldin Qur'ondagi qissa asosida turkey tilda yaratilgan "Qissai Yusuf" asarining muallifini toping

A. Ibn Sino,
C. Ismoil al-Buxoriy,

B. Mahmud as-Saroyi,
D. Qul ali.

177. "Nahjul farodis" va "Qissai Yusuf" asarlari qaysi davr adabiyoti mahsuli sanaladi?

A. Qoraxoniylar davri,
C. Mug'ullar hukmronligi davri,

B. Xorazmshohlar davri,
D. Temuriylar dvri.

178. Xorazmiy "Muhabbatnoma"si muqaddimasidagi ushbu baytning ikkinchi misrasida qaysi payg'ambar qissasiga ishora etilgan?

Qilur Ayyubni mehnat bila yor,

Taqi o't ichra Ozar o'g'lin asror.

A. Muso (a.s.) qissasi,
C. Yusuf (a.s.) qissasi,

B. Sulaymon (a.s.) qissasi,
D. Ibrohim (a.s.) qissasi.

1. O'zbek adabiyotida noma janrida yozilgan ilk asarni belgilang:

- A. "Latofatnoma", B. "Muhabbatnoma",
C. "Taashshuqnoma", D. "Dahnoma"

2. Quyidagi asarlar orasidan noma janrida yozilganlarini belgilang:

1. "Shohnoma", 2. "Muhabbatnoma", 3. "Siyosatnoma", 4. "Latofatnoma",
5. "Taashshuqnoma", 6. "Dahnoma", 7. "Zafarnoma", 8. "Saodatnoma"

- A. 2, 3, 4, 5, 7. B. 2, 4, 5, 6.
C. 1, 2, 4, 5, 8. D. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8.

3. Noma janrida yozilgan quyidagi asarlarning mualliflarini to'g'ri tartibda joylashtiring:

1. "Muhabbatnoma", 2. "Latofatnoma",
3. "Taashshuqnoma", 4. "Dahnoma", 5. "Haqiqatnoma"

- A. Xorazmiy, Xo'jandiy, Said Ahmad, Yusuf Amiriy, Said Qosimiy.
B. Xorazmiy, Said Ahmad, Xo'jandiy, Yusuf Amiriy, Said Qosimiy.
C. Xo'jandiy, Xorazmiy, Yusuf Amiriy, Said Ahmad, Said Qosimiy.
D. Xorazmiy, Xo'jandiy, Yusuf Amiriy, Said Qosimiy, Said Ahmad.

4. Muhammaddin muhabbat bo'ldi paydo,

Meni bunday muhabbat qildi shaydo.

Ushbu bayt qaysi asar muqaddimasidan olingan?

- A. Xo'jandiyning "Latofatnoma", B. Xorazmiyning "Muhabbatnoma"
C. Durbekning "Yusuf va Zulayho", D. Said Qosimiyning "Haqiqatnoma"

5. Ushbu bayt haqida bildirilgan to'g'ri fikrlarni belgilang:

Tahammul yaxshi ishdur pasha qilmoq,

Taxayyul birla ham andesha qilmoq

1. Xorazmiy qalamiga mansub, 2. Xo'jandiy qalamiga mansub, 3. Said Ahmad qalamiga mansub, 4. Asar shu bayt bilan boshlanadi, 5. Bu bayt asarda bir necha marotaba takrorlangan, 6. Bu bayt Xorazmiyga nazira tarzida yozilgan, 7. Asar shu bayt bilan yakunlanadi, 8. Bu bayt Alisher Navoiyning nazariga tushgan

- A. 3, 5, 6. B. 1, 5, 8. C. 2, 4, 6. D. 1, 7, 8.

6. Ushbu baytda qaysi asarning yozilish tarixi ko'rsatilgan va bu qaysi yilga to'g'ri keladi?

Bitidik emdi tarixini kotib,

Erur tarixi uchun "zabti vojib".

- A. "Latofatnoma", 823. B. "Taashshuqnoma", 812.
C. "Muhabbatnoma", 754. D. "Dahnoma", 823.

7. Sekiz yuz o'ttuz to'qquzda erdi,

**Ki so'z poyona yetmak dast berdi - baytida ko'rsatilgan sana (melod.)
va uning muallifini toping**

- A. 1435, "Taashshuqnoma". B. 1353, "Muhabbatnoma".
C. 1435, "Latofatnoma". D. 1430, "Dahnoma".

8. Muhabbat jomidin ichsang sharobe,

**"Muhabbatnoma"ga aysang javobe... "Muhabbatnoma"ga javob
aytmoqchi bo'lgan shoirni toping**

- A. Xo'jandiy. B. Said Ahmad. C. Yusuf Amiriy. D. Xorazmiy.

**9. Xorazmiy "Muhabbatnoma"sining uyg'ur yozuvidagi nusxasini ko'chirgan
kotib nomini aniqlang**

- A. Abdurazzoq Baxshi. B. Boqi Mansur.
C. Abduljamil kotib. D. Zaynulobiddin.

**10. "Muhabbatnoma" tarkibidagi shoir hayotiga oid ba'zi ma'lumotlar
berilgan bobni aniqlang**

- A. "Avval ko'rishganin aytur". B. "Bayoni voqein aytur".
C. "Forsiy hikoyat". D. Barchasi to'g'ri.

11. Xorazmiy "Muhabbatnoma"si qaysi janrdagi she'r bilan yakunlanadi?

- A. Masnaviy. B. Munojot.
C. Fard. D. G'azal.

12. Ko'ngul bahrinda ko'p gavharlaring bor,

Ochunda forsiy daftarlaring bor... ushbu bayt:

- A. Shoir (Xorazmiy)ning o'z-o'ziga qaratilgan nutqi.
B. Shoirning hukmdorga qaratilgan nutqi..
C. Hukmdorning shoirga qaratilgan nutqi.
D. Hukmdor (Xo'jabek)ning o'z-o'ziga qaratilgan nutqi.

13. Xorazmiy taxallusi bilan yozilgan g'azal qaysi manbada uchraydi?

- A. Sayfi Saroyi asarlari qo'lyozmasida.
- B. Navoiyning "Majolis un-nafoyis" tazkirasida
- C. Lutfiy devonining qo'lyozma nusxasida.
- D. "Yodgornoma" deb nomlangan tarixiy manbada.

14. Ushbu matla` muallifini belgilang;

Soldi niqob chehratin ul turki xovari,

Bo'ldi jahon yuzi yana oynadek ari.

- A. Sayfi Saroyi.
- B. Rabg'o'ziy.
- C. Xorazmiy.
- D. Atoyi.

15. Fariduddin Attor asarlarining turkiy tildagi ilk badiiy tarjimalaridan bo'lgan asarni belgilang:

- A. Lutfiy - "Zafarnoma" asari.
- B. Sayfi Saroyi - "Guliston bit-turkiy.
- C. Said Qosimiy - "Haqiqatnoma"
- D. Haydar Xorazmiy - "Gulshan ul-asror"

16. Noma janri uchun aruzning qaysi vazni xos?

- A. Hazaji musammani mahzuf,
- B. Ramali musaddasi mahzuf,
- C. Hazaji musaddasi mahzuf,
- D. Ramali musammani mahzuf.

17. Qilur Ayyubni dardu g'am bila yor,

Ham ul o't ichra Ozar o'g'lin asror... - baytning ikkinchi misrasi

kim haqida?

- A. Muso payg'ambar,
- B. Nuh payg'ambar,
- C. Yunus payg'ambar,
- D. Ibrohim payg'ambar.

18. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" da Xorazmiyning qaysi baytini keltirgan?

- A. Ayo, ko'rk ichra olam podshohi,
Jahon tutti sening mulking sipohi.
- B. Saburdin yaxshi yo'qtur pesha qilsam,
Bu yo'lda sabr yo'q andesha qilsam.
- C. Bo'yung sarvu sanubardek, beling qil,
Vafo qilg'on kishilarg'a vafo qil.
- D. Aningkim ol enginda meng yaratti,
Bo'yi birla sochini teng yaratti.

19. Qaysi shoir noma janriga epik xususiyat berib, nomalarni kichik bir voqea bilan qoliplagan?

A. Yusuf Amiriy, B. Xo'jandiy, C. Said Ahmad, D. Said Qosimiy.

20. Qaysi shoir o'z asarini "Misr qandi" deb ta'riflagan?

A. Sayfi Saroyi, B. Durbek, C. Haydar Xorazmiy, D. Xorazmiy.

21. Qutbning "Xusrav va Shirin" dostonida Xusrav Bahrom cho'bin bilan jang qilish uchun qaysi mamlakatdan yordam oldi?

A. Rumdan, B. Erondan, C. Mo'g'ulistondan, D. Xorazmdan.

22. "Gulistoni bit-turkiy"dan quyidagi uzilib qolgan parchaning davomini toping: "U o'lumli kishi ne aytur?"

A. Zahhok mulkining zavoli ne erdi, B. Sulton yoshi uzun bo'lsun,
C. Buyrug'ing bo'lsa man ani sokin qilayin. D. Sulton odil, mushfiq bo'lg'ay.

23. "Gulistoni bit-turkiy" asari necha bobdan iborat?

A. 5 bob, B. 10 bob, C. 8 bob, D. 9 bob.

24. "Gulistoni bit-turkiy" kimning asari tarjimasi?

A. Avfiy Buxoriy, B. Nizomiy Ganjaviy, C. Sa'diy, D. Hofiz She'roziy.

25. "Panj ganj" tarkibidagi dostonlarning turkiy tildagi ilk badiiy tarjimasini belgilang

A. Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror",
B. Qutbning "Xusrav va Shirin"
C. Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy",
D. Lutfiyning "Zafarnoma" dostoni.

26. Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni qaysi hukmdor nomiga bitilgan?

A. Jonibekxon, B. Tinibekxon, C. Tavg'ach Bug'raxon, D. Arslonxo'ja Tarxon

27. Ushbu bayt qaysi asarga tegishli?

Qozontek qaynab-ush savdo pishirdim,
Nizomiy bolidin halvo pishirdim.

A. Haydar Xorazmiy, "Maxzan ul-asror", B. Qutb, "Xusrav va Shirin"
C. Navoiy, "Farhod va Shirin", D. Xorazmiy, "Muhabbatnoma"

28. Nizomiy Ganjaviyning 102 bobdan iborat bo'lgan "Xusrav va Shirin" dostoni Qutbning badiiy tarjimasida necha bobdan iborat?

- A. 91 B. 96 C. 98 D. 102.

29. Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni qaysi kotib tomonidan ko'chirilgan?

- A. Abdurazzoq Baxshi, B. Zaynulobiddin,
C. Hasan qora Sayl Shams, D. Barka Faqih.

30. Sayfi Saroyi asarlarining yagona qo'lyozma nusxasi qaerda saqlanadi?

- A. Sankt-Peterburgda, B. Venadagi qirollik kutubxonasida
C. Gollandiyaning Leyden universitetida, D. Londondagi Britaniya muzeyida

31. Sayfi Saroyi she'rlari va "Guliston" asarini ilk bora O'zbekistonda nashr ettirgan olimni belgilan?

- A. E.Fozilov B. H. Dadaboev C. B.To'xliiev D. P.Shamsiev

32. Mavloni Qozi Muhsin, Mavloni Ishoq, Xorazmiy, Abdulmajid kabi shoirlarning g'azallariga nazira yozgan shoirni belgilang

- A. Sayfi Saroyi B. Lutfiy C. Haydar Xorazmiy D. Atoy

**33. Muddati hijrat edi yuz to'qson uch,
 Yil edikim, oz edi olamda kuch.**

Ushbu baytda qaysi asarning yozilish tarixi ko'rsatilgan?

- A. "Qisas ul-anbiyo", B. "Muhabbatnoma"
C. "Guliston bit-turkiy", D. Suhayl va Guldursun".

34. Yoz kuni bir bo'stonda olimlar davrasida bir ulug' olimning bayt vazniga doir qiyin savoliga javob bergach, o'sha olim bir mashhur asarni turkiy tilga tarjima qilishni taklif qiladi. Buning natijasi o'laroq yaratilgan asarni belgilang:

- A. Sayfi Saroyi "Suhayl va Guldursun",
B. Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror"
C. Qutb "Xusrav va Shirin",
D. Sayfi Saroyi "Guliston bit-turkiy"

35. Amir Batxasbek (ba`zi manbalarda Tayxosbek) nomiga bitilgan asarni toping

- A. Sayfi Saroyi "Suhayl va Guldursun",
- B. Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror"
- C. Qutb "Xusrav va Shirin",
- D. Sayfi Saroyi "Guliston bit-turkiy"

36. "Guliston bit-turkiy" necha bobdan iborat?

- A. Olti bob. B. Etti bob. C. Sakkiz bob. D. To'qqiz bob.

37. Amir Temurning Xorazmga qilgan yurishi tasviri bilan boshlanuvchi asarni belgilang

- A. "Gul va Navro'z", B. "Yusuf va Zulayho",
- C. "Suhayl va Guldursun", D. "Gulshan ul-asror".

**38. Sayfi Saroyi nazmi husnuning sifoti birla
Doim bu el tilinda xush dilsiton ko'rinur
Ushbu bayt mazmuniga mos atamani toping?**

- A. Hasbu hol. B. Mav'iza. C. Faxriya. D. Madhiya

39. "Guliston bit-turkiy" asari qaysi to'plam tarkibida nashr ettirilgan?

- A. "Navoiyning nigohi tushgan", B. "Hayot vasfi",
- C. "Uch bulbul gulshani", D. "Muborak maktublar"

40. Baytning manbaini aniqlang:

**Menki pishirdim bu laziz oshni,
Shayx nizomiydin olib choshni.**

- A. "Xusrav va Shirin" (Qutb). B. "Gulshan ul-asror".
- C. "Hayrat ul-abror". D. "Farhod va Shirin".

41. "Xorun bilan Bahlul" hikoyati qaysi asarda keltirilgan?

- A. "Qisas ul-anbiyo" B. "Gulshan ul-asror".
- C. "Hayrat ul-abror". D. "Sab'ayi sayyor".

42. Alisher Navoiy kimni Sulton Iskandar zamonida shuhrat qozongan shoir sifatida tilga oladi?

- A. Mavlono Atoyi. B. Mavlono Sakkokiy.

C. Mavlono Lutfiy.

D. Mavlono Haydar (Xorazmiy).

43. "Gul va Navro'z" dostonidagi Chin Xoqonining chegaralarini himoya qilgan zangi (qora tanli) shafqatsiz odam timsolini toping.

A. Bahman.

B. Yaldo.

C. Shayx Najdiy.

D. Javhar.

**44. Nasr edi, bu qissa dog'i porsi,
Erdi anga jon ko'zi nazzorasi.
Bor edi ko'ngulda burundin bu azm,
Turki tili birlamu qilsam bu nazm.**

Ushbu baytlar qaysi asarning yozilish tarixi haqida?

A. "Gul va Navro'z".

B. "Suhayl va Guldursun".

C. "Yusuf va Zulayho".

D. "Guliston bit-turkiy".

45. Qaysi asarning yozilish tarixi "zod", "he" va "dol" harflari bilan berilgan?

A. "Gul va Navro'z".

B. "Suhayl va Guldursun".

C. "Yusuf va Zulayho".

D. "Guliston bit-turkiy".

46. Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari topilgach, qaysi doston muallifi masalasiga bir qadar oydinlik kiritildi?

A. "Yusuf va Zulayho".

B. "Gulshan ul-asror".

C. "Gul va Navro'z".

D. "Suhayl va Guldursun".

47. "Yusuf va Zulayho" dostoni qaysi bahrda yozilgan?

A. Hazaj.

B. Ramal.

C. Sari`.

D. Mutaqorib.

48. Kichik davlatlarni birlashtirib, katta, mustahkam davlat tuzish g'oyasi qaysi asar xotimasida bor?

A. "Gul va Navro'z".

B. Suhayl va Guldursun".

C. "Yusuf va Zulayho".

D. "Gulshan ul-asror".

49. Balx shahri qamali qaysi asar muqaddimasida tasvirlangan?

A. "Gul va Navro'z".

B. Suhayl va Guldursun".

C. "Yusuf va Zulayho".

D. "Gulshan ul-asror".

50. "Yusuf va Zulayho" dostonidagi ushbu nutq qaysi timsolga tegishli?

Meni bu o'g'lonlaring ushbu zamon,
Tuttilaru qildilar og'zimni qon.
Ushbu jamoat bori osiy erur,
Yusufingga barchasi joniy erur.

- A. Yusuf. B. Tujjor (savdogar). C. Kiyik. D. Bo'ri.

**51. "Zod" edi tarix taqi "he"yu "dol",
Muddati hijratdin o'tub mohu sol-
bayti qaysi asardan olingan va u qachon yozilgan?**

- A. "Gul va Navruz" dostonidan, 1417 yil.
B. "Yusuf va Zulayho" dostonidan, 1409 yil.
C. "Hayrat ul-abror" dostonidan, 1483 yil.
D. Atoyining devonidan, 1438 yil.

**52. Dedi: "Ayo, ikki ko'zim ravshani,
Boshdin ayoq, o'rtading o'g'lim mani.
Bu ne alam, bu ne qazodur sanga?
Bu ne sitam, bu ne jafodur sanga?**

Ona tilidan aytilgan ushbu iztirobli baytlar qaysi asar qahramoniga tegishli?

- A. "Gul va Navro'z". B. "Xusrav va Shirin".
C. "Suhayl va Guldursun". D. "Yusuf va Zulayho".

53. "Gul va Navro'z" dostonidagi Javhar kim?

- A. Gulni suvdan qutqarib olgvan g'avvos.
B. Gul va Navro'z suzgan kema xo'jayini.
C. Adan davlatining pahlavon jangchisi.
D. Gul va Navro'zga Chindagi butxonadan qochishga ko'maklashgan kishi.

54. Ushbu hikmatli bayt qaysi shoir qalamiga tegishli?

Har neki sotsang bu kun, ey hushyor,
Ham senga-o'q sotqay ani ro'zgor.

- A. Navoiy. B. Atoy.
C. Haydar Xorazmiy. D. Sayfi Saroyi.

55. Qaysi manbada Haydar xorazmiyning ikki dostoni xamsanavislik an`analarining namunasi sifatida (vazniga ko'ra) tilga olingan.

- A. "Majolis un-nafoyis". B. "Muxtasar".
C. "Mezon ul-avzon". D. "Boburnoma".

56. Alisher Navoiy tomonidan "darveshvash, xushxulq va munbasit" deya ta`riflangan shoirni aniqlang?.

- A. Atoyi. B. Sakkokiy. C. Gadoyi. D. Lutfiy.

57. Atoyi devonini aniqlagan va ilk bora uning 17 ta g'azalini e`lon qilgan olimni aniqlang.

- A. A.Samoylovich. B. N.Ilminskiy. C. A.Fitrat. D. V.Radlov.

58. Otoyi. "Tanlangan asarlar" nomi bilan shoir g'azallarini 1958 yilda nashr ettirgan olimni belgilang?

- A. E.Fozilov. B. E.Rustamov. C. S.Raf'iddinov. D. E.Ahmadxo'jaev.

59. Atoyi g'azallari "O'zbek adabiyoti bo'stoni" seriyasidagi qaysi to'plamga kiritilgan?

- A. Qadimiy hikmatlar". B. "Uch bulbul gulshani".
C. Muborak maktublar". D. "Hayot vasfi".

60. "Majoz va haqiqat" monografiyasining muallifini toping.

- A. I.Haqqulov. B. S.Raf'iddinov. C. N.Komilov. D. E.Rustamov.

61 Atoyi devonida nechta g'azal mavjud?

- A. 300 ta. B. 280 ta. C. 270 ta. D. 260 ta.

62. Navoiy bergan ma'lumotga ko'ra Atoyi qabri qayerda joylashgan?

- A. Hirot yaqinida. B. Samarqand yaqinida.
C. Balxda. D. Mashhada.

63. Turkiy adabiyotdagi ilk mustazod qaysi shoir adabiy merosida uchraydi?

- A. Atoyi. B. Gadoyi. C. Lutfiy. D.Navoiy.

64. Navoiy nazariga tushgan ushbu bayt muallifini belgilang.

Ul sanamkim suv yaqosinda paridek o'lturur,

G'oyati nozukligidin suv bila yutsa bo'lur.

A. Atoyi. B. Gadoyi. C. Lutfiy. D. Sakkokiy.

65. Navoiy ushbu baytda qanday "aybg'ina" borligini qayd etgan?

Ul sanamkim suv yaqosinda paridek o'lturur,

G'oyati nozukligidin suv bila yutsa bo'lur.

A. Vaznda xato. B. Qofiyada nuqson.
C. Mantiqiy mutanosiblik yo'q. D. Tasvir o'ta mubolag'ali

66. Atoyi g'azallarida eng ko'p uchraydigan vaznni belgilang.

A. Hazaji musaddasi mahzuf. B. Ramali musaddasi mahzuf.
C. Hazaji musammanim mahzuf. D. Ramali musammani mahzuf.

67. Ushbu bayt bilan boshlanuvchi she'rning janri va muallifini toping:

Jahondin ketti tashvishu, mabodoyi amon keldi,

Xaloyiq aysh eting, bu kun sururi jovidon keldi.

A. G'azal, Atoyi. B. Masnaviy, Gadoyi.
C. G'azal, Lutfiy. D. Qasida, Sakko'iy.

68. Taxallusi Pichoqchi degan ma'noni bildiruvchi shoirni aniqlang.

A. Atoyi. B. Sakkokiy.
C. Gadoyi. D. Suhayliy.

69. Quyida keltirilgan shoirlardan qaysilari "Majolis un-nafo'is"da tilga olingan:

1. Sayfi Saroyi. 2. Haydar Xorazmiy. 3. Xorazmiy. 4. Atoyi. 5. Durbek. 6. Gadoyi. 7. Lutfiy.

A. 2, 4, 6, 7. B. 2, 3, 4, 7. C. 1, 4, 5, 7. D. 4, 5, 6, 7.

70. Gadoiy devonida qanday janrdagi she'rlar mavjud?

A. g'azal, qasida, mustazod, tuyuq. B. g'azal, qasida, masnaviy, ruboiy.
C. g'azal, ruboiy, mustazod, to'rtlik. D. g'azal, qit'a, to'rtlik, fard.

71. Gadoiy devonida to'rtlik deb berilgan she'rlar aslida qaysi janrga mansub?

A. Ruboiy. B. Qit'a.
C. Tuyuq. D. Murabba'.

72. "Man arafa nafsahu faqad arafa robbah". Ko'pchilik shoirlarning asarlarida eslatib o'tiladigan ushbu hadisi sharif ma'nosi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.

- A. Nafsni tiymoq saodat belgisi.
- B. O'z nafsini tanigan robbisini qam taniydi.
- C. Robbini tanish nafsni tanishdan boshlanadi.
- D. Nafs insonning dushmani.

73. Turkiy adabiyotda qasidani alohida janr darajasiga ko'targan shoirni aniqlang.

- A. Atoyi.
- B. Sakkokiy.
- C. Gadoyi.
- D. Lutfiy.

74. Navoiyning bergan ma'lumotiga ko'ra Samarqandda Sakkokiy va Lutfiy qaqida qanday noto'g'ri fikr mavjud edi?

- A. Lutfiyning barcha yaxshi she'rlari aslida Sakkokiy qalamiga mansub.
- B. Sakkokiy Lutfiy she'rlarini o'qirlagan.
- C. Sakkokiy Lutfiyi hajv qilib she'rlar yozgan.
- D. Lutfiy Sakkokiyni hajv qilib she'rlar yozgan.

75. Alisher Navoiy Atoyini kimning avlodidan deb ta'riflaydi?

- A. Ahmad Yassaviy.
- B. Zangi Ota.
- C. Ismoil Ota.
- D. Hakim Ota.

76. "Zafarnoma" asarini turkiyga tarjima qilgan shoirni toping.

- A. Atoy.
- B. Lutfiy.
- C. Sayfi Saroyi.
- D. Haydar Xorazmiy.

77. Lutfiyning tariqat yo'lidagi ustoz kim edi?

- A. Xo'ja Ahrori Vali.
- B. Said Qosimi Anvor.
- C. Sa'duddin Koshg'ariy.
- D. Shahobiddin Xiyoboniy.

78. Qaysi manbada Lutfiy Shoshiy (Toshkentlik) nisbasi bilan tilga olingan?

- A. "Muxtasar".
- B. "Majolis un-nafoyis".
- C. "Boburnoma".
- D. "Funun ul-balog'a".

79. Alisher Navoiy Lutfiy haqida "mutaazzirul javob matla'lari bor" deganda nimani nazarda tutgan?

- A. Mashhur shoirlarning she'rlariga javob tarzida yozilgan matla'.
- B. Ko'p shoirlar javob yozishga harakat qilgan matla'.
- C. Javob aytib bo'lmaydigan yoki juda qiyin bo'lgan matla'.
- D. Savol-javob tarzida yozilgan matla'.

80. Umrining oxirlarida "oftob" radifli forscha qazal yozgan shoirni belgilang.

- A. Lutfiy. B. Jomiy. C. Atoy. D. Navoiy.

81. Ushbu faxriya baytda Lutfiy o'zini qaysi mashhur fors-tojik shoiriga qiyoslaydi?

**Ulug'bekxon bilar Lutfiy kamolin,
Ki rangin she'ri ...din qolishmas.**

- A. Sa'diy (Sheroziy). B. Hofiz (Sheroziy).
- C. Salmon (Sovajiy). D. Xusrav (Dehlaviy).

82. Ushbu she'r janri va muallifini toping.

**Ey avji malohat ustida oy yuzluk,
Gulzori latofat oro nargis ko'zluk,
Qoshingda agarchi egrilik bor vale,
Ul sarv kibi qaddingg'a bordur tuzluk.**

- A. Lutfiy, to'rtlik. B. Gadoyi, ruboiy. C. Gadoyi, tuyuq. D. Lutfiy, ruboiy.

**83. Ayoqingg'a tushar har lahza gesu,
Masaldurkim, chiroq tubi qorong'u... - matla'i bilan
boshlanuvchi g'azal uchun xarakterli bo'lgan tasvir vositasini toping.**

- A. Munozara usulida yozilgan. B. Irsoli masal san'ati asosida yozilgan.
- C. Raddul-matla' usuli qo'llangan. D. Portret san'ati yetakchilik qiladi.

84. Navoiyning ma'lumotiga ko'ra Lutfiy umrining so'ngida yozgan bir bayt forscha she'rini kimga vasiyat qilib qoldirgan?

- A. Navoiyga. B. Husayn Boyqaroga. C. Shayxim Suhayliyga. D. Jomiyga.

85. "Malik ul-kalom - Mavlono Lutfiy" (lotin yozuvida) nomli qo'llanma (1999) muallifini aniqlang.

- A. S.Erkinov. B. B.Valixo'jaev. C. E.Ahmadxo'jaev. D. A.Haitmetov.

86. "Turkiy nazm sehgari" (Lutfiy) ta'rifining muallifini aniqlang.

A. S.Erkinov. B. B.Valixo'jaev. C. E.Ahmadxo'jaev. D. A.Haitmetov.

87. Lutfiy devonini O'zbekistonda ilk bora nashr ettirgan olimni aniqlang

A. S.Erkinov. B. B.Valixo'jaev. C. E.Ahmadxo'jaev. D. A.Haitmetov.

88. "Humeyai hulal" asari muallifi, mavzusi

A. Fariduddin Attor, diniy, B. Xo'ja Ahror, axloqiy,
C. Jomiy, ilmiy, D. Navoiy, ilmiy

89. Abdurahmon Jomiyning devonini belgilang.

A. "Fotehat ush-shabob", B. "Bahoriston", C. "Sharhi Jomiy", D. "Xiradnoma"

90. Abdurahmon Jomiy nechta she'riy devon tuzgan?

A. 4 ta, B. 3 ta, C. 7 ta, D. 8 ta

91. Sa'diyning "Guliston" asariga o'xshatma sifatida yaratilgan asar.

A. Jomiy, "Bahoriston", B. Navoiy, "Lison ut-tayr",
C. Husayniy "Risola", D. Suhayliy "Layli va Majnun"

92. Navoiy tomonidan "Yori aziz" deb e'zozlangan shoir.

A. Shayximbek Suhayliy, B. Ahmad Hojibek,
C. Said Hasan Ardasher, D. Mirzobek Samarqandiy

93. "Layli va Majnun" nomida asarlar yaratgan ijodkorlarni toping.

A. Shayximbek Suhayliy, Navoiy, B. Xusrav Dehlaviy, Nizomiy
C. Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy, D. Barcha javoblar to'g'ri

94. Musiqa sohasida asarlar yaratgan ijodkorlarni belgilang.

A. Abdurahmon Jomiy, B. Darveshali Changiy,
C. Husayn Udiy, D. Barcha javoblar to'g'ri

“YOSMA ISH” SAVOLLARI

1. “Adabiyot” soʻzining lugʻviy hamda istiloh sifatidagi keng va tor maʼnolarini sharhlab bering (adab, -iyot, badiiy adabiyot).
2. Adabiyotshunoslik fanining tarkibiy qismlari haqida umumiy maʼlumot (adabiyot haqidagi ilm, adabiyot tarixi, nazariyasi, adabiy tanqid).
3. "Oʻzbek mumtoz va milliy uygʻonish adabiyoti" fanining predmeti, maqsad va vazifalari (.
4. Oʻzbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalasi (adabiyot tarixi-jamiyat tarixi, .
5. Oʻzbek mumtoz adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.
6. Islomgacha boʻlgan davr adabiyotini oʻrganish manbalari.
7. Mif va afsonalar qadimgi hayot aksi sifatida.
8. Moniy va uning taʼlimoti xususiyatlari. Moniylik sheʼrlarining mavzui. «Xuastuanift» (Moniylarning tavbanomasi) asarining oʻziga xos xususiyatlari.
9. Budda mazmunidagi turkiy adabiyot. Markaziy Osiyoda buddaviylikning xos xususiyatlari. «Oltun yoruq», «Shahzoda va bars» afsonalari.
10. “Oʻgʻuznoma” dostonida qadimgi turkiy mifologiyaning aks etishi (mustaqil ish).
11. Mifologiya va yozma adabiyot.
12. Qadimgi diniy kitoblar; "Avesto" haqida ma'lumot.
13. “Avesto”dagi mifologik sujetlar va qarashlar sharhi (mustaqil ish)
14. Qadimgi afsonalarda ishqiy-romantik mavzularning aks etishi.
15. Qadimgi afsonalarda qahramonlik pafosi.
16. Urxun-Enasoy obidalarining janr va badiiy xususiyatlari.
17. Qadimgi sheʼriyat va qoʻshiq namunalari.
18. “Devonu lugʻotit turk” asarida qadimgi sheʼriy va nasriy janrlar tadqiqi.
19. “Devonu lugʻotit turk” asaridagi toʻrtliklardan biri tahlili (mustaqil ish).
20. IX-XI asrlarda ilmiy madaniy rivojlanish omillari (mahalliy davlatlar, fors-dariy adabiy tili).
21. Markaziy Osiyoning buyuk allomalari asarlarida adabiyotshunoslik va badiiy ijod masalalari (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino).
22. Abu Mansur as-Solibiy va uning «Yatimat ud-dahr» asari.
23. Abu Rayhon Beruniyning “Oʻtmish xalqlaridan qolgan yodgorliklar” (“Osor ul-boqiya min qurun ul-holiya”) va “Mineralogiya asarlarida qadimgi ajdodlar madaniyati va badiiy tafakkuriga oid maʼlumotlar.
24. IX-XI asrlarda fors-tojik tilidagi adabiyotning shakllanish omillari (mahalliy davlatlar, fors-dariy adabiy tili).

25. Ro'dakiy hayoti va adabiy merosi (shaxsiyatiga oid ma'lumotlar, she'riyati, "Bo'yi jo'yi mo'liyon" qasidasi).
26. Firdavsiy hayoti, "Shohnoma" epopeyasining tuzilishi, "Shohnoma"da Rustam timsoli (Mustaqil ish).
27. Nizomiy Aruziy Samarqandiy va uning "Nodir hikoyatlar asari haqida nimalarni bilasiz?
28. Qoraxoniylar davlati va adabiy muhiti haqida nimalarni bilasiz?
29. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodini o'rganish tarixi.
30. "Qutadg'u bilig" dostonining qo'lyozma nusxalari.
31. "Qutadg'u bilig" dostoni kompozitsiyasi (vazn, she'riy shakl, boblar mundarijasi, muqaddima).
32. "Qutadg'u bilig" dostonidagi asosiy timsollar, ularning ramziy va g'oyaviy xususiyatlari.
33. "Qutadg'u bilig" dostonining badiiy xususiyatlari (vazn, she'riy shakllar, badiiy san'atlar).
34. "Qutadg'u bilig" dostonidagi to'rtliklarning mavzusi, mazmuni va g'oyaviy xususiyatlari.
35. Kuntug'di timsoliga tavsif.
36. Oyto'ldi timsoliga tavsif.
37. O'gdulmish timsoliga tavsif.
38. O'zg'urmish timsoliga tavsif.
39. "Qutadg'u bilig" dostonidan bitta to'rtlik tahlili (mustaqil ish).
40. Didaktik adabiyot, uning manbalari va o'ziga xosligi.
41. Ahmad Yugnakiy va uning "Hibat ul-haqoyiq" dostonini o'rganish tarixi, asar qo'lyozmalari va nashrlari.
42. "Hibat ul-haqoyiq" dostoni kompozitsiyasi (vazn, she'riy shakl, boblar mundarijasi).
43. "Hibat ul-haqoyiq" dostonida bilim va jaholat talqini.
44. "Hibat ul-haqoyiq" dostonida til odobi talqini.
45. "Hibat ul-haqoyiq" dostonida saxiylik va baxillik, talqini.
46. "Hibat ul-haqoyiq" dostonida kibr va harislik haqida.
47. "Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlaridagi to'rtliklarning mushtarak va farqli belgilari.
48. "Hibat ul-haqoyiq" dostonidan bitta to'rtlik tahlili (mustaqil ish).
49. Ahmad Yassaviy hayotiga oid qanday ma'lumotlaringiz bor?
50. Ahmad Yassaviy hikmatlarining janr xususiyatlari.
51. Ahmad Yassaviy hikmatlarining axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati.

52. Ahmad Yugnakiy va Ahmad Yassaviy to'rtliklarining qiyosiy tahlili (janr, vazn, mavzu, g'oyaviy-badiiy xususiyatlar).
53. Ahmad Yassaviy hikmatlaridan biri tahlili (mustaqil ish).
54. Mug'llar davri adabiyotining umumiy xususiyatlari.
55. Badriddin Chochiy haqida nimalarni bilasiz?
56. Fors-tojik tilidagi dastlabki tazkira va uning muallifi haqida nimalarni bilasiz? (Muhammad Avfiy, "Lubob ul-albob", 2 qism, 130, 169, Qasidayi Burda, Ro'dakiy, Firdavsiy).
57. Pahlavon Mahmud tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
58. Pahlavon Mahmud hayoti va ijodini o'rganishda Alisher Navoiyning o'rni.
59. Pahlavon Mahmudning axloqiy-falsafiy qarashlari.
60. Pahlavon Mahmud ruboiylarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
61. Nasiruddin Rabg'o'ziy tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
62. "Qasas ul-anbiyo"da muallif shaxsiyati (asar muqaddimasi va xotimasi tahlili).
63. "Qasas ul-anbiyo" manbalari (asarda tilga olingan diniy va tarixiy asarlar, ularning mualliflari).
64. Yusuf (a.s) qissasi Rabg'o'ziy talqinida (qissaning qisqacha mazmuni, asosiy obrazlar tahlili).
65. Rabg'o'ziy "Qasas ul-anbiyo" asarining umumta'lim maktab darsliklariga organilishi (9-sinf darslik va majmualari asosida).
66. "Qasas ul-anbiyo" (Rabg'o'ziy) asarining qo'lyozmalari, o'rganilishi, nashrlari (2, Britaniya, Sankt-Peterburg, Gronbek, Sherbak, E.Fozilov).
67. Rabg'o'ziy va turkiy she'riyat taraqqiyoti.
68. Rabg'o'ziyning "Qasas ul-anbiyo" asari kompozitsiyasi.
69. Rabg'o'ziyning "Qasas ul-anbiyo" asarida Sulaymon a.s. qissasi (mustaqil ish).
70. Rabg'o'ziyning "Qasas ul-anbiyo" asarida Iso a.s. qissasi (mustaqil ish).
71. "Noma" atamasining lug'aviy va istilohdagi ma'nolari.
72. Xorazmiy hayoti va ijodini o'rganish tarixi, "Muhabbatnoma"ning qo'lyozma nusxalari va nashrlari.
73. "Muhabbatnoma"da shoir shaxsiyatiga oid ma'lumotlar.
74. "Muhabbatnoma" kompozitsiyasi, noma janrining o'ziga xosligi.
75. Nomalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
76. Nomalardagi soqiynoma unsurining g'oyaviy-badiiy tahlili.
77. Xorazmiy "Muhabbatnoma"si va lirik janrlar taraqqiyoti (g'azal, masnaviy, soqiynoma, qit'a, fard).

78. Xorazmiy "Muhabbatnoma"sining tasavvufiy mohiyati haqida nimalarni bilasiz? (Y.Ishoqov, Majoziy va ilohiy ishq, "Muhammaddin muhabbat bo'ldi paydo", "Ko'ngul bir, Ka'ba bir, ma'shuqa ham bir", "Haqiqat olamini munda bilg'ay").
79. Xo'jandiy va uning "Latofatnoma" asari.
80. Yusuf Amiriy va uning "Dahnoma" asari.
81. Sayid Ahmad va uning "Taashshuqnoma" asari haqida nimalarni bilasiz?
82. Noma janrining XIV-XV asrlardagi taraqqiyoti.
83. Munozara janri haqida umumiy ma'lumot, "Devonu lug'otit turk"da munozara janri va namunalari.
84. XIV-XV asrlar adabiyotida munozara janri (Yaqiniy va uning "O'q va Yoy" munozarasi, Yusuf Amiriyning "Bang va Chog'ir" asari).
85. Badiiy tarjima deganda nimani tushunasiz?
86. Shoir Qutb haqida nimalarni bilasiz?
87. "Xusrav va Shirin" (Qutb) dostonida Xusrav timsoli.
88. "Xusrav va Shirin" (Qutb) dostonida Shirin timsoli.
89. "Xusrav va Shirin" (Qutb) dostonida Farhod timsoli.
90. Sayfi Saroyi asarlarining qo'lyozmalari va o'rganilishi haqida ma'lumot.
91. Sayfi Saroyi she'riyati.
92. Sayfi Saroyi "Vasfush shuaro" she'ri tahlili.
93. "Guliston bit-turkiy" asarining yaratilish tarixi va tuzilishi.
94. "Guliston bit-turkiy" asaridagi hikoyatlarning g'oyaviy badiiy xususiyatlari.
95. "Guliston bit-turkiy" asaridagi hikoyatlardan biri tahlili.
96. "Suhayl va Guldursun" dostoni sujeti (mustaqil ish).
97. "Yusuf va Zulayho" dostonining muallifi masalasidagi munozaralar haqida umumiy ma'lumot.
98. Yusuf a.s. haqidagi qissa manbalari haqida nimalarni bilasiz?
99. "Ahsan al-qisas" ("Qissalar go'zali") jumlasini haqida nimalarni bilasiz?
100. "Yusuf va Zulayho" (Durbek) dostonini kompozitsiyasi (vazn, she'riy shakl, muqaddima, Balx qamali, "Zod", "He", "Dol", "Nasr edi bu qissa dag'i porsini").
101. "Yusuf va Zulayho" dostonining syujeti, asosiy timsollari.
102. "Yusuf va Zulayho" dostonida Yusuf timsoli.
103. "Yusuf va Zulayho" dostonida Zulayho timsoli.
104. "Yusuf va Zulayho" dostonida diniy aqidalar va axloqiy qadriyatlarining badiiy ifodasi (Imon, hayo, sabr, taqdir).
105. "Yusuf va Zulayho" dostonida badiiy to'qima (Qur'ondagi qissa va Durbek dostoni sujetidagi tafovutlar).

106. "Yusuf va Zulayho" dostonida ikkinchi darajali timsollar (Bo'ri, Ona, Misr Azizi, Soqi va Xabboz va hokazo).
107. Haydar Xorazmiy shaxsiyatiga oid ma'lumotlar (D.Samarqandiy, Navoiy, Taroziy, Sulton Iskandar).
108. "Gul va Navro'z" dostonining muallifi masalasidagi munozaralar haqida umumiy ma'lumot.
109. Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida Haydar xorazmiy zikri ("Ablag' ul-mutaaxxirin", "Pisandidai ro'zgor", "Gul va navro'z"dan parchalar").
110. Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" dostoni (Nizomiy, "Panj Ganj", sare' bahri, maqolot, hikoyat, mav'iza).
111. Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" dostonidagi hikoyatlardan birini sharhlab bering.
112. "Gul va Navro'z" syujeti tarixi haqida nimalarni bilasiz? (E.Rustamov tadqiqotlari, Xoju Kirmoniy, Jalol Tabib, "Shohnoma", Haydar Xorazmiy).
113. "Gul va Navro'z" dostonining qisqacha mazmuni.
114. "Gul va Navro'z" dostonining asosiy timsollari, asarning g'oyaviy mundarijasi.
115. "Gul va Navro'z" dostonidagi salbiy timsollar ta'rif (Bahman, Yaldo, Najdiy).
116. Mavlono Atoyi ijodini o'rganish tarixi (devon qo'lyozmasi, nashrlari, Samoylovich, Sayfiddin Raf'iddin-mustaqil ish).
117. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida Mavlono Atoyi haqidagi ma'lumotlar (mustaqil ish).
118. Mavlono Atoyi g'azallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
119. Atoyining she'riy san'atlar qo'llashdagi mahorati.
120. Atoyi shaxsiyati va taxallusi haqida nimalarni bilasiz?
121. Atoyi g'azallaridan biri tahlili (mustaqil ish).
122. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida Mavlono Sakkokiy haqidagi ma'lumotlar (mustaqil ish).
123. Sakkokiy tarjimai holi va lirik merosiga oid ma'lumotlar.
124. Sakkokiy g'azallarining o'ziga xos xususiyatlari (vazn, kompozitsiya, mavzu, g'oya, badiiy tasvir vositalari).
125. Qasida janri va Sakkokiy qasidalar.
126. Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida Mavlono Lutfiy haqidagi ma'lumotlar(mustaqil ish).
127. Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida Mavlono Lutfiy haqidagi ma'lumotlar (mustaqil ish).

128. Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida Mavlono Lutfiy zikri.
129. Lutfiy "Devon"ining qo'lyozmalari, o'rganilishi va nashrlari (S.Ərkinov, Ə.Axmadxo'jaev, B.Valixo'jaev).
130. Mavlono Lutfiy hayoti va ijodini o'rganishda akad. B.Valixo'jaevning xizmatlari.
131. Lutfiy g'azallarining o'ziga xos xususiyatlari.
132. Lutfiyning kichik janrlardagi she'rlari (to'rtlik, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard; R.Orzibekov, G.Xoliqulova, S.Tohirov maqolalari).
133. Lutfiy tuyuqlari tahlili.
134. Ahmad Taroziy va uning "Funun ul-balog'a" asari haqidagi ma'lumotlar.
135. "Funun ul-balog'a" asarining yaratilishi, kompozitsiyasi, tarkibi.
136. "Funun ul-balog'a" asari asarida lirik janrlar, badiiy san'atlar, qofiya va vazn tadqiqi.
137. "Funun ul-balog'a" asarining o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishdagi ahamiyati (asarda tilga olingan turkiy she'riyat va dostonchilik namoyandalari).
138. Sayid Qosimiy shaxsiyatiga oid ma'lumotlar.
139. Sayid Qosimiy masnaviylari haqida umumiy ma'lumot.
140. Sayid Qosimiyning "Majma'ul-axbor" dostoni.
141. Sayid Qosimiy va nomanavislik taraqqiyoti ("Haqiqatnoma", "Sadoqatnoma" asarlari tahlili).
142. Mavlono Gadoyi shaxsiyati va adabiy merosi.
143. Sulton Husayn Boyqaro – Husayniy hayoti va adabiy merosining o'rganilishi.
144. Navoiyning "Majolis un-nafois" taskirasi 8-majlisi tavsifi.
145. Husayniy devonining nashrlari va kompozitsiyasi haqida ma'lumot berihg.
146. Husayniy g'azallaridan biri tahlili ("Telbarab itgan ko'ngulni istadim har yon borib" misrasi bilan boshlanuvchi g'azal – mustaqil ish).
147. Husayniy va Navoiy - ijodiy hamkorlik qirralari.
148. Husayniy ijodini o'rganishda akad. B.Valixo'jaevning xizmatlari.
149. "Majolis un-nafois" tazkirasining XV asr o'zbek adabiyotini o'rganishdagi ahamiyati.
150. "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasining adabiyotshunoslikdagi ahamiyati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI

“O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI”
fanidan

GLOSSARIY
(izohlli lug'at)

Samarqand-2019

Abjad – I. Tarixiy sanalarni ifodalashning Sharq xalqlari orasidagi o'ziga xos usuli. Unda sanalar raqamlar bilan emas, harflar yoki harflar ishtirokida hosil bo'luvchi so'z va jumlar vositasida ifodalanadi. Abjad hisobida harflarning maxsus tartibi mavjud. 28 ta harf jami sakkizta so'zda jamlanadi. Bular: abjad, havvaz, huttiy, kalaman, sa'fas, qarashat, saxxaz, zazag'. Raqamlar 1 dan 9 gacha, 10 dan 90 gacha, 100 dan 1000 gacha har bitta harfga biriktiriladi.

II. Abjad hisobida harflar tartibdagi dastlabki to'rtta harfni (alif, be, jim va he) ifodalovchi so'z.

Ajuz – q. *Zarb*.

Alqish - madhiya, hamd (DLT)

Asllar - Juzvlarni turli tartibda qo'shish natijasida Xalil ibn Ahmad tomonidan hosilqilingan dastlabki ruknlar. Asllar sakkizta: Fa'uvlun, Fo'ilun, Mafo'iylun, Fo'ilotun, Mustaf'ilun, Maf'uvlotu, Mutafoilun, Mafoilatun.

Afoil va tafoillar – Aruzda "fa'ala" so'zidan hosil qilinuvchi so'zning vazni, o'lchovini ifodalashga xizmat qiladigan ma'nosiz so'zlar.

Aruz – I. She'riy vaznlar tizimi. VIII asrda arab filologi Xalil ibn Ahmad tomonidan asos solingan. O'zbek mumtoz she'riyatining asosiy vazni. O'zbek adabiyotiga XI asrdan boshlab kirib kelgan. Aruzda yozilgan dastlabki asar Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni. Aruz vaznida hijolar sifati ya'ni cho'ziq yoki qisqaligining muayyan tartibda takrorlanishiga asoslaniladi.

II. Arabiston yarim orolida joylashgan bir vodiyni nomi bo'lib, u vodiydagi kishilarning asosiy mashg'uloti vaqtinchalik uy-chodir tikib sotishdan iborat. Aruz tizimidagi atamalarining ko'pchiligi shu vodiylar xalqining urf-odatlariga, ashyolari nomidan olingan.

III. Uyning (chodirning) asosini tashkil etuvchi ustunlar-ruknlardan birining nomi. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra vaznning nomi aynan shu so'zdan olingan.

IV. Baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Birinchi misraning oxirgi rukni.

Aruzvoriy - Navoiyning "Mezon ul-avzon"ida **hazaji musammani solim** vaznida yozilgan g'azallarga bitilgan qo'shiqlarga nisbatan shu atama qo'llangan.

Axloqiy-ta'limiy g'azallar - halollik, rostgo'ylik, mehnatsyevorlik, ilm-hunarga intilish, do'stga sadoqat, kattaga hurmat, kichikka shafqat, vatanparvarlik, xalqparvarlik, vatan va xalq dushmanlariga, zolim, o'g'ri va riyokorlarga nisbatan nafrat kabi olijanob xislatlar, didaktik g'oyalar o'z aksini topadigan g'azallar.

Bayt – I. Arab tilida uy ma'nosini ifodalaydi. Xalil Ibn Ahmad she'rning eng kichik qismini ham shu so'z bilan nomlagan. Bayt ikki misradan iborat.

Bahr - (arabcha – dengiz, ko'pligi buhur) Aruz tizimida ruknlarning takroridan hosil bo'luvchi vaznlar turkumi. Alisher Navoiyning "*Mezon ul-avzon*" asarida o'n to'qqizta, Boburning "*Muxtasar*"ida esa "*ariz*" va "*amiq*" bahrlari bilan birga yigirma bitta bahr keltirilgan.

Begona bayt - Maqtadan oldingi bayt. Unda shoirning g'azal mazmuniga u qadar bog'liq bo'lmagan fikrlari, qarashlari byerilishi mumkin.

Debocha – arabcha boshlanma, Devonlarda kirish qismga nisbatan qo'llanuvchi atama.

Dyevon - shoirning o'zi tomonidan, shuningdek, boshqalar tomonidan ham tuziladi. Unda biror shoirning qofiya va radiflari ma'lum harflar bilan tugallangan shye'rlari alifbo tartibida (qofiyalanib kyeluvchi so'zlarning oxirgi harflari asosida) joylashtirilgan. Arab yozuvida 28 harf mavjud bo'lganligi uchun dyevonlarda ham ana shu harflarni ma'lum miqdordagi shye'rlar bilan to'ldirish asosiy qoidalardan hisoblangan. Dyevon tartib byerish forsiy adabiyotda turkiy adabiyotga nisbatan ancha avval kuzatiladi. Jumladan, XI asrda yashagan Nosir Xisrav (1004-1088) kabi forsiygo'y shoirlar sohibi dyevon bo'lganlar.

Doira - Aruz metodikasida bahrlarni yaxshi tushunish va eslab qolish uchun bir-biriga yaqin bo'lgan bahrlar kiritiladigan chizma. Unda misra, uning afo'llari hamda bahr nomlari kiritiladi. Misrani qaysi so'zdan boshlab o'qishga ko'ra turli bahrlar hosil bo'ladi. Masalan:

Doirai muttafiqa - mutaqorib (fa'uvlun), mutadorik (fo'ilun).

Yuzy rashki xurshidi anvar bo'lubtur

Etuk - hikoya, ertak (DLT)

Fard – arabcha so'z bo'lib, yolg'iz, yakka, yagona ma'nolarini anglatadi. Fardning ko'pligi mufradot deyiladi. Lirikaning eng kichik janri bo'lgan fard *a-a* yoki *a-b* shaklida qofiyaladadi.

Fosila - (arabcha palos) Aruzda eng katta *juzv*ning nomi. To'rt va undan ortiq harfli *juzv*. Fosila ikki xil bo'ladi:

1. Fosilai sug'ro (kichik fosila) - uch harakatli va bir sokin harfdan iborat.
2. Fosilai kubro (katta fosila) - to'rt harakatli va bir sokin harfdan iborat.

Furu' - Asl ruknlarning turli tarzda o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan yangi ruknlar.

Gurizgoh - qasida janrida lirik kirishdan so'ng keluvchi qism.

Hajviy g'azal - hayotda uchraydigan kamchilik va qusurlarni kulgu vositasi bilan tanqid qilish usulida yozilgan shye'rlardir.

Hazaj – Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Hazaj** bahri **mafo'iy**lun ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning ikki shakli dostonchilikda qo'llanadi

I. Hazaji musaddasi mahzuf (maqsur) (Mafo'iy¹lun mafo'iy²lun fa'uv³lun (mafo'iy⁴l)). Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni tufayli shuhrat qozongan bu vazn "Xamsa"lardagi ikkinchi dostonlarga xos bo'lib, unda ishqiy-sarguzasht syujetlar bayon etiladi. Amir Xusrav Dehlaviyning "Shirin va Xusrav", Jomiyning "Yusuf va Zulayho", Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonlari ham shu vaznda yozilgan. Mazkur vazn turkiy adabiyotda keng iste'molda bo'lgan. Jumladan, Xorazmiy "Muhabbatnoma"si va uning naziralari, Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z" dostonlari shu vaznda yozilgan.

II. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur) (Mafo'uv¹lu mafo'ilun fa'uv²lun (mafo'iy³l)). Xamsalarning uchinchi dostonlari shu vaznda bo'lib, ko'proq ishq iztiroblari, dard va mahzun ohanglarni ifodalashga mo'ljallangan. Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy va Alisher Navoiyning Layli va Majnun haqidagi dostonlari, Hoju Kirmoniyning "Gavharnoma"si shu vaznda yozilgan.

Hashv (hashvayn) - Aruz vaznida baytdagi ruknlarning maxsus nomi. Birinchi va ikkinchi misralarning o'rtadagi ruknlari.

Husni ta'lil - (arabcha chiroyli dalillash). Tasvir etilayotgan hodisaga aslida unga bog'liq bo'lmagan biror go'zal sabab ko'rsatish. Shu bilan fikrni kuchaytirish, bo'rttirish.

Ibtido – (arabcha – boshlanish). Aruz vaznida baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Ikkinchi misraning birinchi rukni.

Intoq - (arabcha nitqlantirish, gapirtirish) *Tashxis*ning bir turi bo'lib unda insoningagina xos bo'lgan jihatlardan bittasi ya'ni nutqga ega bo'lish hodisasi aslida bunday xislatga ega bolmagan jonli va jonsiz predmetlarga ko'chiriladi.

Janr - (fransuzcha renhre – xil) atamasi o'rniga Sharq shye'rshunosligida "shye'r navi" istilohi ishlatilib kyelingan. Adabiy turlar muayyan janrlardan tashkil topadi. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida o'sha davr adabiy tajribasida kyeng qo'llanilgan tur va janrlar xususida juda muhim ma'lumotlar kyeltiriladi. Byesh qismdan iborat bu asarning birinchi qismida shye'riyatning o'n turi, navi borligi qayd etilgan

Juzv - Arab tilida qism ma'nosini bildirib, jonsiz predmetlarga nisbatan qo'llanadi. Aruz she'riy tizimida arab alifbosidagi harakatli (fatha, kasra, zamma) yoki sokin harflarning birga qo'llanishidan hosil bo'ladigan *ruknn*ning kichik bo'lagi. Juzvlar uch xil: *sabab*, *vatad* va *fosila*.

Ko'g - shy'e'r, maqom, kuy, ashula vazni (DLT)

Laff va nashr – (arabcha laff – yig'ish, nashr – yoyish). She'riy san'atlardan biri. XV asr adabiyotshunosi Atoulloh Husayniy uni shunday tushuntiradi: Laffu nashr andin iboratdurkim, bir nechani zikr qilur, andin so'ng ul bir nechaga aloqador bir necha nimani bu nimalarning har biri ul bir nechaning qaysi birig'a taalluqlug' erkonin aniq bilmay zikr qilurlar".

Lafziy san'atlar - so'zlarning shakliy xususiyatlari ya'ni ularning tarkibidagi tovushlar va harflar bilan bog'liq hodisalar asosida yuzaga keladigan she'riy san'atlarning umumiy nomi. Jumladan, tarse', tajnis, saj', musajja', zulqofiyatayn, takrir (mukarrar), qaytarish (radd) ishtiyoq, mulamma', muvashshah, kitobat (harf san'ati) kabilar lafziy san'atlar sirasiga kiradi.

Lirika - Qadimgi Yunonistonda "lira" dyeb ataluvchi torli musiqa asbobi nomidan kyelib chiqqan bo'lib, lira jo'rligida kuylash ma'nosini anglatadi. Aristotyelning fikricha, bu atama miloddan avvalgi ibtidoiy jamoa davrida myehnat quroli, ayollardagi qo'l va quloq taqinchoqlari harakati natijasida paydo bo'lgan ritmik ohanglar mahsulidir.

Madh - Qasida janrining asosiy qismiga nisbatan qo'llanuvchi termin.

Marsiya – arabcha soz bolib, yig'lamoq, aza tutmoq, qayg'urmoq ma'nolarini bildiradi. Adabiy atama sifatida vafot etgan biror shaxs sifatlarini ta'riflovchi, uni maqto'vchi, unga bo'lgan shoir munosabatlarini ifodalovchi, lirik qahramonning qayg'u-hasratlarini tasvirlovchi asar. O'zbek adabiyotidagi ilk namunasi "DLT" asaridagi "Alp Er To'nga marsiyasi" she'ridir.

Masal – arabcha so'z bo'lib, o'rnak, namuna. Ma'nolarini bildiradi. Adabiy istilohda majoziy obrazlar asosida insonga xos xususiyatlarni ochib beruvchi, qissadan hissa chiqarich mohiyatiga ega didaktik asardi. Masal she'riy yoki nasriy shaklda yoziladi.

Masnaviy – (arabcha "ikki" sanoq sonini bildiruvchi "isnani" so'zidan yasalgan bo'lib ikkilik ma'nosini ifodalaydi). Sharq mumtoz she'riyatida har juft misra o'zaro butunlikni hosil qiluvchi, ya'ni qofiyalanuvchi she'riy shakl. O'rta asrlarda yirik hajmli dostonlarga nisbatan ham, ikkilik shaklida yozilgan kichikroq hajmdagi she'rlarga nisbatan ham masnaviy atamasi qo'llangan. Hozirgi adabiyotshunoslikda bu atama janr va she'riy shakl ma'nosida qo'llanadi.

Maxlas band - taxallusli band hisoblanadi. Musammatlarning birinchi band ibtido band, so'ngi band – maxlas yoki muhr dyeb yuritiladi.

Ma'naviy san'atlar - so'z, jumla, misra, bayt yoxud undan kattaroq birliklarning ma'no qirralari, mazmuniga xos hodisalardan ustalik bilan foydalanish, shu yo'l bilan badiiylik, go'zallik yaratish natijasida hosil bo'ladigan she'riy san'atlarning umumiy nomi.. Tashbeh, istiora, kinoya, mubolag'a, tablig',

ig'roq, g'uluv, sifatlash, tazod, iyhom, tafsir, laffu nashr, ta'did, ruju', tashxis, talmeh, irsoli masal, tazmin, husni matla', ta'rix, muammo, tajohilul orif, husni ta'lil kabilar ma'naviy san'atlar sirasiga kiradi.

Muammo – arabcha soʻz boʻlib, yashirilgan, berkitilgan maʼnolarini anglatadi. Adabiy termin sifatida bir soʻz, koʻpincha ism yashirinib berilgan kichik lirik janr. Muammo, odatda, bir, baʼzan ikki baytdan tashkil topadi. U *a-a* yoki *a-a*, *b-b* shaklida qoʻfiyalanadi.

Muashshar - mashruʼ (arabcha - oʻnlik) har bandi oʻn misralik kam uchraydigan musammat shakli. Qoʻfiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-b-b-b-b-b-b*, *d-d-d-d-d-d-d-d-d-d* yoki *a-a-a-a-a-a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-b-b-b-b-a-a*, *d-d-d-d-d-d-d-d-a-a* Fors-tojik adabiyotshunoslari uni “musammati muashshar-mashroʻx” istilohi bilan nomlaydi.

Munozara – arabcha tortishuv, fikr olishuv maʼnolarini bildiradi. Adabiy termin sifatida fors-tojik va oʻzbek sheʼriyatidagi maʼlum janr nomi. Munozarada turli narsa, voqea, hodisa, tushuncha, holat va boshqalar tortishuvga kirishadi. Obrazlar koʻpincha ramziy xarakterli boʻladi.

Muzdavij musammat - bandlaridagi oxirgi misralar birinchi banddagi bilan qoʻfiyadosh boʻladi. Bu musammatning oddiy shakli hisoblanadi.

Murabbaʼ - (arabcha - toʻrtlik) eng qadimiy shyeʼriy janrlardan boʻlib, har bandi toʻrt misradan iborat shyeʼr shakli. Uning shakllanishi melodiy era boshlariga borib bogʻlanadi. Qoʻfiyalanishi: *a-a-a-a*, *b-b-b-a*, *d-d-d-a* va h.

Musabbaʼ - (arabcha - yettilik) har bandi yyetti misradan iborat shyeʼr shakli boʻlib, u musammatning kam uchraydigan turidir. Qoʻfiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-b-b-a*, *d-d-d-d-d-d-a* yoki *a-a-a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-b-a-a*, *d-d-d-d-d-a-a* va h.

Musaddas - (arabcha - oltilik) har bandi olti misra boʻlgan aruzning turli bahr va vaznlarida, turli mavzularda yoziluvchi musammat shakli. Qoʻfiyalanishi: *a-a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-b-a*, *d-d-d-d-d-a* yoki *a-a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-a-a*, *d-d-d-d-a-a* va h. Musaddas namunalari oʻzbyek adabiyotida XV asrning birinchi yarmida, soʻngroq Navoiy va Boyqarolar adabiy muhitida yaratildi.

Musallas - (arabcha - uchlik) har bandi uch misradan iborat boʻlib, musammatning kam uchraydigan turi. Qoʻfiyalanishi: *a-a-b*, *d-d-b*, *f-f-b* yoki *a-a-a*, *b-b-b-b*, *d-d-d* va h. Shyeʼrning bu shakli Gʻarbda tyersina (ital.) dyeb ataladi.

Musalsal gʻazal - tarkibidagi lirik voqyea, manzara, fikr va kyechinma satrlar silsilasida darajama-daraja rivojlanish xususiyatiga ega boʻlgan gʻazaldir. Mumtoz shyeʼriyatdagi tadrij usulining butun gʻazal davomida faol qoʻllanishi musalsal (silsilali) gʻazalning xususiyatlaridandir. Navoiyning “Yordin ayru

ko'ngul mulkyedurur sultoni yo'q", "Jong'a chun dyerman: "Nye erdi o'lmakim kayfiyati?" misralari bilan boshlanuvchi asarlari musalsal g'azallardir.

Musamman - (arabcha - sakkizlik) har bandi sakkiz misradan iborat musammat shye'r shakli. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-a* yoki *a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-a-a* va h.

Musammat - arabcha "tasmit" so'zidan olingan bo'lib, ipga tizilgan marvarid dyegan ma'noni bildiradi. Musammat va uning shakliy elyemyentlari islomgacha bo'lgan shye'riyatda ham uchraydi. Uning janr sifatida shakllanishi, adabiy ijodda ko'proq qo'llanila boshlashi XI asrga to'g'ri kyeladi. Musammat haqida Rashidi Votvot, Qays Roziy, Vohid Tabriziy, Qabul Muhammad, Atoullloh Husayniy asarlarida ma'lumotlar bor.

Mustaqil musammat - barcha misralar bir muallif qalamiga mansub musammat. Bunday musammat "tab'i xud" (o'z tab'i) dyeb yuritiladi. Bunday shye'rlar musammatning uchlikdan o'nlikkacha shakliy turi asosida yaratiladi.

Mustazod - arabcha «zoid», "zodi" so'zlaridan yasalgan bo'lib, orttirilgan ma'nosini bildiradi. Bir misrasi g'azalning bir yarim misrasiga teng bo'lib, yagona vazngda yoziladigan she'riy janr. Uning to'liq misralari **hazaji musammani sadru ibtido axrab, hashvayn makfuf, aruz va zarb mahzuf** yoki **maqsur** vaznida, orttirilgan misralari esa **hazaji murabbai sadru ibtido axrab, aruz va zarb mahzuf** yoki **maqsur** vaznida yoziladi. Boshqacha qilib aytganda, misradagi **sadr** va **ibtido, aruz** va **zarb** orttiriladi.

Mutakorir musammat - birinchi banddagi so'nggi misra yoki bayt har band oxirida naqorat bo'lib takrorlanib boradigan she'r shakli. Bu holat musammatning barcha xillarida uchraydi. Takrorlanadigan misra yoki misralar "mukarrar", "takror", "tarjye", "qoplama misra" (V.Rahmonov), hozirgi zamon adabiyotshunosligida "ryefryen" atamasi bilan yuritiladi.

Mutassa' - tasnye' (to'qqizlik) har bandi to'qqiz misrali juda kam uchraydigan shye'r shakli. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-d-a* yoki *a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-d-a-a*

Mutaqorib - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Mutaqorib** bahri **fa'uvlun** ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning **Mutaqoribi musammani mahzuf (maqsur)** (Fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'ul (fa'uvl)) shakli dostonchilikda qo'llanadi. Bu vazn Firdavsiyning "Shohnoma" asari tufayli mashhur bo'lib, keyinchalik, Nizomiyning "Iskandarnoma" dostonidan boshlab "Xamsa"lardagi beshinchi doston vazni maqomiga ega bo'ldi. Amir Xusravning "Oinai Iskandariy", Jomiyning "Xiradnomai Iskandariy", Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlari ham shu vaznda yaratilgan. Mazkur vazn jangnoma

dostonlarga xos deb qaraladi. Biroq didaktik ruhdagi qator asarlar ham shu vaznda yaratilgan. Xususan, turkiy adabiyotdagi ilk dostonlar - "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib) va "Hibat ul-haqoyiq" (Ahmad Yugnakiy), Sa'diyning mashhur asari "Bo'ston" shular jumlasidan.

Muxammas - (arabcha - byeshlik) har bir bandi byesh misradan iborat bo'lib, musammatning eng ko'p tarqalgan turi. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-a*, *d-d-d-d-a* va h. O'zbyek mumtoz adabiyotida muxammasning dastlabki namunalari XV asrning birinchi yarmi shoirlari ijodida uchraydi.

Nasib – qasidaning kirish qismi.

Nazira - arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi o'xshash, tyeng, misl dyemakdir. Adabiy istilohda esa, bir shoirning ikkinchi bir shoir asariga javob aytishi, avvalgi asar shakliga o'xshash asar yaratishidir. Biroq nazirada muallif o'z nazirasiga asos qilib olgan asarning g'oyaviy mazmuni orqasidan butunlay ergashuvi shart emas.

Noma – arabcha xat. Adabiy termin sifatida maktub tarzida yozilgan badiiy asar. Turkiydagi ilk noma Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari hisoblanadi (1353).

Orifona g'azallar - yetakchi mavzusi tasavvufiy-falsafiy g'azallardir. Orifona g'azallarning mazmuni vujud butunligi (Tangri) bo'lib, tasavvufning ma'naviy tayanchini tashkil etadi. Vahdati vujud (yoki vujud vahdati) butun g'azaliyotga tafsilot, suratlar, dyetallar baxsh etadi.

Otkunch – hikoya (DLT)

Oshiqona g'azallar-g'azalning mavzu jihatdan eng ko'p tarqalgan turi bo'lib, uning katta qismi uchun yor va uning jamoli tasviri, uning jafokorligi, haqiqiy oshiqqa shafqatsizligi, olijanob, yuksak muhabbatga munosib bo'lmagan raqibga myehribonligi, unga muhabbat qo'yganligi, chin oshiqning alam va rashkdan yonishi tavsir etilgan. Oshiqona g'azallarda odatda uch an'anaviy obraz (oshiq, ma'shuqa, raqib) kuzatiladi.

Paradigma – (yunoncha - shartli belgilar). Aruzda hijoning vazni, o'lchovi, ya'ni qisqa, cho'ziq yoki o'ta cho'ziq ekanligini ko'rsatuvchi shartli belgilar.

Parokanda g'azal - har bir bayt o'zicha mustaqil, tugallangan bir mazmunga ega g'azal bo'lib, unda umumiy badiiy mazmun parokanda – tarqoq bo'ladi. Bunday g'azaldagi baytlar bir ipga tizilgan qimmatbaho har xil gavharlarga o'xshaydi. Ammo har bir bayt tashqi ko'rinishidan mustaqildyek ko'rinsa-da, ular orasidagi g'oyaviy-badiiy birlik bilinib turadi.

Pyeyzaj g'azallar - tabiat, byepayon qir-adarlar, dala-bog'lar, yulduz to'la osmon, qorli tog'lar, buloq va daryolar, yashil vodiylar tasviri va unga lirik qahramonning otashin muhabbati o'z ifodasini topadigan g'azallar.

Publitsistik g'azallar - shu mazmundagi shye'rlar kabi eng jangovar, eng ta'sirchan poeziya turidir. U o'zining otashinligi, hozirjavobligi bilan ajralib turadi.

Qasida – arabcha “qasd” co'zidan olingan, niyat, intilish ma'nosini beradi. Adabiy termin sifatida lirik tur janrlaridan biri. Qasida muhim tarixiy voqealar va mashhur tarixiy shaxslar haqida tantanali uslubda yozilgan asardir. Mumtoz adabiyotda tabiat lavhalari, cholg'u asboblari va boshqalarga bag'ishlab ham qasidalar yozilgan.

Qasd – Qasida janrinig so'nggi xulosaviy qismi.

Qit'a – arabcha so'z bolib, qism, parcha ma'nolarini anglatadi. Qit'a ikki yoki undan ortiq baytlardan iborat bo'lib, matlasiz g'azaldek (*b-a, d-a, f-a, h-a* va *h.*) qofiyalanadi. Ba'zan masnaviy tarzida (*a-a, b-b, d-d, h-h* va *h.*) qofiyalanishi ham mumkin. Qit'alar asosan ijtimoiy, didaktik maznunda bo'ladi. Qit'aning ko'pligi muqattaot deb yuritiladi.

Qoshug' - shye'r, qasida, qo'shiq (DLT)

Rajaz - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Rajaz** bahri **mustafilun** ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Mazkur bahr asosan she'riyatda qo'llanadi. O'rta asrlarda ilmiy she'rlar shu bahrda yozilganligi uchun “urjuza” deb nomlangan.

Ramal - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Ramal** bahri **fo'ilotun** ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning ikki shakli dostonchilikda qo'llanadi:

I. Ramali musaddasi mahzuf (maqsur) (Fo'ilotun fo'ilotun fo'ilun (fo'ilon)). Bu vazn ko'proq tasavvufiy dostonlarda qo'llanadi. Uning shuhrat qozonishi Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" hamda Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" dostonlari bilan bog'liq. Alisher Navoiy "Lison-ut tayr" dostonini mazkur vaznda yaratgan. Jomiy esa bu vaznni "Salomon va Absol" dostonida qo'llagan.

II. Ramali musaddasi maxbuni abtar (Fo'ilotun fa'ilotun fa'lan (fa'lon, fa'ilun, fa'ilon)). Boburning qayd etishicha bu vazn "**g'oyat latif**" bo'lsa-da, masnaviylarda ko'p qo'llanmaydi. Xusrav Dehlaviyning "No'h spehr" asaridagi bir fasl (spehr) hamda Jomiyning "Sabhat ul-abror" dostoni shu vaznda yozilgan.

Rindona g'azal - mazmunini hayotga muhabbat, shodlik va baxt-saodatga, quvnoqlikka intilish, zulm va zo'rlikka qarshi norozilik, shayx va zohidlarni fosh

qilish, isyonkorlik tashkil etadigan g'azal. Rindona g'azallar **qalandarona g'azallar** ham dyeb yuritiladi.

Ruboiy - She'riy janr nomi. Arabcha (رباعى) so'z bo'lib, to'rtlik dyegan ma'noni anglatadi. Forsiylar uni "dubaytiy" dyeb ham ataydilar. Tort misradan iborat bo'lgan mustaqil she'r. Aruz tizimining hazaj bahriga tegishli bo'lgan 24 xil vaznda yoziladi. Bu vaznlar qaysi rukn bilan boshlanishiga ko'ra shartli ravishda axram (maf'uvlun, - - -) va axrab (maf'uvlu - - V) shajaralariga bo'linadi. Har bir *shajarada* 12 tadan vazn mavjud bo'lib, ularda mafo'iyun aslining solimi hamda quyidagi zihof va furu'lari ishtirok etadi: maf'uvlu – axrab; maf'uvlun – axram; mafo'ilun – maqbuuz; mafo'iyu – makfuf; fo'ilun – ashtar; fa' - axrami majbub; fo' - azall; fa'ul – majbub; fa'uvl – axtam. Ruboiy qofiyalanishiga ko'ra *xosa* va *tarona* kabi turlarga bo'linadi. Ruboiy asosan falsafiy, ba'zan ishqiy va didaktik mavzularda yoziladi. Uning birinchi misrasi **tyezis** bo'lib, unda shoir mazkur ruboiyda aytmoqchi bo'lgan fikrini o'rtaga tashlaydi. Ikkinchi misrasi **antityezis**. Bunda birinchi misraga qarama-qarshi fikr aytiladi. Uchinchi misra **moddayi ruboiya** dyeb ataladi. Bu misra shoirning to'rtinchi misrada aytmoqchi bo'lgan xulosasi uchun ko'prik vazifasini o'taydi. Ruboiyning to'rtinchi misrasi **sintyez** hisoblanib, bunda shoir avvalgi uch misradan g'oyaviy xulosa chiqaradi. Ruboiy ko'proq falsafiy, ijtimoiy, axloqiy, shuningdyek, ishqiy mavzularda yoziladi.

Rukn – (arabcha – ustun). Aruzda *juzvlarning* qo'shilishidan hosil bo'luvchi baytning ritmik bo'laklari. Ruknlar baytda to'rtta (murabba'), oltita (musaddas) va sakkizta (musamman) bo'lishi mumkin.

Sabab – (arabcha qoziq) Aruzda eng kichik *juzvning* nomi. Sabab - ikki harfli juzv. Sabab ikki xil bo'ladi:

1. Sababi xafif (yengil sabab) - bir harakatli va bir sokin harfdan iborat.
2. Sababi saqiyl (og'ir sabab) - ikki harakatli harfdan iborat.

Sadr – (arabcha – rais). Aruz vaznida baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Birinchi misraning birinchi rukni.

Sandrush – munozara (DLT, "Qish va yoz" munozarasi),

**San`at** – (arabcha sun` (صنع) o'zagidan, yaratmoq degan ma'noni ifodalaydi). "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da hunar, kasb, ustalik, mohirlik ma'nolarida sharhlangan "San`at" so'zi Navoiy asarlarida, shuningdek, san`atgar, san`atgariy, san`atnamoy, san`atoyin, san`atsoz, san`atfosh kabi lug'aviy va grammatik shakllarda ham qo'llangan. "Farhangi zaboni tojiki" kitobida "san`at" so'zining quyidagi ma'nolari ham sharhlangan:

- takalluf dar suxan, suxanoroyi, hunarnamoyi dar nazmu nasr.

Mazmuni: soʻzda lutf (goʻzallik, nozik maʼno) yaratish, nasr va nazmda soʻzni mahorat bilan qoʻllash, hunar koʻrsatish.

"Sanʼat" soʻzi zamonaviy adabiyotshunoslik atamasi sifatida "...voqelikni obrazlar va yorqin manzaralar orqali badiiy ifodalashdan iborat" hodisani ifodalaydi.

Sariʼ - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Sariʼ** bahri Mustafʼilun Mustafʼilun Mafʼuvlotu ruknlarining takrorlanishidan hosil boʻladi. Bu bahrning **Sariʼi musaddasi matviyi makshuf** (Muftaʼilun muftaʼilun foʻilun) shakli dostonchilikda qoʻllanadi. Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoni tufayli bu bahr xamsanavislikdagi dastlabki doston vazni sifatida qatʼiy maqomga ega boʻldi. "Matlaʼ ul-anvor" (Amir Xusrav), "Tuhfat ul-Ahror" (Jomiy) va "Hayrat ul-abror" (Navoiy) dostonlari ham shu vaznda. Turkiy adabiyotda yaratilgan mashhur dostonlardan Mavlono Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" hamda Durbekning "Yusuf va Zulayho"si shu bahrda yaratilgan. Mazkur vazn falsafiy-didaktik mavzularni ifodalash uchun qulay deb hisoblanadi.

Segona ilm ("uchlik ilm") – Qadimda filologiyaga oid ilmlar uchligi. Bular "Ilmi aruz" (aruz vazni qonuniyatlari va shakllari haqidagi ilm), "ilmi qofiya" (qofiya va uning turlari, qofiya tarkibi haqidagi ilm) hamda "ilmi badeʼ" (sheʼriy sanʼatlar haqidagi ilm).

Soqiynoma – Sharq sheʼriyatidagi janrlardan biri. Soqiynoma ham tarjeʼband, tarkibband singari bir necha bandlardan tashkil topadi. Har bir band masnaviy kabi qofiylanadi. Soqiynoma aksar soqiyga murojaat bilan boshlanuvchi falsafiy mazmundagi sheʼr.

Sov - qissa, hikoya, risola, soʻz, otalar soʻzi, paygʻambar ("DLT")

Tanosub - Sheʼriy sanʼatlardan biri. Baytda, umuman, sheʼriy bandlarda maʼno jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi soʻzlarni qoʻllash orqali hosil qilinadi. Masalan, "bulbul" soʻzi gul, bogʻ, chaman, navo soʻzlari bilan; "Kaʼba" esa haj, farz, Tengri, ziyorat soʻzlari bilan mazmuniy bogʻlanib, yaxlit tushuncha, tugal ifoda va jonli lavha yaratadi.

Taqteʼ - (arabcha – "qataʼa" feʼlidan yasalgan boʻlib, boʻlmoq, parchalamoq degan maʼnoni ifodalaydi) Aruz istilohlaridan biri sifatida baytni ritmik boʻlaklar-ruknlariga ajratish qonuniyatlarini ifodalovchi yoxud oʻrgatuvchi fasl.

Tarjeʼband – arabcha soʻz boʻlib, lugʻaviy maʼnosi qaytish, ilgarigi narsani takrorlash. Tarjeʼband har bir bandning oxirida bir xil baytning takrorlanish usulidan foydalanib yaratilgan asar. Har band oxirida birinchi band maqtaʼi takrorlanib keladi. Mazkur maqta misralari oʻzaro qofiyalangan boʻladi.

Tarkibband – arabcha soʻz boʻlib, biriktirish, bir qancha narsani biriktirib bir narsa hosil qilish maʼnosini anglatadi. Tarkibbanddagi bandlar soni turlicha boʻlib, har banddagi misralar gʻazal shaklida qoʻfiyalanadi. Bandning maqtaʼl oʻzaro qoʻfiyalangan boʻladi. Bu qoʻfiya bandlardagi asosiy qoʻfiyalardan farq qiladi. Bandlarning har qaysisi har xil vaznda boʻlishi mumkin.

Taʼrix – arabcha soʻz boʻlib, sodir boʻlgan biror voqeani anglatadi. Sharqda ana shu voqeaning sanasini shʼerda harflar vositasida berish usuli taʼrix deyiladi. Taʼrix maxsus janr sifatida mustaqil asar ham boʻladi, boshqa asar tarkibiga ham kiritilishi mumkin.

Tatabbuʼ - arabcha soʻz boʻlib, bir narsaning izidan tushish, izlash, tyekshirish, ergashish maʼnolarini bildiradi. Tatabbuʼ gʻazalda bir shoir tomonidan badiiy qolipga solingan bir mazmun boshqa shoir tomonidan davom ettiriladi, unga ergashib, uni yangi shaklga, yangi ifoda qolipiga solinadi. Natijada bir mazmun turli badiiy shaklga tushadi, turli variantdagi shyeʼriy asarlar vujudga kiyeladi.

Tazmin - arabcha soʻz boʻlib, uning lugʻaviy maʼnosi bir nimani ikkinchi bir nima orsiga qoʻymoqdir. Adabiy istiloh sifatida gʻazal yoki musammat shyeʼrlarda bir shoirning ikkinchi bir shoir shyeʼridan parcha olib, uning izidan borib shyeʼr yaratishidir.

Tashbeh (oʻxshatish) – Adabiyotda keng hoʻllanadigan sheʼriy sanʼatlardan biri. T.da narsa, belgi va harakat kabilar boshqasiga oʻxshatish, qiyoslash orqali tasvirlanadi. Tashbehning yuzaga kelishida toʻrt unsur ishtirok etishi mumkin:

1. Mushabbih yaʼni oʻxshamish - tasvirda fikr qaratilgan narsa yoki tushuncha.
2. Mushabbihun bih yaʼni oʻxshatilmish - tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha.
3. Vajhi shaboh yaʼni oʻxshatish asosi - oʻxshatishning qanday belgi yoki xususiyatga koʻra chiqqanligi.
4. Odoti tashbeh yaʼni oʻxshatish vosita - oʻxshatishning lugʻaviy yoki grammatik belgisi.

Tashxis – (arabcha "shaxs" oʻzagidan, "shaxslantirish" degan maʼnoni anglatadi) Mumtoz sheʼriyatimizda keng qoʻllangan badiiy tasvir vositalaridan biri. T. insongagina xos boʻlgan jismoniy va ruhiy holatlarni (oʻylash, fikrlash, gapirish, quvonosh yoxud iztirob chekish, xastalanish, jarohatlanish, musobaqalashish, sevisht, rashk qilish vahokazo) tabiat unsurlari, jonzotlar, borliqdagi narsa-buyumlar hamda hodisalarga koʻchirish sanʼati.

Turkiy (turkona) – Gʻazalchilikdagi uslublardan biri. Navoiyning "Mezon ul-avzon"ida **ramali musammani mahzuf (maqsur)** vaznida yozilgan gʻazallar shunday atalgan. Asosan mazmunga eʼtibor beriladigan, soda, xalqona uslubda yoziladigan gʻazallar.

Tuyuq – Turkiy she'riyatga xos bo'lgan janr nomi. Aruzning ramali musaddasi maqsur (mahzuf) yoki foilotun, foilotun, foilon (foilon) vaznida yoziladigan to'rt misrali she'riy janr. Odatda tuyuqlarda qofiya o'rnida *tajnis* (omonim) so'zlar qo'llanadi. Navoiy va Boburning fikriga ko'ra tajnis qo'llanishi, qo'llanmasligi yoki ularning soni tuyuqning alohida turlarini tashkil etadi. Tuyuq asosan ishqiy mavzularda yoziladi. Tuyuq so'zi adabiy tyermin sifatida XIV asr oxiri va XV asr boshlarida ishlatila boshlangan. Tuyuqning dastlabki kitobiy namunalari sivaslik hukmdor va shoir Burhoniddin Ahmad (XIV asr) ijodi bilan turkiy poeziyada taraqqiy eta boshlagan.

Vatad - (arabcha ustunlarni bog'laydigan arqon) Aruzda *juzv*ning nomi. Uch harfli juzv. Vatad ikki xil bo'ladi:

1. Vatadi majmu' (jamlangan vatad) - ikki harakatli va bir sokin harfdan iborat.
2. Vatadi mafruq (ajratilgan vatad) - bir harakatli, bir sokin va yana bir harakatli harfdan iborat.

Voqyeaband g'azal - lirik qahramon kyechinmalari bilan bog'liq voqyeahodisalar ixcham shaklda, lirik manzarada ifodalanadigan g'azal. Bunday g'azallarni kichik bir lirik lavha dyeb bilmoq lozim. Yakpora g'azallar zimnida vujudga kyelgan voqyeaband g'azallar Lutfiy ijodidan boshlanib, Navoiy ijodida kamol topdi

Xafif - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Xafif** bahri Fo'ilotun Mafo'iylun Foilotun ruknlarining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning **Xafifi musaddasi maxbuni abtar** (Fo'ilotun mafo'ilun fa'lan) shakli dostonchilikda qo'llanadi. Bu vaznda yozilgan ilk masnaviylardan biri mashhur so'fiy shoir Sanoiyning "Hadiqat ul-haqoyiq" dostonidir. Falsafiy-tasavvufiy pandnoma ruhidagi bu doston Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoniga ilhom bag'ishlagan deb aytiladi. Biroq bu vaznda Nizomiy o'zining to'rtinchi dostoni "Haft paykar"ni yaratdi. Shundan boshlab, Bahrom haqidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar shu vaznda yoziladigan bo'ldi. Xususan, "Hasht bihisht" (Amir Xusrav), "Sab'ayi sayyor" (Navoiy), "Haft avrang" (Ashraf) vahokazo. Abdurahmon Jomiy esa Sanoiy izidan borib, bu vaznda yana bir falsafiy-didaktik dostoni "Silsilat uz-zahab"ni yaratdi.

Yakpora g'azal - har baytning mazmuni o'zidan oldingi yoki kyeyingi baytlarga izchil bog'langan g'azaldir. Bunday g'azalning mazmuni matlada ko'tarilgan bir mavzuni izchil yoritish jarayonida vujudga kyeladi. Razg'uziyning "Kun hamalga kirdi ersa, kyeldi olam navruzi", Navoiyning "Qaro ko'zum, kyelu

mardumlig' emdi fan qilg'il", "Kyecha kyelgumdur dyebon ul sarvi gulro' kyelmadi", "kabi g'azallari kompozitsiyasiga ko'ra yakporadir.

Yir - g'azal, kuy, maqom (DLT)

Zarb (ajuz) – Aruz vaznida baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Ikkinchi misraning oxirgi rukni.

Zihof va furu'lar – Aruz she'riy tizimida asl ruknlarning turli tarzda o'zgarishi (zihof) hamda o'zgarish natijasida hosil bo'lgan yangi ruknlar (furu').

O'tluk - o'git va nasihat, ma'viza (DLT)

G'azal - (غزل) arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi xotin kishiga xushomad qilmoq, oshiqona munosabatda bo'lmoqdir. Adabiy tyermin sifatida ishq-muhabbat kuylangan lirik shye'rga nisbatan qo'llanadi. «G'azal» so'zi xalq orasida, umuman, shye'r, shye'riyat va qo'shiq ma'nosida ham qo'llangan.

G'azali husni matla' - G'azalning ikki bayti qofiyadosh bo'ladi, matla' qo'sh kyelsa zyebi matla' (matlaning yarashig'i, zyebi), husni matla', husni ibtido dyeyiladi va quyidagicha qofiyalanadi: *a-a, a-a, b-a, d-a, f-a* va *h*. Bunday g'azallarning dastlabki namunalari Navoiy ijodida kuzatiladi.

G'azali qit'a - shakliy jihatdan qit'aga o'xshab kyetadi. Bunday g'azalning matlasi qit'adagidek o'zaro qofiyalanmagan bo'ladi. Qofiyalanishi: *b-a, d-a, f-a, h-a* va *h*.

G'azali musajja' - (sajli g'azal) asosiy qofiyadan tashqari, ichki qofiyaga ega bo'lgan g'azaldir. Bunday g'azallarning shoirlar kamolot bosqichida yaratganlar.

G'azali mulamma' - ikki yoki undan ortiq tilda yozilgan g'azaldir. Mulamma' arabcha (ملع) so'z bo'lib, turli rangga bo'yalgan ma'nosini byeradi. Ba'zi adabiyotshunoslar mulamma'ni "shiru shakar", agar uch tilda bo'lsa "shahdu shiru shakar" dyeb ataydilar.

G'azali muvashshah - bayt yoki misralaridagi birinchi harflar olib tizilsa, ularning birikmasidan ma'lum bir ism yoki so'z hosil bo'ladigan g'azal. Bu usul g'azal, murabba', muxammas va boshqa janrdagi shye'rlarda qo'llanishi mumkin.

G'azali mushoira - ikki yoki undan ortiq ijodkorning birgalikda yozgan g'azalidir. Mushoira arabcha shoirning o'zaro shye'riy suhbaty dyemakdir.

G'azali zulqofiyatayn - baytlarida boshdan oyoq ikkitadan qofiya uchraydigan g'azal. Bunday g'azalning ilk namunasi Alishyer Navoiy ijodida uchraydi:

Ko'zing nye balo qaro bo'luptur,
Kim jong'a qaro balo bo'luptur.

G'azali zyebqofiya - g'azalning eng kam uchraydigan turi bo'lib, undagi hamma baytlar xuddi matla' kabi (*a-a, a-a, a-a, a-a, a-a* va h.) qofiyalanadi.

G'azal-chiston - topishmoq mazmunidagi g'azal bo'lib, uning ilk namunasi Huvaydo ijodida ("zulfi ishq") uchraydi.

Chiston - fors-tojikcha "chist" – nima, "on" – u ma'nosini bildiruvchi she'riy topishmoq. U lug'z deb ham ataladi. Chistonda biror predmet yoki hodisaning xarakter va belgilarini ta'rif-tavsif etish orqali o'quvchini o'sha predmet yoki hodisani topishga ishora qiladigan she'rdir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

17. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: «SHarq» nashriyot matbaa kontsernining bosh tahririyati, 1997.
18. Karimov I.A. «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. «Xalq so'zi» gazetasi 1999 yil 9-noyabr.
19. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.-T.: "Ma'naviyat", 2010.
20. Ш. Мирзиёев. Эрким ва фаровон демократии Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.
21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси" тўғрисидаги Фармони (Халксўзи 2017 йил, 8 феврал).
22. Ш. Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курам из. Т.: Ўзбекистон, 2017.
23. Ш.Мирзиёев. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараккиёти ва халк фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017.
24. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари" тўғрисида (Халк сўзи 2017 йил, 21 апрель).

I. Asosiy adabiyotlar

1. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2-jildlar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005, 2007.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O'quv qo'llanma). –T.: Yangi asr, 2006.
4. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O'qituvchi, 1976.
5. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. - T.: Fan, 1978.
6. Valixo'jaev B.O'zbek epik poeziyasi tarixidan. - T.: Fan, 1974.
7. Valixo'jaev B. Malik ul kalom - Lutfiy she'riyati. - Sam.: 1999.
8. Valixo'jaev B. Sulton Husayn Boyqaro - Husayniy she'riyati. - Sam.: 1999.
9. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyoti tarixi. I qism. - Sam.: SamDU nashri, 2002.
10. Valixo'jaev B. Mumtoz siymolar. 1-jild. - T.: Xalq merosi, 2002.
11. Valixo'jaev B. Mumtoz siymolar. 2-jild. - T.: Xalq merosi, 2002.
12. Ma'ruza matni.

II. Qo'shimcha ilmiy adabiyotlar

1. Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. - Т.: Маънавият, 2000.
2. Раҳмонов Н. Рухиятдаги нур муроди.- Т.: 2002.
25. Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри. - Т.: Адолат, 2004.
26. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgidavri. - T.: 2005.
27. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
28. Valixo`jayev B. O`zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T.: O`zbekiston, 1993.
29. Қаюмов А. Беруний ва адабиёт. – Т.: 1973.
30. Ал фақиҳ Абу Лайс ас-Самарқандий. Танбеҳул-ғофилийн. 2-3–китоб. – Т.: 2001-2003.
31. Ҳадис. Ал жомеъ ас-саҳиҳ. 4-томлик. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1992.
32. Ас-Саолибий. Ятимат уд-даҳр. – Т.: Фан, 1976.
33. Низомий Арузий Самарқандий. Нодир Ҳикоятлар. – Т.: 1981.
34. Шомухаммедов Ш. Форс-тожик адабиёти классиклари. – Т.: Бадиий адабиёт, 1983.
35. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
36. Каримов Қ. Илк бадиий дoston. – Т.: Фан, 1976.
37. Маҳмудов Қ. «Ҳибат ул-ҳақойиқ»асарининг филологик таҳлили. – Т.: Фан, 1972.
38. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг»и ва ўзбек мумтоз адабиётида жанрлар тараққиёти. – Т.: 2004.
39. Ҳаққулов И. Аҳмад Яссавий. – Тошкент, 2001.
40. Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар. – Т.: 1990.
41. Фитрат А. Яссавий ким эди. – Т.: Халқ мероси, 1994.
42. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974.
43. Valixo`jayev B. Malik ul-kalom Mavlono Lutfiy. – Sam.: SamDU nashri, 1999. - B. 115.
44. Valixo`jayev B. Sulton Nusayn Boyqaro - Husayniy she`riyati. – Sam.: SamDU nashri, 2000.
45. Фозилов Э. XIV аср Хоразм ёдномалари. – Т.: Фан, 1973.
46. Ahmadxo`jaev E. Mavlono Lutfiy. - T.: Fan, 1991.
47. Ahmadxo`jaev E. Turkiy nazmning sehgari. - T.: Fan, 1992.
48. Рафъиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Т.: Фан, 1955.
49. Эркинов С. Лутфий. – Т.: 1965.
50. Mavlono Lutfiy she`riyati va davr adabiy muhiti muammolari (Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari) - Sam.: SamDU nashri, 2010.

51. Абдувоҳидова М. Ўзбек адабиётида мунозара. – Тошкент: Фан, 1984. – 119 б.
52. Тоҳиров Қ. Халқ қиссаси «Юсуф ва Зулайҳо»нинг матни ва тадқиқи. – Сам.: СамДУ нашри, 2002.
53. Tohirov S. Matn va tahlil (Uslubiy qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2008.
54. Тоҳиров С. Алишер Навоий Паҳлавон Маҳмуд ҳақида. «Зиёкор» . 2004 й. 9-сон.

IV. Adabiy manbalar

55. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 13-том. – Т.: Фан, 1996.
56. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 17-том. – Т.: Фан, 2000.
43. Авесто (А.Маҳкам таржимаси). – Т.: 1993. «Санъат» журнали, 1991й. №3-12.
44. Қадимий ҳикматлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1987.
45. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (С.Муталлибов таржимаси). I-III томлар. – Т.: 1960-63.
46. Фирдавсий. Шохнома. – Т.: 1984.
47. Ибн Сино. Шеърлар ва тиббий дoston. – Т.: 1981.
48. Умар Хайём. Рубойлар. – Т. 1970.
49. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Қ.Каримов). – Т.: Фан, 1971, 1972 (иккинчи нашр).
50. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: Юлдузча, 1990.
51. Yusuф Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Т.: Cho'lpon, 2007.
52. Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул-ҳақойиқ (Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Қ.Маҳмудов). – Т.: 1971.
53. Навоийнинг нигоҳи тушган. – Т.: 1986.
54. Хожа Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар (Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи И.Ҳаққулов). – Т.: 1991.
55. Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: 1992.
56. Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби (Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифлари И.Ҳаққулов, С.Рафъиддинов) – Т.: Ёзувчи, 1991.
48. Паҳлавон Маҳмуд. Рубойлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.
49. Муҳаммад Авфи. Гулчини «Жавомеъ ул-ҳикоёт». – Д.: Ирфон, 1966.
50. Рабғўзий. Қиссас ар-Рабғўзий. 1-том. – Т.: Ёзувчи, 1990.
51. Рабғўзий. Қиссас ар-Рабғўзий. 2-том. – Т.: Ёзувчи, 1991.
52. Сайфи Саройи. Шеърлар. Гулистон. – Т.: 1968.
53. Ўзбек насри тарихидан. – Т.: Фан, 1982. 18-56 – б.

54. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
55. Уч булбул гулшани. – Т.: 1986.
56. Муборак мактублар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1987.
57. Ҳаёт васфи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988.
58. Отойи. Танланган асарлар. – Т.: 1958.
59. Девони Шайхзода Атойи. –Т.: Фан, 2008.
60. Лутфий. Сенсан севарим. – Т.: 1985.
61. Абдурахмон Жомий. Танланган асарлар. – Т.: 1971.
62. Абдурахмон Жомий. Лайли ва Мажнун.– Т.: 1989.
63. Ҳусайн Бойқаро. Девон. Рисола. – Т.: 1964.
64. Ҳусайн Бойқаро. Жамолингдин кўзум равшан. – Т.: 1991.
65. Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти 2002 - 2003 й.й.
66. Саййид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: Фан, 1992.

Xorijiy manbalar

67. Nihad Sami Banarli. Resimli Turk Edebiyati tarihi. – İstanbul: Milli Eğitim Basimevi, 2001.
68. Fuad Koprulu. Türk edebiyatında ilk mutasavviflar. – Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı, 1991.
69. Fuad Koprulu. Türk Dili ve edebiyati hakkında araştırmalar. – İstanbul, 1934. – С. 33-34.
70. Cemal Kurnaz. Eski turk edebiyati. – Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı, 2001.
71. Асуқ F. Ozbek edabiyati. Ankara: 2008.
72. Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. – Т.: 1972.
73. La Literature de l'époque des Karakhanides // Philologiae Turcicae fundamenta. – Wiesbaden, 1964. – С. 167-175.
74. Pritsak O. Mahmud Kāşgarī kimdir? // Türkiyât Mecmuası. X (1951-1953). – S. 243-246.
75. Dankoff R. Kāşgharī on the Tribal and Kinship Organization of the Turks // Archivum Ottomanicum IV (1972). – 23-43 pp..
76. Зуев Ю.А. Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. – Алматы: Дайк-Пресс, 2002.
77. Hauenschild I. Die Tierbezeichnungen bei Mahmud al-Kaschgarī. Eine Untersuchung aus sprachund kulturhistorischer // Wiesbaden, Harrassowitz, 2003.
78. Mitteilürkischer Wortschatz nach Mahmud al-Kaşgaris Divân Lugât at-Turk. Budapest-Leipzig, 1928.

79. Боровков Т.А. Грамматические очерки языка “Дивāну лугāt-ит турк” Махмуда Кашгари / Дисс. кандидата филол. наук. – Л., 1966. – С. 133-135.
80. Besim Atalay. Divanü Lügat-ıt-Türk ve Tercümesi üzerine Notlar / Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lügat-ıt-Türk (çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5.Baskı. Cild I. – Ankara, 2006. – S. XII.

Internet va Ziyonet saytlari

«O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi» fanining informasion ta'minoti INTERNETda www.literature.uz, www.ziyonet.uz saytlarida aks etgan.

1. www.alishernavoiiy.uz – [http: // alishernavoiiy.uz/](http://alishernavoiiy.uz/)
2. www.ziyo-net.uz – [http: // ziyonet.uz/](http://ziyonet.uz/)
3. www.literature.uz – [http: // literature.uz/](http://literature.uz/)
4. www.kutubxona.uz – [http: // kutubxona.uz/](http://kutubxona.uz/)

